

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
IQTISODIYOT NAZARIYASI (UMUMIQTISODIY FANLAR) KAFEDRASI**

«TASDIQLAYMAN»

«_____»

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor I.Yu.Bultakov

Ishchi dastur institut O‘UK majlisining

“ ” 2010 yildagi

- sonli majlisida tasdiqlangan

**“KORXONALARNING XO‘JALIK FAOLIYATI TAHLILI”
fanidan**

MA‘RUZA MATNI

Ta‘lim yo‘nalishi: 5341000 –Mintaqashunoslik

5342400 – Xitoyshunoslik

5342500- Quriyashunoslik

Kurs	IV
Semestr	VIII
Ma‘ruza	14
Amaliy mashg‘ulotlar	14
Mustaqil ta‘lim	28
Jami	56

TOSHKENT-2010

Tuzuvchilar: i.f.n., dotsent Xolmatov N.B, o'qituvchi M.B.Shodiyev

Ma'ruza matn kafedra majlisining « » 2010 yildagi -sonli majlisida muhokama qilingan.

Kafedra mudiri i.f.n., dotsent Xolmatov N.B.

Ma'ruza matn fakultet O'UK majlisining « » 2010 yildagi -sonli majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

Fakultet O'UK raisi _____

MUNDARIJA

Mavzular	bet
KIRISH.....	3
1-Mavzu. Korxonalar xo'jalik faoliyati tahlili fanning predmeti, metodlari va vazifalari.....	5
2-Mavzu. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining tahlili.....	
3-Mavzu. Korxona asosiy vositalari va nomoddiy aktivlarining tahlili.....	
4-Mavzu. Korxona moliyaviy holatini tahlili.....	
5-Mavzu. Korxonaning mehnat salohiyati tahlili.....	
6-Mavzu. Debitorlik va kreditorlik karzlarining tahlili.....	
7-Mavzu. Korxona moliyaviy natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	
ILOVALAR.....	

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar boshqaruv faoliyatini to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ham ishlab chiqarish jarayonini boshqarishda, shuningdek, bevosita bozordagi raqobatni e'tiborga olib qancha, nima va qanday mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirimog'i lozim. Shu bilan bir qatorda mavjud resurslarda samarali foydalanib, mahsulot tannarxini imkon qadar bozorbop va xaridorlarning ehtiyojlariga mos ravishda raqobatbardoshli hamda sifatli mahsulot ishlab chiqarishga, shuningdek, korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatiga xolisona baho berish, uning moliyaviy barqororligini ta'minlash, moliyaviy natijalarini to'g'ri aniqlash, moddiy-moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini hisoblab topish muhim ahamiyatga ega. Bunda moliyaviy koeffitsientlarni qo'llash tartibi orqali ularning qanchalik samarali ishlatilishini oldindan o'rganishni talab etadi. Bunday ishlarini amalga oshirishda Korxonalarninig xo'jalik faoliyati tahlili fani asoslari hamda ularda qo'llaniladigan usullarni bilish talab etiladi. Shu boisdan, mazkur ma'ruza matnida korxonalar faoliyatini boshqarishga doir mavzular berilgan va ularni talabalarning chuqur o'rganishi natijasida yuqoridagi masalalarning aniq echimini ishlab chiqish imkoniyatiga hamda ko'nikmalarga ega bo'lishlari mumkin. Bunda boshqaruv ishlarini tashkil qilish va ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni oldindan hisoblab chiqish hamda ularni boshqarish uchun tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqishlari mumkin. Keyingi yillarda iqtisodiy tahlil fanlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy ta'lim tizimidagi tutgan o'rni, roli va vazifalari oshib bormoqda. «Korxonalarninig xo'jalik faoliyati tahlili» fanini ToshDSH Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mintaqashunoslik ixtisosligi 4 kurs talabalariga o'qitish mo'ljallangan bo'lib, o'qitishning maqsadi talabalarga fanning predmeti, obekti, vazifalari va metodlari, tahlil ko'rsatkichlari va boshqa axborot manbalari to'g'risida keng ma'lumot berishdan iborat.

Talabalar iqtisodiy tahlil usullarini, ko'rsatkichlarini, korxona xo'jalik faoliyatini baholash mezonlarini bilishlari kerak. Shuningdek, ular iqtisodiy tahlil ko'rsatkichlaridan foydalanib korxona xo'jalik faoliyatiga baho bera olishlari lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning xo'jalik faoliyatlarini rivojlantirish va tahlil etish tizimini takomillashtirish istiqbollari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Fanni o'qitishda respublikamiz korxonalarning xo'jalik faoliyati va moliyaviy hisobotlardan, tahliliy materiallardan, interaktiv va masofaviy usullardan keng foydalaniladi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarda tahliliy va statistik materiallardan samarali foydalanishga imkon yaratuvchi mavzularga ko'proq e'tibor qaratilgan. Fan bir semestr o'qitiladi va Iqtisodiy nazariya, Iqtisodiy statistika, Buxgalteriya hisobi va audit, Moliya va kredit fanlarining nazariy va amaliy materiallaridan keng foydalaniladi.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda korxonalarda tahlil va hisob-kitob ishlarini tashkil etish, korxona balansi shakllanishi va tuzilishi, tahlil hisobi ishlarini yuritish bo'yicha nazariy bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarga nazariy materiallarga tayangan holda amaliy va ilmiy faoliyatini mustaqil tashkil etish, korxonalar faoliyatining me'eri, tahlil asoslarini chuqur o'rgatish, tahlil ishlarining nazariy va xalqaro andozalar bilan bog'liq jihatlarini o'zlashtirish, amaliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. “Korxonalarninig xo'jalik faoliyati tahlili” fanini o'rganish jarayonida o'zlashtiriladigan mavzular doirasida bakalavr:

- korxonalarda ish yuritish va tahlili ishlarini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari, milliy iqtisodiyot parametrlarining shakllanish shart-sharoitlari, korxona tovar-moddiy boyliklarini tahlil qilish va xo'jalik amaliyotlari tasniflanishi haqida bilimga ega bo'lishi kerak;

-tadbirkorlikni tashkil etish, hisob-kitob ishlarini yo'lga qo'yish, tahlili va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak;

- korxona xo'jalik amaliyotlari mazmuni, ko'lami va yo'nalishlarini korxona xo'jalik faoliyatining tahlil qila olish, asosiy faoliyat qonuniyatlarini aniqlash, to'g'ri baholay olish va hisob-kitob ishlarini takomillashtirish bo'yicha mustaqil fikrlash va tegishli qarorlar qabul qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.

“Korxonalarninig xo'jalik faoliyati tahlili” fani bakalavriat bosqichining 8-semestrida o'rganiladi. Ushbu o'quv dasturiga kiritilgan savollar boshqa iqtisodiy fanlar, jumladan, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar (Iqtisodiy nazariya), umumkasbiy fanlar (Iqtisodiy statistika, Mikro va makroiqtisodiyot, Moliya va kredit, O'zbekiston iqtisodiyoti) kabi fanlarning dasturlari bilan uzviy bog'liq va uslubiy jihatdan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi mazmundadir.

“Korxonalarninig xo'jalik faoliyati tahlili” fani milliy iqtisodiyot sohalari korxonalari, tashkilot va muassasalarida ish yuritish va hisob-kitob ishlarini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari, milliy iqtisodiyot parametrlarining shakllanish shart-sharoitlari, korxona tovar-moddiy boyliklari va xo'jalik amaliyotlari tasniflanishining nazariy asoslarini o'rgatishi bilan bir qatorda, tadbirkorlikni tashkil etish, hisob-kitob ishlarini yo'lga qo'yish, korxona buxgalteriya balansi va uning tarkibiy qismlari shakllanishining amaliy masalalarini qamrab oladi. Korxona xo'jalik amaliyotlari mazmuni, ko'lami va yo'nalishlarini tahlil qilish, asosiy faoliyatga ob'ektiv baho berish, xo'jalik amaliyoti ko'lamini aniqlash, hisob-kitob ishlarini takomillashtirish masalalari esa bevosita amaliy ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning “Korxonalarninig xo'jalik faoliyati tahlili” fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot texnologiyalarini ushbu jarayonga tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda, fan bo'yicha bilim berishda va o'qitishda ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, interaktiv va masofaviy usullardan keng foydalaniladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Statistika Davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Bojxona va Soliq qo'mitalari, Buxgalterlar va auditorlar milliy uyushmasi, Xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan xalqaro andozalardan foydalaniladi.

1-Mavzu Korxonalar xo‘alik faoliyati tahlili fanning predmeti, metodlari va vazifalari

Dars o‘quv maqsadi - Talabalarga korxonalar xo‘jalik faoliyati tahlili haqida umumiy tushunchalar, korxonalar xo‘jalik faoliyati tahlili predmeti va ob‘ektlari, korxonalar xo‘jalik faoliyati tahlilining funktsiya va vazifalari, tahlilining metodi va uni tashkil etuvchi usullari haqida ma‘lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar- moliyaviy hisob, statistik hisob, operativ hisob, Inventarizasiya, moliyaviy hisobot, baholash, kalkulyatsiya, balans, hisobot, passiv, aktiv, korrespondentsiya, sintetik, analitik, asosiy schetlar, kredit, oborot, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, asosiy vositalar xarakati to‘g‘risidagi hisobot, o‘z sarmoyasi to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot.

Asosiy savollar

1. Korxonalar xo‘jalik faoliyati tahlilining maqsadi, vazifalari va informatsiya manbalari.
2. Hozirgi zamon korxonalar xo‘jalik faoliyati tahlilining shakllanishi
3. Korxonalar xo‘jalik faoliyati tahlilida qo‘llaniladigan usullar.
4. Moliyaviy va boshqaruv tahlilida tarmoq xususiyatlarini hisobga olish.

1. Korxonalar xo‘jalik faoliyati tahlilining maqsadi, vazifalari va informatsiya manbalari.

Korxonalar xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda eng muhim masala korxonaning o‘tgan davrdagi va hozirgi davrdagi moliyaviy holati va ularning moliyaviy hisobotda qanday aks ettirilishi hisoblanadi. Kredit berish to‘g‘risida qaror qabul qilishda korxona rahbarining boshqaruv “stili” va korxonaning kredit tarixi ham muhim hisoblanadi, ammo ularni moliyaviy hisobot tahlili asosida baholab bo‘lmaydi. Moliyaviy hisobot tahlilida korxonaning kelajakdagi faoliyatiga baho berish maqsadida uning o‘tgan davrdagi holatiga tegishli ma‘lumotlarning ishonchliligiga baho beriladi va tizimli ravishda ko‘rib chiqiladi. Bunday tahlil ishlab chiqarish yoki moliyaviy faoliyatga eng muhim xarakteristika berishga imkon yaratadi va korxonaning muvaffaqiyatini yoki inqirozga uchrashi ehtimolini aniqlab beradi. Kredit bo‘limining xodimi mavjud ma‘lumotlarni ishonchli mantiqiy va hisob tamoyillariga asoslangan usullar yordamida baholaydi. Ular bir qancha texnik ishlarni bajarish orqali koeffitsientlarni hisoblaydilar, ma‘lumotlarning ishonchliligiga va korxona faoliyatiga umumiy baho berishadi, boshqa firmalarning statistik ma‘lumotlari bilan qiyoslaydi va kelgusi xo‘jalik faoliyatini bosharat qilishadi. Kredit bo‘limi xodimi ko‘rsatkichlarni hisoblagandan keyin, bu raqamlar ortida nima turganligini tushunish uchun ularni chuqur o‘rganishi lozim. Nafaqat nima bo‘lganligini, balki nima sababdan bo‘lganligini ham aniqlash zarur. Korxonaning kelgusida kreditni qaytarish imkoniyatiga o‘tgan davrdagi holat va bugungi tendentsiya qanday ta‘sir qilishini baholash muhim hisoblanadi. Shunday qilib, moliyaviy hisobot tahlilidagi eng asosiy narsa – ma‘lumotlarga berilgan analitik ishlov natijalarini to‘g‘ri interpretatsiya qilish va tushunish hisoblanadi. Buning uchun kredit bo‘limi xodimi birinchi navbatda quyidagi eng asosiy informatsiyalarni olishi lozim:

- korxonaning egalari to‘g‘risida;
- uning rahbari to‘g‘risida;
- faoliyat turi to‘g‘risida;
- raqobatchilari va ishlayotgan bozor to‘g‘risida;
- uning ekspluatatsiya (doimiy, davr) xarajatlari to‘g‘risida;

- tarmoqqa tegishli xarakteristika;
- korxonaning tarmoqdagi o'rnini to'g'risida;
- tegishli xukumat qarorlari to'g'risida;
- iqtisodiyotda yuz beradigan noqulay o'zgarishlarga korxonaning "ta'sirchanligi" to'g'risida;
- korxona faoliyatiga demografik tendentsiyalar va iste'molchilar talabining ta'siri to'g'risida
- Korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilining informatsiya manbalari sifatida 1-sonli O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartida quyidagi shakllar ko'zda tutilgan:
- Buxgalteriya balansi – 1-shakl,
- Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot – 2-shakl,
- Asosiy vositalar xarakati to'g'risidagi hisobot – 3-shakl,
- Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot – 4-shakl,
- O'z sarmoyasi to'g'risidagi hisobot – 5-shakl
- Iizohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.
- Ichki ishlab chiqarish hisobotlari, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, analitik va sintetik hisob ma'lumotlari, auditorlar hisobotlari, auditorlik xulosalari

2. Hozirgi zamon moliyaviy hisobot tahlilining shakllanishi.

Xozirgi zamon korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilining rivojlanishi bir qancha bosqichlardan iborat. Korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilining dastlabki bosqichi **"Pragmatiklar maktabi"** deb nomlangan professional tahlilchilardan iborat bo'lib, ular asosan kredit qobiliyatiga baho berish bilan shug'ullanishgan. Korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilining asosiy maqsadi – korxonaning qisqa muddatli majburiyatlariga baho berish hisoblangan. Asosiy ko'rsatkichlar sifatida aylanma mablag'lar, o'ziga qarashli aylanma mablag'lar va qisqa muddatli majburiyatlar tizimidan foydalanishgan. Bu maktabning asosiy namoyandalari sifatida Robert Fouk va Pol Barnslar hisoblanishgan va XIX asrning 50-yillarida moliyaviy hisobot tahlilining ushbu yo'nalishlariga asos solishgan. Hozirgi zamon korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilining shakllanishi.

Shu sababli ular korxonaning joriy faoliyati samaradorligi va moliyaviy holatni xarakterlavchi ko'rsatkichlar, moliyaviy xo'jalik faoliyatining umumiy ko'rsatkichlarini klassifikatsiya qilishadi.

Korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilidagi to'rtinchi yondoshuv **"Korxonaning bankrot bo'lishi prognozi bilan shug'ullanadigan tahlilchilar maktabi"** deb nomlangan bo'lib, ular joriy faoliyat tahlilidan istiqbolli tahlilni ustivor qo'yishadi. Ularning fikricha moliyaviy hisobot tahlilining qiymati korxonaning bankrot bo'lish ehtimolini prognoz qilish imkoniyati bilan o'lchanadi. Shu sababli ular korxonaning umumiy ma'lumotlari asosida hisoblangan ko'effitsientlarni chiziqli diskrimant funktsiyasidan foydalangan holda bankrotlikni aniqlashni taklif qilishadi. Bu maktabning eng mashhur nomayondalaridan biri Eduvard Altman hisoblanadi.

Shu sababli ular korxonaning joriy faoliyati samaradorligi va moliyaviy holatni xarakterlavchi ko'rsatkichlar, moliyaviy xo'jalik faoliyatining umumiy ko'rsatkichlarini klassifikatsiya qilishadi.

Korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilidagi beshinchi yondoshuv XX asrning 60-yillarida **"Fond bozori qatnashchilari maktabi"** deb nomlangan bo'lib, bu maktab vakillarining fikricha moliyaviy hisobot tahlilining qiymati korxonalarga investitsiya qilishni tanlash imkoniyati bilan o'lchanadi. Bu maktabning eng mashhur nomayondalaridan biri Djordj Foster hisoblanib, uning fikricha korxonalar tomonidan tayyorlangan moliyaviy hisobot ma'lumotlari investorlar tomonidan aktsiya va obligatsiyalarga investitsiya qilishda boshqaruv qarorini qabul qilishga yordam beradi.

3. Korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilida qo'llaniladigan usullar.

Barcha fanlar qatori moliyaviy hisobotlar tahlili fani ham dialektik usullarga asoslanadi. Moliyaviy hisobotlar tahlili fanining usuli - bu xo'jalik jarayonlarini, ularning rivojlanishini o'rganishda dialektik yondoshishdan iborat. Fan metodining quyidagi o'ziga xos tomonlari mavjud:

- xo'jalik jarayonlari va xodisalarni o'rganishda mavjud barcha ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi;
- yana bir o'ziga xos tomoni u yoki bu ko'rsatkichlarning o'zgarish sabablarini o'rganishdir. Korxona xo'jalik faoliyatining, xatto aloxida olingan ko'rsatkichining o'zgarishiga turli-tuman, ko'plab sabablar ta'sir qilishi mumkin. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining vazifasi ana shu ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi asosiy sabablarni aniqlashdan iborat; ob'ektiv ishlab chiqarish sharoitidan kelib chiqqan holda, iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni va bog'liqliklarni o'rganishdan iborat.
- Korxona faoliyatini o'rganishda, ma'lumotlarga analitik ishlov berishda shunday texnik usullardan foydalaniladiki, bu fanning metodini konkretlashtiradi. **Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullarni ko'pchilik iqtisodiy adabiyotlarda shartli ravishda ikki guruhga bo'lishadi:**
- odatdagi, an'anaviy har doim qo'llanib kelingan usullari;
- iqtisodiy matematik usullari.
- Tahlilning odatdagi usullariga moliyaviy hisobot tahlili paydo bo'lgandan buyon qo'llanib kelinayotgan usullar kiradi. Iqtisodiy-matematik usullari nazariy matematika fanining rivojlanishi va elektron hisoblash texnikalarining keyingi avlodlari kashf qilinishi bilan paydo bo'lgan usullar hisoblanadi.
- Tahlilning odatdagi usullariga taqqoslash, guruhlariga ajratish, balansli bog'lanish, o'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlar usuli, indeks usuli va zanjirli bog'lanish usullari kiradi. Iqtisodiy-matematik usullarga logarifmlash, integrallash, differentsiyalash, chiziqli programmashtirish, nazariy o'yin usuli, korrelatsion-regression usul, ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasi, grafik nazariyasi usullarini keltirish mumkin.
- Tahlilning **taqqoslash usuli** eng keng tarqalgan mantiqiy usul hisoblanib, xaqiqiy ko'rsatkichlarni reja ko'rsatkichlari bilan o'zaro taqqoslab rejaning bajarilishiga, o'tgan hisobot davridagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslab ko'rsatkichlar dinamikasiga va tarmoqdagi ilg'or korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslab foydalanilmayotgan ichki rezervlarga baho beriladi. **Guruhlariga ajratish usuli** ham keng tarqalgan usul hisoblanib, unda ko'rsatkichlar biron bir belgisiga, mezoniga qarab guruhlariga ajratiladi. Masalan, mahsulot xajmi, asosiy vositalar qiymati, ustav kapitali yoki ishchilar soniga qarab va xokazo.
- Iqtisodiy tahlilning indeks usuli nisbiy ko'rsatkichlariga asoslanadi. Har qanday indeks hisobot ko'rsatkichlarini bazis ko'rsatkichlariga taqqoslash orqali hisoblanadi. Indeks usuli orqali o'rganilayotgan umumiy ko'rsatkichning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Iqtisodiy tahlilda **zanjirli bog'lanish** usulidan alohida omillarning umumiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlashda foydalaniladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, umumiy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarning bazis ko'rsatkichlari ketma-ket almashtirilib turiladi. Bunda bitta omil o'zgaruvchan qolganlari esa o'zgarmas hisoblanadi. Bu ketma-ketlik barcha omillar bo'yicha takrorlanadi. Balansli bog'lanish usuli ham iqtisodiy tahlilda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida tovarlar balansi, ishlab chiqarish quvvati balansi, moliyaviy holat balanslari tahlil qilinadi.

4. Moliyaviy va boshqaruv tahlilida tarmoq xususiyatlarini hisobga olish.

Kredit bo'limi xodimi korxonalarning moliyaviy hisobot ma'lumotlarini tahlil qilishdan oldin ushbu korxonaning faoliyat turi va u ishlayotgan sharoitlar to'g'risida keng tasavvurga ega bo'lmog'i lozim. Bunday tasavvur kredit bo'limi xodimiga moliyaviy hisobot tahlilini o'tkazishga va raqamlar ortida nima turganligini aniqlashda yordam beradi. Kreditor hisobga olishi lozim bo'lgan eng asosiy omil – bu karz oluvchi korxonaning faoliyat turi, ya'ni savdo sohasimi, xizmat ko'rsatish sohasimi, qayta ishlovchi sanoat korxonasimi yoki qishloq xo'jalik sohasi ekanligidadir. Har bir soha korxonasi uchun operatsion tsiklning o'ziga xos xususiyati, kreditga ehtiyoj va uni moliyalashtirish hamda qaytarish manbasi mavjud. Shu sababli kredit bo'limi tahlilchisi quyidagilarga e'tiborni qaratishi lozim:

- **operatsion tsiklni aniqlash** – ya'ni tavor ishlab chiqarish, tovar yoki xizmatni sotish va sotilgan mahsulot uchun pulni olishga ketadigan vaqtni aniqlash;
- **pul mablag'lari xarakati tsiklini tahlil qilish**, ya'ni u qarz mablag'lariga ehtiyoj va qarzni qaytarish vaqtiga qanday ta'sir qilishini aniqlash. Bu asosiy vositalar tsikli va foyda tsikli tushunchalari bilan bog'liq hisoblanadi;
- **ma'muriyat maqsadiga xarakteristika**, firmaning maqsadini, bozor taktikasini, foyda va iqtisodiy o'sishga nisbatan maqsadini, etika va boshqaruv stiliga xarakteristika berish;
- **tarmoq riskini baholash**, alohida tarmoq va xo'jalik strategiyasidagi risklarni taqqoslash;
- **bozorni o'rganish**, moliyaviy hisobot tahlili nuqtai nazaridan raqobat jiddiy omil hisoblanishi mumkinligini o'rganish;
- **makroiqtisodiy omillarni o'rganish**, tarmoqning iqtisodiyotda yuz beradigan pasayishlarga ta'sirchanligini va ularning ta'siri qanday tartibga solinishini aniqlash;
- **yuridik maqomini o'rganish**, ya'ni korxona qanday tashkiliy-xuquqiy shaklda tashkil qilinganligini xususiyimi, kooperativmi yoki aksionerlik jamiyati shaklida tashkil qilinganligini aniqlash.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilining vujudga kelish sabablari.
2. Korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilida qo'llaniladigan usullar.
3. Tahlilning taqqoslash usuli
4. Guruhlarga ajratish usuli
5. Zanjirli bog'lanish usuli
6. Iqtisodiy matematik usullar.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Buxgalteriya balansi slayd tayyorlash
2. Asosiy vositalar xarakati to'g'risidagi hisobot referat tayyorlash
3. Korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilining dasturini ishlab chiqish

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: 1992 y. 8 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi – Toshkent.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2010 y
3. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1996 y. 30 avgust.
4. Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda». – T.: «O'zbekiston».- 2000
5. Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 25 dekabrda 567- sonli «Maxsulot ishlar, xizmatlar) kursatish, ishlab chikarish va sotish buyicha maxsulot (ish xizmati) tannarxiga kushiladigan xarajatlar tarkibi xamda moliyaviy natijalar shakllanishi tartibi xakida Nizom. -T.: 2003.
6. Shoalimov A. Tojiboeva D. «Boshqaruv tahlili» Toshkent, ToshIU, 2004
7. Xasanov N.,Najbiddinov S. Korxona moliyaviy holatini baholash. T-«Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1999y.

2-Mavzu. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining tahlili

Dars o'quv maqsadi - Talabalarga mahsulot ishlab chiqarish hajmining tahlili haqida umumiy tushunchalar, mahsulot ishlab chiqarish hajmining tahlili predmeti va ob'ektlari, korxonalarning xo'jalik faoliyati tahlilining vazifalari, tahlilning metodi va uni tashkil etuvchi usullari, mahsulot nomenklaturasi va assortimentining tahlili haqida ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar- ishlab chiqarish hajmi, mahsulot nomenklaturasining tavsifi, mahsulot assortimentini tahlil etish uslublari, mahsulot tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarni aniqlash uslublari, ishlab chiqarish maromiyligi, ishlab chiqarish maromiyligini buzilish sabablari, maromiyligni korxona iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri.

Asosiy savollar

- 1. Tahlilni mazmuni, vazifalari va manbalari.**
- 2. Mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarilishi va dinamikasini tahlili.**
- 3. Mahsulot nomenklaturasi va assortimentining tahlili.**
- 4. Brakdan yo'qotishlarni tahlili**

1. Tahlilni mazmuni, vazifasi va manbalari.

... xorijiy sarmoyalarni jalb etish bo'yicha rag'batlantirishni kuchaytirish, kafolat va imtiyozlarni kengaytirish, investitsiya faoliyati uchun qulay muhitni shakllantirish zarur. Shunga erishish kerakki, O'zbekiston bozori mamlakatimizda o'z biznesiga ega bo'lishni istagan har bir kishi uchun jozibali bo'lsin.

Islom karimov

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish bo'yicha belgilangan rejalarni bajarilishi korxonalarni sifat ko'rsatkichlari bo'lmish tannarxi, mehnat unumdorligi, oborot mablag'larini aylanish tezligi va hakovolar ko'rsatkichlariga ta'sir etadi.

Hisobotda ishlab chiqarish ko'rsatkichi natura va qiymat shakllarida aks etadi. Jami korxona bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot, ko'rsatilgan xizmat qiymat shaklida hisoblanadi. Tar bir korxona mahsulot ishlab chiqarish hajmini belgilangan nomenklatura, assortimentda sifatli bajarishi lozim. Bugunki kunda mahsulotni ishlab chiqarish hajmi korxona tomonidan mustaqil rejalashtiriladi.

"Korxona to'g'risida"gi qonunni 20-moddasiga quyidagilar qayd etilgan:

"korxona o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va hom-ashyo resurslariga, materiallarni mavjudligini hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bajarilag'tgan ishga, ko'rsatilag'tgan xizmatga bo'lgan talablarini hisobga olib taraqqig't istiqbollarni belgilaydi". Korxona davlat ehtijlari uchun shartnoma asosida ishlar bajaradi, mahsulot sotadi va xizmat ko'rsatadi:

Mahsulot mo'l-ko'lligini ta'minlashda aholini xilma-xil tovarlar bilan ta'minlashda xorijiy sarmoyalarning tutgan roli katta. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarag'nini kuzatar ekanmiz, rivojlanish darajasi qanday bqlishidan qat'iy nazar chet el sarmoyasi kiritilgan mamlakatlar

iqtisodiyoti tez suratlar bilan rivojlanib, salmoqli yutuqlarga erishayotganligining guvohi bo'lamiz. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra bir yilda qarib 400 mlrd. Aqsh dollari xajmidagi xorijiy sarmoya bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga, bir mintaqadan boshqa mintaqaga olib kiriladi. Prezidentimiz islom karimov oliy majlisning xiv sessiyasidagi ma'ruzasida xxi asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlkatimizning rivojlanish strategiyasi islohatlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi asosiy ustivor g'nalishlar haqida to'xtalib, jumladan shunday degan edi: «beshinchi ustuvor g'nalish-bu iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashdir. Mazkur o'zgarishlar korxonalarni yangilash va texnik qayta jihozlashga, mamlkatning boy tabiiy va mineral hom ashyo salohiyatidan to'la va samarali foydalanishga, eksportga moslashga va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaradigan quvvatlarni barpo etishga qaratilmog'i lozim».

O'zbekistondagi investitsiya siyosatining yana bir muhim jihati-xorijiy sarmoyadorlarga berilayotgan imtiyozlardir. Xorijiy sarmoyadorlarda qiziqish uyg'otayotgan ikkita imtiyozni misol sifatida aytishimiz mumkin. Birinchisi, agarda ular qo'shma korxona tuzib, uni O'zbekiston respublikasining investitsion dasturiga kiritsalar, 7 yil davomida foydadan olinadigan soliqlardan ozod etiladilar. Ikkinchisi, agar mavjud qonunlar o'zgarib boradigan bo'lsa va bu o'zgarishlar u yoki bu kompaniyaga iqtisodiy yoki boshqa jihatdan zarar etkazadigan bo'lsa, o'sha xorijlik sarmoyador O'zbekistonga kirib kelgan paytdagi qonunchilikdan yana 10 yil davomida foydalanishi va barqaror vaziyatda ishlashi mumkin. Mana shunday huquqiy kafolatlar, soliqlardagi imtiyozlar tufayli keyingi yillarda mamlakatimizga ko'plab xorijiy sarmoyalar kiritilmoqda. Jtgan 8 yil mobaynida 10 mlrd. Aqsh dollaridan ziyod mablag' respublikamiz iqtisodiyotiga kiritilgan. O'zbekiston bugungi kunda dunyoning 80 dan ziyod mamlkatlari bilan investitsion sohada xamkorlik qilmoqda. Natijada ko'plab qo'shma korxonalar o'z faoliyatini yuritmoqda.

Tahlil vazifasi:

1. Mahsulot hajmi, strukturasi va sifatini hisobga olgan holda biznes rejaning bajarilishini nazorat qilish, ular dinamikasini o'sish o'rsatkichlarini aniqlash.

2. Mahsulot hajmi va sotishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni miqdor jihatdan hisoblash.

3. Mahsulot hajmi va sotishni oshirish imkoniyatlarini hisoblash.

Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar forma №1p, №2 sutkalik va dekada bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hisobotlaridan olinadi.

2. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Ishlab chiqarish va sotish hajmini rejalashtirishni tekshirish usuli.

Mahsulot hajmini va sotishni ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib: a) yalpi mahsulot b) tovar mahsuloti. V) realizatsiya hajmi hisoblanadi.

Yalpi mahsulot ma'lum vaqt ichida ishlab chiqarilgan mahsulot va ko'rsatgan xizmatlarni o'z ichiga oladi. Uning tarkibiga tayyor mahsulot, chetga chiqarilgan va o'z kapitali remonti uchun sarflangan yarim fabrikatlar, chetga chiqarilgan elektr energiya, ko'rsatilgan xizmat, tugallanmagan ishlab chiqarish hamda buyurtmachining hom ashyosidan tayyorlangan mahsulot qiymati kiradi.

Tovar mahsuloti chetga chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulot. U tarkibi jihatdan yalpi mahsulot bilan bir xil ko'rinishga ega. Ammo uning tarkibiga tugallanmagan ishlab chiqarish va buyurtmachining xom ashyosidan tayyorlangan mahsulot qiymati kirmaydi.

Tovar mahsuloti tannarxni aniqlashda, mehnat unumdorligini hisoblashda, hamda sotish hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida o'rganiladi.

Realizatsiya ishlab chiqarish jarayonini so'ngi bosqichidir. Realizatsiya tovar pul jarayonlarini tezlashtirishga pul muomilasini tezlashtirishga ta'sir etadi. Tahlil etishda avvalo korxona tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va sotish bo'yicha rejalarni to'g'ri belgilanganligini tekshiriladi.

1-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish rejasining belgilanishini tahlili.

Ko'rsatkich	Shartli belgi	Rejadagi bahoda ulgurji	Ishlab chiqarish tannarxida
Tayyor mahsulot yil boshiga qoldig'i	Y.b.	25352	18632
Tovar mahsulot	T	281126	192637
Jami 1+2	-	306478	211269
Sotilgan mahsulot	R	280380	192740
Tayyor mahsulot yil oxirida qoldiq	Y.o.	26098	18529

2-jadval.

Sotish va ishlab chiqarish bo'yicha belgilangan rejani to'g'riligini tekshirish.

	Shartli	Rejadagi	Ishlab	
--	---------	----------	--------	--

Ko'rsatkichlar	Belgi	ulgurji bahoda	chiqarish tannarxida	Foyda
Tayyor mahsulot yil boshidagi qoldiq bilan	T+yb	306478	211269	95209
Yil oixirdagi tayyor mahsulot qoldig'i	YO	26098	18529	7569
Mumkin bo'lgan sotish hajmi st1-st 2	R	280380	192740	87640
Reja bo'yicha sotish hajmi		260454	189213	71241
Farqi st 3-st 4		19926	3527	16399

2-jadvaldagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki korxona mahsulot sotish rejasini real belgilamagan. Imkoniyat darajasida sotish rejasini 19926 ming so'mga past belgilangan. Buning natijasida olinadigan foyda 16399 ming so'mga kamaygan.

3. Mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarilishi va dinamikasini tahlili.

Mahsulot hajmi (ish, xizmat) hisobga olishda va hisobot shakllarida 2 xil bahoda: solishtirma ulgurji bahoda hamda joriy yilning amaldagi bahosida ifodalanadi. Mahsulot ishlab chiqarish xajmlarini tahlil etishda uning rejasini bajarilishi natura va qiymat shakllarida aniqlanadi. Dinamikasini aniqlash uchun hisobot davrida ishlab chiqarilgan haqiqiy mahsulot hajmi o'tgan yillardagisi bilan taqqoslanib ko'rsatkichlarni o'zgarishi mutloq va nisbiy (foiz)larda aniqlanishi lozim. Mahsulot hajmi (ish,xizmat) ni o'tgan yillarga nisbatan o'sish sur'atlari bir xil solishtirma ulgurji bahoda aniqlanadi. Amaldagi ulgurji bahoda ifodalangan mahsulot hajmi (ish, xizmat)ni solishtirma bahodagisi bilan taqqoslash orqali bahoning o'zgarishini mahsulot hajmiga ta'siri aniqlanadi.

3-jadval.

Mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarilishi va dinamikasini tahlili.

Ko'rsatkichlar	Jtgan Yil	Hisobot yili		Farqi (+,-)	
		Reja	Haqiqat	Rejadan	O'tgan yildan

				M.so'm	%	M.so'm	%
1	2	3	4	5	6	7	8
Mahsulot hajmi (ish, xizmat) ulgurji bahoda							
Solishtirma baho	209352	220388	254550	+34162	+15.5	+45198	+21.59
Amaldagi bahoda	229243	237940	272388	+34448	+14.4	+43145	+18.82

Korxona mahsulot ishlab chiqarish rejasini solishtirma bahoda ortig'i bilan ado etgan. Mahsulot hajmi o'tgan yilga nisbatan ham o'sgan. Rejaga nisbatan solishtirma bahoda mahsulot 34162 ming so'mga yoki 15,5 foizga ortgan. O'tgan yilga nisbatan o'sish 45198 ming so'mni yoki 21,59 foizni tashkil etgan. Korxonadagi amaldagi baho solishtirma bahoga nisbatan yuqori bo'lgan, o'tgan yilga nisbatan o'sish hajmi 18,82 foizni tashkil etgan. Mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarilishi va uning dinamikasi natura (dona, tonna, m, ts) shakllarida ham tahlil etilmog'i lozim. Buning uchun asosiy mahsulotning bir necha turlari misol tariqasida ko'rilishi lozim. Tahlil davomida mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'rtacha yillik o'sish darajasini aniqlash lozim. Bizning misolimizda mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi quyidagicha:

1994	1995	1996	1997	1998
105.7	103.2	100.7	110.4	115.5

Jrtacha o'sish darajasi quyidagicha aniqlanadi.

$$\sqrt[4]{103.2 \cdot 100.7 \cdot 110.4 \cdot 115.5} = \sqrt[4]{13251037} = 1,072 \text{ yoki } 107,2 \%$$

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishda kichik, o'rta bizneslarni hissasi ortib bormoqda. Ayniqsa qo'shma korxonlarni respublikamizda faoliyat ko'rsatishi eksport ulushini yildan yilga ortishini ta'minlamoqda. Ular qatoriga «zarafshon-nyumont» korxonasi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish g'ida «keys» kompaniyasi bilan olib borilayotgan xamkorlikni kiritish mumkin. Yaponiya bilan ham iqtisodiy munosabatalar rivojlanib bormoqda. Bunda, yaponiyaning «sumitomo», «mitsubisi»ga o'xshagan etakchi kompaniyalari bilangina emas, balki yaponiya davlati tomonidan tuzilgan moliyaviy institutlar bilan ham samarali hamkorlik o'rnatilgan. Msalan, «oisef» va yaponiya eksimbanki bilan yana shunday xamkorlik o'rnatilgan. Ayniqsa janubiy koreya «de u» kompaniyasi orqali mustahkam aloqa o'rnatilgan. Keyingi yillarda sarmoyalarning salmoqli qismi neft-gaz, mashinasozlik, kimyo va to'qimachilik sanoatiga g'naltirilgan. Respublikada to'qimachilik sanoati nihoyatda muhim soha hisoblanadi. Bu sohada «de u tekstil» va «qabul tekstil» kompaniyalari bilan xamkorlik o'rnatilgan. Xorijiy xamkorlik

bilan birgalikda amalga oshirilayotgan loyihalarning barchasi iqtisodiyotimizning dolzarb yo‘nalishlariga taaluqlidir. Masalan, jizzaxdagi akkumulyator zavodi o‘zbekistonda ishlab chiqariladigan avtomobillar uchun akkumulyatorlar tayyorlanadi. Saudiya arabistonidagi «dar-us-salom» kompaniyasi respublika yog‘- moy sanoati korxonalarini modernizatsiya qilishga sarmoya sarflamoqda. Boshqa davlatlarda chet ellik sarmoyadorlarga mamlakatning yirik sanoat korxonalari, inshootlari sotib yuborilayotgan bir paytda, biz xorijlar bilan 50 ga 50 tamoyili asosida ishlamoqdamiz. 1998 yilda mamlakatimizda 1,3 mlrd. Dollar xajmida xorij sarmoyasi o‘zlashtirilgan bo‘lsa, 1999 yilda bu ko‘rsatkich 2 mlrd. Dollarni tashkil etdi.

4. Mahsulot tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlar tahlili.

Ishlab chiqargan mahsulot qiymat shaklida rejaning bajarilishi mahsulotlar tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlar tufayli ham yuz beradi. Mahsulot tarkibidagi strukturani o‘zgarishi mehnat unumdorligiga, fond qaytimiga, tannarxga, foyda kabi ko‘rsatkichlarga ta‘sir etadi. Strukturaviy o‘zgarishlarni mehnat sig‘imi ko‘rsatkichlari orqali aniqlash mumkin. Mehnat sig‘imini norma-soat, normalashtirilgan ish haqi ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Tovarlar tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlarni norma-soat ishtirokida aniqlash uchun mahsulot turlari bo‘yicha norma-soat o‘lchovida rejaning bajarilishi qiymat bo‘yicha bajarilishi ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi.

Mahsulot turlari bo‘yicha rejaning bajarilishi har xil darajada bo‘lishi strukturani o‘zgarishidan dalolat beradi. Struktura bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi uchun haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha xillari rejalashtirilgan mahsulot tarkibi va tuzilishiga teng kelishi kerak. Ishlab chiqarilgan mahsulot strukturasining o‘zgarishi korxonaning barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ta‘sir etadi. Mahsulot ishlab chiqarish tarkibida qimmatbaho mahsulot turlari ulushini ortishi tufayli mahsulot qiymat shaklida ortadi va buning aksicha bo‘lsa, qiymat shaklida mahsulot kamayadi. Xuddi shunday yuqori rentabellikka ega bo‘lgan mahsulot turlarini ortishi, rentabelligi past turlarini pasayishi tufayli umumiy foyda miqdori ortadi.

Mahsulot hajmiga strukturaviy o‘zgarishlarni ta‘sirini zanjirli bog‘lanish usuli orqali aniqlash mumkin.

4-jadval

Tovar mahsuloti strukturasini tahlili.

Mahsulot	Mahsulot birligini bahosi, so‘m	Ishlab chiqarilgan mahsulot naturada, dona	Tovar mahsuloti rejadagi bahoda, m,so‘m	Strukturaning o‘zgarishini tovar mahsulotiga ta‘siri
----------	---------------------------------	--	---	--

		Reja	ʻaqiqat	Reja	ʻaqiqiy i/ch. Mahsulot reja- dagi strukturada	ʻaqiqat	
1	2	3	4	5	6	7	8
A	7779	4255	4630	33100	33507	36019	+2512
B	14251	1486	1701	21175	21436	24240	+2804
V	2282	4735	4045	10806	10939	9230	-1709
G	14826	5800	5760	85990	86957	85400	-1557
D	23348	1195	1550	27900	28243	36190	+7947
Jami	X	17471	17686	17897 1	181082	191079	+9997

Natura shaklida ishlab chiqarish rejasining bajarilishi 1.012306 (17686/17471)

$$Gr5=33100 \times 1.012306 = 33507$$

$$Gr7=gr6-gr5.$$

Mahsulotning barcha turlari bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishi bir tekisda 101.2306%ni tashkil etsa, ya'ni rejadagi struktura o'zgarmagan holda tovar mahsuloti rejadagi bahoda 181082 ming so'mni tashkil etgan bo'lur edi. ʻaqiqatda esa mahsulot hajmi 191079 m.so'mni tashkil etib, strukturaviy o'zgarishlar tufayli tovar mahsuloti qiymat shaklida 9997 m.so'mga ortgan.

Strukturani o'zgarish sabablari:

1. Rejadagi material sig'imi, mehnat sig'imini mahsulotlar ulushini o'zgarishi.
2. ʻom-ashyo, material, yoqilg'ilar bahosini o'zgarishi.
3. Mahsulot sifatini o'zgarishi.

4-jadval.

Tovarlar strukturaviy o'zgarishini mahsulot hajmiga ta'siri.

Mahsulot turi	Ishlab chiqargan mahsulot (ming dona)		Mahsulot bahosi (so‘m)	1 mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt (norma-soat)	Ishlab chiqarilgan mahsulot			
					Qiymat shaklida		Norma-soatda	
					Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda
		Reja	Haqiqat					
1	2	3	4	5	6	7	8	9
A	80	112	2.25	2	180	252	160	224
V	100	73	2.10	3.5	210	153.3	350	225.5
Jami	180	185	X	X	390	405.3	510	479.5
Rejani bajarilishi (%)	X	X	X	X	X	103.9	X	94.0

Korxona mahsulot ishlab chiqarish rejasini qiymat shaklida 103,9 foizga, norma-soat shaklida 94,0 foizga bajargan. Far ikki ko'rsatkich o'rtasidagi foizlar farqi tovar tarkibida strukturaviy o'zgarishdan dalolat beradi. Ya'ni korxona rejaga nisbatan qimmatroq, ammo kam mehnat talab etadigan mahsulot turini ko'proq ishlab chiqargan.

Mehnat sig'imini sarflangan ish haqi bo'yicha aniqlash uchun ish haqini tovar mahsulotga bo'lish lozim.

5.mahsulot nomenklaturasini va assortimentining tahlili.

Korxona mahsulot ishlab chiqarish rejasini qiymat shaklida belgilangan nomenklatura va assortimentda bajarishi shart. Mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishi xalq xo'jaligining turli tarmoqlarini mutanosib rivojlanishiga xalqni mahsulotga bo'lgan talabini to'laroq qondirishga olib keladi. Mahsulot nomenklaturasini natura holida mahsulot gruppalarini, kichik gruppalarini va pozitsiyalarini rejalashtirishda hamda hisobga olishda qabul qilingan ro'yhatidir.

Mahsulot assortimenti turlari, xillari, navi, razmeri, marka, artikullariga qarab ajratiladigan mahsulot tarkibidir. Jami mahsulot taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan mahsulotga, uning ishlatilishi jihatidan-asosiy mahsulot, xalq iste'moli tovarlariga, sifati jihatidan-oliy, birinchi nav, ixtisoslashishi jihatidan-korxona ixtisosiga mos va mos kelmaydigan mahsulotlarga bo'linadi.

Tahlil etishda o'rtacha assortiment rejasini bajarilishi aniqlanadi. Bu eng kichik metod usulida aniqlanadi. Buning uchun mahsulotni har bir turini rejasi bilan taqqoslanib har ikki ko'rsatkichdan eng kichigi assortimentga qabul qilinadi. Assortimentga qabul qilingan ko'rsatkichning jamini reja bo'yicha ishlab chiqarilgan jami mahsulotga bo'lish orqali o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi aniqlanadi.

5-jadval.

Mahsulot nomenklaturasini va assortimentini tahlili.

Mahsulot turi	Mahsulot bahosi, so'm	Ishlab chiqarilgan mahsulot natura shaklida (dona)		Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymat shaklida (ming so'm)		Assortimentga qabul qilingan mahsulot
		Reja	Ƣaqiqat	Reja	Ƣaqiqat	
1	2	3	4	5	6	7
A	7779	4255	4630	33100	36019	33100
B	14251	1486	1701	21175	24240	21175
V	2282	4735	4045	10806	9230	9230
G	14826	6451	5760	95641	85400	85400
D	23348	1195	1550	27900	36190	27900
E	-	-	-	31766	63471	31766
Jami	X	X	X	220388	254550	208571

Korxona bo'yicha assortiment rejasi 94,6% bajarilgan. $(208571 \cdot 100 / 220388)$ "v" hamda "g" turidagi mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish rejasini bajarilmasligi tufayli assortiment bo'yicha reja 5,4% ga bajarilmagan.

Assortiment rejasining bajarilmasligi ko'rsatkichi orqali ham assortimentga baho berish mumkin. Bizning misolizmizda u quyidagilarni tashkil etgan.

"v" - $(9230 - 10806) = -1576$ m.so'm

"g" - $(85400 - 95641) = -10241$ m.so'm

11817 m.so'm

11817 x 100

----- = 5,4% assortiment rejasini bajarilmasligi

220388

100 - 5,4 = 94,6% assortiment bajarilishi.

6. Brakdan g‘‘qotishlarni tahlili.

Brak mahsulot sifatini aksidir. Xom-ashyo sifatini pastligi, standartga mos kelmasligi, dastgohlarni tez buzilishi, ishlab chiqarish jarayonidagi nuqsonlar kadrlar malakasini pastligi tufayli mahsulot brakka chiqadi. Brakka g‘‘l qo‘yilishi tufayli iste‘molga chiqadigan tayyor mahsulot hajmi kamayadi, mahsulot tannarxi qimmatlashadi. Chunki mahsulot brak ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarni zoyi ketganligini, unumsizligidan dalolat beradi. Belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqaruvchi iste‘molchiga sifatsiz mahsulot ishlab chiqargani uchun etkazilgan zararni qoplashi shart. Ishlab chiqaruvchi davogarlik muddati davomida nuqsonga ega bo‘lganligi uchun qaytarilgan tovar o‘rniga boshqa mahsulotlar yoki mahsulot nuqsonini tuzatib iste‘molchiga jo‘natishi lozim. Brak – tuzatiladigan va tuzatilmaydigan mahsulotlarga bo‘linadi. G‘‘l qo‘yilgan brakni tovar mahsulotiga bo‘lgan ta‘sirini aniqlash uchun tovar mahsulotini tannarxidan umumishlab chiqarish, brakdan g‘‘qotishlar, ishlab chiqarishni o‘zlashtirish va boshqa ishlab chiqarish harajatlari summasini chigirib brak tannarxi aniqlanadi. Brak bo‘yicha tannarxni tovar mahsulotiga bo‘lish orqali brak tufayli mahsulot hajmini kamayishi aniqlanadi.

- | | | |
|----|--|--|
| 1. | Tovar mahsulotini tannarxi | – 13000 ming so‘m. |
| 2. | Shu jumladan brak tannarxiga qo‘shilmaydigan xarajat moddalari | |
| | | -1500 ming so‘m. |
| 3. | Brak tannarxi bilan taqqoslanadigan mahsulot (1 satr-2 satr) | |
| | | -11500 ming so‘m. |
| 4. | Brak mahsulot tannarxi | -150 ming so‘m. |
| 5. | Brak foiz hisobida (4 satr*100/3 satr) | -1.3 |
| 6. | | Brak tufayli tovar mahsulotini kamayishi $13000 \cdot 1.3 / 100$ - |
| | | -169 ming so‘m |

7. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini tahlili.

Har bir korxona mahsulot ishlab chiqarish rejasini kvartal, oy, hamda har 10 kunlikda bajarishi lozim.

Ayrim korxonalar yillik, kvartal, oylik rejalarini ortig‘i bilan bajarishi mumkin, ammo ayrim oylarda ishlab chiqarishni bir maromda tashkil eta olmasligi mumkin. Maromiylilikni buzilishi shartnoma majburiyatlarini barbod bo‘lishiga, uning oqibatida jarimalar to‘lanilishiga olib keladi. Amalda ayrim korxonalar ishlab chiqarish rejasini 3-o‘n kunlikda, yillikni ishlab chiqarishni jadal ravishda tashkil etish hisobiga bajaradi. Bunday holda ishlab chiqarilgan mahsulot sifati buziladi, brakka g‘‘l qo‘yiladi. Iste‘molchilarga jo‘natiladigan tovar grafigi buziladi.

Tahlil etishda har 10 kunlikda ishlab chiqarilgan mahsulotni oylik mahsulotda tutgan ulushi hisoblanadi va u reja bilan taqqoslanib, ishlab chiqarish maromiyligiga baho beriladi.

7-jadval

Ishlab chiqarish maromiyligini tahlili

Jn kunliklar	Hisobot yili		Maromiylik hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot	Tutgan ulushi,%	
	Reja	ʻAq-qat		Reja	ʻAqiqat
I oʻn kunlik	66116	50910	50910	30	20
II oʻn kunlik	77136	96729	77136	35	38
III oʻn kunlik	77136	106911	77136	35	42
Jami	220388	254550	205182	100.0	100.0

Maromiylik koeffitsienti:

205182

$$K = \frac{205182}{220388} = 0.931$$

220388

7-jadvalda mahsulot ishlab chiqarish rejasi ortigʻi bilan bajarilgan boʻlsa ham, ammo ishlab chiqarish joriy yilda bir maromda tashkil etilmagan. Birinchi 10 kunlikda jami mahsulotning 20 % (rejadagi 30 foiz oʻrniga), uchinchi 10 kunlikda esa 42 foizi ishlab chiqarilgan. Ishlab chiqarish maromiyligi buzilgan. 3 oʻn kunlikda ish jadal ravishda tashkil etilib, mahsulot sifatiga putur etkazilgan. Shartnomaviy majburiyatlarni buzilishiga olib kelgan. Birinchi 10 kunlikda ishlab chiqarish resurslaridan toʻliq foydalanilmagan.

8. Mahsulot hajmiga taʼsir etuvchi omillarni guruhlariga ajratish.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga taʼsir etuvchi omillarni 3 guruhga boʻlish mumkin:

1. Mehnat omillari
2. Mehnat vositalari
3. Mehnat predmetlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida taʼsirchan omillardan biri bu tadbirkorlik omilidir. Shu sababli mahsulot ishlab hajmining oʻzgarishiga taʼsir etuvchi omillar qatoriga tadbirkorlik layoqati omili ham kiritilishi tartiblangan va bu tarkiblash iqtisodiy jihatdan oʻrinlidir. Chunki yuqorida qayd

etilgan ishlab chiqarish omillari tadbirkorlik omili bilan birgalikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etadi.

Mehnat omili ishlab chiqarishning asosini tashkil etadi. Mehnat vositalari orqali mehnat predmetlariga ta'sir etib ishlab chiqarish vujudga keladi. Xar 3 omil bir biri bilan uzviy bog'langan holda ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etadi. Mehnat omillarini tahlil etishda korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, ish vaqtidan foydalanishi, mehnat unumdorligi va mehnat omillarini mahsulot hajmiga bo'lgan ta'siri aniqlanadi. Bugungi kunda korxonalarni texnik jihatdan qayta qurollanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omilni tahlilida korxonani asosiy vositalari, uning texnik holati, ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy vositalardan foydalanish ko'rsatkichlari o'rganiladi. Mehnat predmetlari tarkibiga xom-ashyo yoqilg'i, energiya va boshqa moddiy resurslari kiradi. Ulardan samarali foydalanish, iqtisod rejimiga rioya qilish ko'rsatkichlari tahlil etiladi.

3-Mavzu Asosiy vositalarni holatini va ulardan foydalanishni tahlili

Dars o'quv maqsadi - talabalarga asosiy vositalarni holatini va ulardan foydalanishni tahlili haqida umumiy tushunchani, asosiy vositalarni holatini va ulardan foydalanishni tahlili ob'ektlarini, asosiy vositalarni holatini va ulardan foydalanishni tahlilining funktsiya va vazifalarini, tahlilining metodi va uni tashkil etuvchi usullarini o'rgatish.

Tushunchalar va tayanch iboralar- bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy fondlardan samarali foydalanishni ahamiyati va tahlil vazifasi. Asosiy fondlarni ishlab chiqarishdagi rolga qarab guruhlariga bo'linishi. Asosiy vositalarning aktiv va passiv qismlari. Asosiy fondlarni tarkibi, tuzilishidagi o'ziga hos xususiyatlari. Mahsulot sifatini yaxshilash, raqobatga bardoshligini ta'minlashda tezlashgan amortizatsiya ajratmalarini qo'llashning afzalliklari. Asosiy fondlarni texnik holatini tahlili. Yangilanish darajasi Eskirish darajasi Yaroqlilik darajasi fond qaytimi va unga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash tartibi. Fond qaytimini oshirish rezervlari.

Asosiy savollar

1. **Tahlil mazmuni va vazifalari. Tahlil manbai.**
2. **Asosiy fondlarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tahlili, ularning aktiv va passiv qismlarini nisbati.**
3. **Tezlashgan amortizatsiya ajratmalari va ularni fond qaytimiga ta'siri.**
4. **Asosiy fondlarning texnik holatining tahlili.**
5. **Asosiy fondlarning yangilanish dinamikasi, mexnatning fond bilan qurollanishi tahlili.**
6. **Fond qaytimining dinamikasi va unga tashkiliy texnikaviy omillar ta'sirining tahlili.**
7. **Ishlab chiqarish jixozlarini vaqti va quvvati bo'yicha foydalanishi tahlili.**
8. **Fond qaytimini oshirish imkoniyatlari.**

1. Tahlil mazmuni va vazifalari. Tahlil manbai.

Asosiy fondlar (vositalar) ishlab chikarishning muxim omili sifatida karalib ular vositasida bevosita mexnat predmetlari va mexnat kuchlari birikuvida mahsulotlar ishlab chikariladi, ishlar bajariladi va xizmatlar ko'rsatiladi.

Asosiy fondlar deb ishlab chikarish tsiklida bir necha bor katnashib uzining qiymatini yaratilaetgan mahsulotlarga kisman-kisman utkazuvchi xamda fizik shaklini saklab koluvchi mexnat vositalariga aytiladi.

Asosiy fondlar eki vositalarni tarkiblashda jaxon va respublika hisob belgiloviga muvofik kuyidagi ikkita jixat mezon sifatida olingan. Birinchisi ularning qiymat ifodasi, ikkinchisi – xizmat muddati.

Assosiy vositalarning qiymat ifodasi uning kam baxoli tez eskiruvchi buyumlardan farklanish chegarasini xarakterlaydi. Bu ifoda uzbekiston respublikasi moliya vazirligining 1994 yil 21- apreldagi 167-sonli karori bilan ish xaki minimumining 15 baravarida belgilangan. Asosiy vositalarning xizmat muddati ularning bir yildan ortik muddat xizmat etishini xarakterlaydi.

xizmat muddati bir yildan ortik bulgan lekin qiymat jixatdan kat'iy chegaradigan oshmaydigan qiymatliklar shuningdek qiymatliklar, xujalik inventarlarining ayrim turi asosiy vositalar katoriga kiritilmaydi. Bu kator bevosita kam baxoli va tez eskiruvchi buyumlari tarkibida hisobga olinadi.

asosiy vositalar tahlilida korxonaning asosiy vositalar bilan kurollanish darajasiga, ularning texnik holat va xarakat ko'rsatkichlari, samaradorlik ko'rsatkichlariga, dinamikasi va holatiga baxo beriladi.

asosiy vositalar bilan ta'minlanish deyilganda korxonaning rejaga eki utgan yillarga nisbatan asosiy fondlar bilan kurollanishi darajasi tushuniladi.

shuningdek asosiy vositalarning tarkibi buyicha, turi buyicha uzgarishlariga baxo beriladi. Tahlil etishda asosiy vositalarning holat va xarakat ko'rsatkichlariga muxim e'tibor karatiladi. Bu orkali bevosita asosiy vositalarning esrish darajasi, yaroklilik darajasi, krimi va chikimi ko'rsatkichlariga baxo beriladi.

asosiy vositalarining unumini o'rganish asosida mahsulot ishlab chikarishda ularning samaradorlik ko'rsatkichlariga baxo beriladi. Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini omilli tahlili asosida mahsulot ishlab chikarish xajmini eki fondlar samarasini oshirish yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi o'rganiladi va tahlil yakunida korxonada asosiy fondlardan foydalanishga va ularning samaradorligini oshirish yuzasidan muxim iktisodiy yunalishlar belgilanadi. Korxona asosiy vositalari, ularning holati, xarakati va samarasiga iktisodiy tashxis beriladi.

tahlil uchun zarur bulgan ma'lumotlar asosiy vositalar xarakati to'g'risidagi 3-moliyaviy hisobot shaklidan va moliyaviy hisobotga ilova sifatida berilgan manbalardan olinadi. Shuningdek asosiy vositalar(01), ularning eskirishi(02), nomoddiy aktivlar (04), nomoddiy aktivlar eskirish (05), uzok muddatli ijraga olingan asosiy vositalar (03) schetlar xamda analitik hisob schetlari ma'lumotlaridan foydalaniladi.

2. Asosiy fondlarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tahlili, ularning aktiv va passiv kismalarini nisbati.

Asosiy vositalarni quyidagi belgilar buyicha tarkiblash mumkin.

1. Ishlab chikarish jaraenida katnashuviga karab

- aktiv asosiy vositalar
- passiv asosiy vositalar

2.tarmok buysunuviga karab

- sanoat ishlab chikarish asosiy vositalari
- boshka tarmok asosiy vositalari
- noishlab chikarish asosiy vositalari

3.foydalanishiga karab;

- foydalanishdagi asosiy vositalar
- foydalanishdan olib quyilgan asosiy fondlar

4. Turi buyicha;

- binolar, inshootlar, uzatish moslamalari, mashina va uskunalar, transport vositalari, asbob uskunalar, xujalik inventarlari, ishchi va maxsuldor xayvonlar, kup yillik ekinlar va boshka asosiy vositalar.

5. Mulkiy egaligiga karab;

- uziga tegishli asosiy vositalar,
- ijaraga olingan asosiy vositalar

Tahlil uchun zarur bulgan ma'lumotlar 3-shakl «asosiy vositlar xarakati to'g'risidagi» hisobot shaklidan olinadi.

Asosiy vositalar tarkibining tahlili

Asosiy vositalar	Jami	Shu jumladan					
		Bino	Insh oat	Uzat ish mosl amal ari	Mashi-na va uskunal ar	Tran-sport vosita -lari	Boshka asosiy fondlar
1	2	3	4	5	6	7	8
Ishlab chikarish asosiy vositalari							

Utgan yil							
-summasi, m.s.	26720	2434	136	657	21680	1265	548
-salmogi %	100	9,1	0,5	2,5	81,1	4,7	2,1
Hisobot yili							
-summasi, m.s.	34150	2560	136	569	28900	1345	540
-salmogi, %	100	7,5	0,4	1,7	84,6	3,9	1,9
Farki							
-summa, m.s.	+7430	+126	0	-88	+7220	+80	-8
-salmok, %	X	-1,6	-0,1	-0,8	+3,5	-0,8	-0,2
Noishlab chikarish asosiy vositalari							
Summasi, m.s.							
Utgan yil	2450	1260	-	-	-	-	1190
Hisobot yili	2450	1260	-	-	-	-	1190
Farki	-	-	-	-	-	-	-

Korxonada asosiy vositalarning utgan yilga nisbatan uzgarishi +7430 m.s. Ni tashkil etgan. Shu jumladan binolar buyicha +126 m.s., mashina va uskunalar buyicha +7220 m.s. Transport vositalari buyicha 80 m.s. Darajasida usishga erishilgan.

Jami asosiy fondlar tarkibida asosiy ulushni mashina va uskunalar xamda, transport vositalari tashkil etgan. Joriy davrda mashina va uskunalar salmogini 3,5 % ga oshirishga muvaffak bulingan.

Noishlab chikarish asosiy vositalari 2450 m.s. Tashkil etgan holda joriy davrda uzgarish bulmagan.

Asoosiy vositalarning dinamikasi deganda ularning yillar buyicha uzgarishlari tushuniladi.

Dinamik uzgarishlar asosida korxonada asosiy vositalarningn yillar buyicha mutlak va nisbiy uzgarishlariga baxo beriladi.

Kuyidagi ma'lumotlar asosida asosiy vositalarning dinamik uzgarishlariga baxo berish mumkin.

Asosiy vositalarning dinamikasini tahlili

Ko'rsatkichlar	Yillar
----------------	--------

	1995	1996	1997	1998	1999
Asosiy vositalar qiymati	125469	128941	154200	165100	245500
Bizis yiliga nisbatan usishi	*	102,7	122,8	131,5	195,6
Oldingi yilga nisbatan usishi	*	102,7	119,5	107,0	148,6

Korxona asosiy vositalarning dinamik uzgarishi quyidagicha bulgan. Joriy davr oxiriga kelib asosiy vositalarning usishi 95,6 % ni tashkil etgan. Eng yukori usish surtiga korxona 1999 yilda erishgan. Shuning oldingi yilga nisbatan usishda eng yukori usish surati xam 1999 yilga to'g'ri kelmokda. Bundan ko'rinib turibdiki korxona sungi paytlarda asosiy etiborni eskirgan asosiy fondlarni hisobdan chikarishga va ularni yangi fondlar bilan kurollantirishga karatmokda.

Asosiy vositalarni aktiv va passiv fondlarga tarkiblashda asosiy jixat ularning mahsulot ishlab chikarishdagi bevosita ishtirokiga karatiladi. Aktiv asosiy vositlar deb mahsulot ishlab chikarishdan bevosita va bilvosita katnashuvchi asosiy vositalarga aytiladi.

Ishlab chikarish uchun sharoit yaratib beruvchi asosiy vositalar esa passiv asosiy fondlar sifatida karalib ularning tarkibiga bevosita binolar inshoatlar xujalik inventarlari va x.k. Kiritiladi.

Tahlil etishda jami asosiy vositalar tarkibida ularning salmok darajalariga baxo beriladi va uzgarishlari o'rganiladi.

Aktiv va passiv fondlar tahlil.

Ko'rsatkichlar	Utgan yil		Hisobot yili		Farki	
	Summa a	%	Summa a	%	Summa a	%
Jami asosiy vositalar	165100	100	245500	145,6	80400	*
Shu jumladan aktiv asosiy vositalar	140665	85,2	201555	143,2	+60890	-3,1
Passiv asosiy vositalar	24435	14,8	43945	18,0	+19510	+3,1

Korxona jami asosiy vositalar tarkibida aktiv fondlar ulushi 85.2 foizdan 82.1 foizga uzgargan. Ya'ni joriy davrda asosiy vositalarning aktiv kismi utgan yilga nisbatan 3.1 foizga kam bulgan. Bu kamayish asosiy vositalarning passiv kismining ortishi hisobiga koplangan.

Asosiy vositalarning utgan yilga nisbatan mutlak uzgarishi +80400 ming sumni eki 48,6 foizga ($80400/165100 * 100$) tashkil etgan.

3. Tezlashgan amortizatsiya ajratmalari va ularni fond kaytimiga ta'siri.

Korxona amortizatsiya siesati bevosita davlat amortizatsiya siesati asosida belgilanadi. Uning muxim uslublariga quyidagilar kiritiladi:

- teng ulushlarda, amortizatsiya norimalaridan kelib chikkan holda eskirish hisoblash;
- koldik usulda eskirish hisoblash;
- ishlab chikarish xajmiga muvofik eskirish hisoblash;
- komulyativ usulda eskirish hisoblash;

Yukoridagi usullarning moxiyatini quyidagi misol asosida ko'rib utish mumkin.

Asosiy vositalarning boshlangich qiymati-100000 sum

Asosiy vositalarning tugatish qiymati-10000 sum

Asosiy vositalarning xizmat muddati-5 yil

1. Teng ulushlarda amortizatsiya hisoblash tartibi

Asosiy vositalar qiymati	Amortizatsiya normasi	Amortizatsiya sumasi	Koldik sumasi
100000	20	18000	82000
100000	20	18000	64000
100000	20	18000	46000
100000	20	18000	28000
100000	20	18000	10000

Komulyativ usulda amortizatsiya hisoblash.

Asosiy vositalar qiymati	Amortizatsiya ulushi	Amortizatsiya sumasi	Koldik sumasi
100000	5/15	30000	70000
100000	4/15	24000	46000
100000	3/15	18000	28000
100000	2/15	12000	16000
100000	1/15	6000	10000

1+2+3+4+5=15yil amortizatsiya summasini aniklashda jami yigilgan ko'rsatkich birinchi yili 15 dan 5 kismi, ikkinchi yili 15 dan 4 kismi olinadi va xakoza.

7-jadval

Koldik usulda amortizatsiya hisoblash.

Asosiy vositalar kiymati	Amortizatsiya ulushi %	Amortizatsiya sumasi	Koldik sumasi
100000	20	18000	82000
100000	20	24000	46000
100000	20	18000	28000
100000	20	12000	16000
100000	20	6000	10000

8-jadval

Ikki karra oshirilgan usulda amortizatsiya hisoblash usuli.

Asosiy vositalar kiymati	Amortizatsiya ulushi %	Amortizatsiya sumasi	Koldik sumasi
100000	20*2	36000	54000
100000	20*2	21600	32400
100000	20*2	12960	19440
100000	20*2	7776	11664
100000	20*2	*	11664

Xozirda uzbekiston respublikasi milliy hisob tizimida amrtizatsiya hisoblashning asosan ikkita usulidan foydalanilmokda.

-teng ulushlarda amortizatsiyalashning kat'iy normalarida eskirish hisoblash;

-tezashtirilgan, amortizatsiyalashning ka'tiy normalarini ikki marta oshirilgan holatida eskirish hisoblash usuli;

Amortizatsiyaning u eki bu usulining kullanishi albatta asosiy vositalarning texnik holatiga ta'sir etadi.

Jumladan tezashtirilgan usulda amortizatsiya normalariga utish asosiy fondlarni yangi asosiy fondlar bilan almashtirishning moliyaviy taminoti va ularning manaviy eskirishdan saklanish imkonini beribgina kolmay balki mahsulot ishlab chikarish xajmini oshirish, ishlab chikarish samaradorligini ustirish imkonini xam beradi.

4. Asosiy fondlarning texnik holatining tahlili

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlariga kuyidagilar kiritiladi

-asosiy vositalarning yaraklilik darajasi;

-asosiy vositalarning eskirish darajasi;

Yaraklilik darajasi asosiy vositalarning koldik kiymatini ularning boshlangich kiymatiga bulish orkali;

Eskirish darajasi asosiy vositalarning eskirish kiymatini ularning boshlangich kiymatiga bulish asosida aniklanadi.

Yaraklilik va eskirish koe ffitsentlari yigindisi koe ffitsentda 1 ga, foizda 100 teng buladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlariga karab ularning texnik holatiga baxo beriladi va ularni tartiblash buyicha boshkaruv karorlari ka'bul kilinadi.

Asosiy vositalarning holatini o'rganishda korxona amortizatsiya siesatiga, asosiy vositalarning manaviy eskirganlik darajasiga, foydalanishdan olib kuyilgan asosiy vositalar holatiga muxim e'tibor karatiladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlarini ularning har bir turi va jami buyicha o'rganiladi. Tahlil uchun zaraur bulgan ma'lumotlar 1-shakl «buxgalteriya balansi» va 3-shakl «asosiy vositalarning xarakati to'g'risidagi» hisobot shakllaridan olinadi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari ularning xarakat ko'rsatkichlari bilan tuldiriladi.

20-jadval

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari tahlili.

Asosiy vositalar	Boshlangich kiymati	Eskirish kiymati	Koldik kiymati	Eskirish darajasi	Yaraklilik darajasi
Utgan yil	168900	54890	114010	32,5	67,5
Xisobot yili	187320	65780	121540	35,1	64,9
Farki	+18420	+10890	+7530	+2,6	-2,6

Korxonada asosiy vositalarning eskirish darajasi utgan yilga nisbatan 2.6 % ga oshgan. Unga karama karshi bulgan ko'rsatkich asosiy vositalarning yaraklilik darajasi esa 2,6 % ga kamaygan.

5. Asosiy fondlarning yangilanish dinamikasi, mexnatning fond bilan kurollanishi tahlili.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari ularning xarakat ko'rsatkichlarini o'rganish asosida tuldiriladi.

asosiy vositalarning xaraakat ko'rsatkichlariga ularning yangilanishi va chikib ketish koeffitsientlari kiroitiladi. Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsienti joriy dafrda yangidan kiritilgan asosiy vositalar kiymatini asosiy vositalarning yil oxiriga bulgan kiymatiga bulish orkali topiladi. Asosiy vositalarning chikib ketish koeffitsienti joriy davrda chikib ketgan asosiy vositalar kiymatini ularning yil boshiga bulgan kiymatiga bulish asosida aniklanadi.

Bu tarkiblashni asosiy vositalarning jami katori va har bitta tarkibi buyicha berib utish mumkin.

10-jadval

Asosiy vositalarning xarakat ko'rsatkichlari tahlili.

Asosiy vositalar	Asosiy vositalar yil boshiga koldigi	Yangidan kabul kilingan asosiy vositalar	Chikim kilingan Asosiy vositalar	Asosiy vositalar yil oxiriga koldigi	Yangi lanish koeff.	Chikib ketish koeff.
Utgan yil	155690	14500	1290	168900	8,6	0,8
Xisobot yili	168900	22380	3960	187320	11,9	2,3
Farki	+13210	+7880	+2670	+18420	+3,3	+1,5

Korxonada asosiy vositalarning xarakat ko'rsatkichlariniuzgarishi tahlili shuni ko'rsatadiki joriy davrda asosiy vositalarning yangilanish darajasi oldingi yilga nisbatan 3,3 % ga usgan. Xisobdan chikarilgan asosiy vositalarning utgan yilga nisbatan uzgarishi esa +1,5 % ga ortgan. Ular orasidagi nisbat 2.2 ga ($3.3 / 1.5$) teng bulgan.

Tahlilda asosiy vositalarning yangilanish va chikib ketish sabablariga xam muxim e'tibor beriladi.

Asosiy vositalarning yangilanish manbalari

-kapital kuyilmalar va investitsiyalar;

-hususiy kapitalning usishi;

-uzok muddatli kreditlar va karzlar;

Asosiy vositalarning chikib ketish sabablari

-manaviy eskirishi;

-jismoniy eskirishi va foydalanish uchun yaroksiz holatga kelishi;

-ortikchalik;

-sotishlar;

-ugirliklar, yukotishlar va boshka sabablar.

Korxona (firma) ning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik eki kurollanganlik darajasi deb ishlab chikarishning me'ar darajasida mexnat vositalari bilan ta'minlanganligiga aytiladi.

Avvalo, korxona (firma) ning mexnat vositalari bilan ta'minlanganligida quyidagi jixatlarini farklash lozim.

Uziga tegishli bulgan mexnat vositalar xisobiga ta'minlash;

Ijaraga olingan mexnat vositalari xisobiga ta'minlash.

Demak korxona har ikkala holatda xam asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikning me'ar ko'rsatkichlariga ega bulishi mumkin.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik tahlilida korxona (firma) da asosiy vositalarning rejaga va utgan yillarga nisbtan mutlak va nisbiy uzgarishlariga baxo beriladi.

Asosiy vositalar bilan kurollanganlik ko'rsatkichlari sifatida bitta ishchiga to'g'ri keladigan mexnat vositalari, ish o'rni, maydonining asosiy vositalar bilan kurollanganlik darajasi aniklanadi. Asosiy vositalar bilan kurollanganlik darajasi ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish asosida tuldiriladi. Ya'ni korxona faoliyatiga fakat mikdor ko'rsatkichlar orkaligina emas balki sifat ko'rsatkichlarini xam o'rganish asosida baxo beriladi.

11-jadval

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va kurollanganlik tahlili.

1	Ko'rsatkichlar	Utgan yil	Xisobot yili	Farki
1	Asosiy vositalar o'rtacha yillik kiymati	162295	178110	+15815
2	Sanoat ishlab chikarish xodimlari	1914	1760	-154
3	Bir xodimga to'g'ri keladigan asosiy vositalarning o'rtacha yillik kiymati	84294	101199	+16905

Korxonada sanoat ishlab chikarish xodimlarining asosiy vositalar bilan kurollanish darajasi utgan yilga nisbatan 16905 sumga usgan. Bu usish ikkita omil xisobimga ukzatilag 1- ishchilar sonining uzgarishi xisobiga, xamda 2- asosiy vositalarning o'rtacha yillik kiymatining uzgarishi xisobi. Ishchilar sonining uzgarishi ta'siridagi farklanish (93056-84294) = +8762 sumga, asosiy vositalarning o'rtacha yillik kiymatining uzgarishiga xisobiga (101199-93056)=+8143 sumga. Omillar ta'siri = +8762+8143=16905 sum.

Bunda 93056 sum shartli, bitta sanoat ishlab chikarish xodimga to'g'ri keladigan asosiy vositalar kiymati. Ya'ni asosiy vositalarning xisobot yilgi ko'rsatkichi, xodimlarning utgan yil ko'rsatkichiga nisbati. (178110 / 1914).

6. Fond kaytimining dinamikasi va unga tashkiliy texnikaviy omillar ta'sirining tahlili.

asosiy vositalardan foydalanish va ularning samaradorligiga baxo berish iktisodiy tahlilning zarur shartlaridan biri xisoblanadi.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari korxona xujalik faoliyatiga baxo berishning muxim ko'rsatkichlaridan biri sifatida olinadi. ularning katoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari.

Fond kaytimi	Fond sigimi
Sanoat ishlab chikarish fondlari kaytimi	Mahsulot xajmi $F_k = \frac{\text{sanoat ishlab chikarish fondlari o'rtacha yillik kiymati}}{\text{...}}$
Mashina va uskunalar kaytimi	Mahsulot xajmi $F_k = \frac{\text{mashina va uskunalar o'rtacha yillik kiymati}}{\text{...}}$
Sanoat ishlab chikarish fondlari sigimi	Sanoat ishlab chikarish fondlari o'rtacha yillik kiymati $F_s = \frac{\text{Mahsulot xajmi}}{\text{...}}$
Mashina va uskunalar sigimi	Mashina va uskunalar o'rtacha yillik kiymati $F_s = \frac{\text{Mahsulot xajmi}}{\text{...}}$

Ishlab chikarish kuvvatlaridan foydalanish va uning holatiga baxo berishga iktisodiy tahlilda a'loxida axamiyat beriladi. Korxona ishlab chikarish kuvvati deganda uning tula ish bilan bandlik xoatiga aytiladi. Bu holat nafakat mahsulot ishlab chikarish darajasiga balki uning xarajatlar tarkibiga, moliyaviy natijaviyligiga xam ta'sir etuvchi birlik sifatida karaladi. Ishlab chikarish kuvvatlari va uning foydalanish darajalariga baxo berish asosida korxonaning joriy davrdagi iktisodiy potentsiali xamda uni maksadli boshkaruvi belgilanadi.

Ishlab chikarish kuvvatlaridan foydalanishning tahlilining quyidagi kaktorlarini katorlarini xarakterlash mumkin;

- korxona ishlab chikarish kuvvatlarining texnik iktisodiy ko'rsatkichlari tizimi;
- texnik iktisodiy ko'rsatkichlar va ishlab chikarish kuvvatlaridan foydalanishni kiesiy tahlili;

-ishlab chikarish kuvvatlaridan foydalanishning korxona xarajatlariga ta'sirining tahlili;
 -ishlab chikarish kuvvatlaridan foydalanishning korxona ishlab chikarish samaradorligiga va faoliyat natijaviyligiga ta'sirining tahlili.

Ishlab chikarish kuvvatlaridan foydalanishda korxona tomonidan oshkor etiladigan 2-b forma «korxoaning ijtimoiy iktisodiy ko'rsatkichlar tizimi» ga muxim etibor beriladi.

Tahlilda asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning ta'sir etuvchi omillar ikkita tarkib buyicha o'rganiladi.

1. Asosiy vositalarning samaradorligi va uning uzgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili
2. Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining mahsulot xajmining uzgarishiga ta'sirining tahlili.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning uzgarishiga ta'sir etuvchi omillar katoriga quyidagilar kiritiladi.

Fond kaytimi (sigimi) va uning uzgarishiga ta'sir etuvchi omillar

-mahsulot ishlab chikarish xajmi va uning uzgarishi.

-asosiy fondlar o'rtacha yillik qiymatining uzgarishi.

Mahsulot xajmiga ta'sir etuvchi mexnat vositalari bilan bogliq bulgan omillar katoriga quyidagilar kiritiladi;

-asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatining uzgarishi;

Fond kaytimi (sigimi) ning uzgarishi;

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning uzgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	Mahsulot xajmi, korxona ulgurji baxosida, ming sum.	Sanoat ishlab chikarish fondlari o'rtacha yillik qiymati	Fond kaytimi	Fond sigimi
1	2	3	4	5
Utgan yil	148952	56321	2,644	0,378
Shartli, xisobot yili	214632	56321	3,810	0,262
Xisobot yili	214632	58925	3,642	0,274
Utgan yildan fark	+65680	+2604	+0,998	-0,104

Fond kaytimining uzgarishiga ta'sir etuvchi omillar				
X	+1,166	-0,168	+0,998	X
Fond sigimining uzgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili				
X	-0,116	+0,012	X	-0,104
Mexnat vositalari bilan boglik omillarning mahsulot xajmiga ta'siri				
X	+65680	+6884,9	+58807,1	X

Korxonada asosiy vositalarning samaradorligi utgan yilga nisbatan bir kadar yaxshilangan. Fond kaytimi va uning utgan yilga nisbatan usishi +0,998 (3,642- 2,644) sumga teng bulgan. Bu uzgarishda ishlab chikarilgan mahsulot xajmining uzgarishi ta'siri 1,166 (3,810- 2,644) sumni, asosiy vositalarning rtacha yillik kiymatining uzgarishi esa salbiy ta'sir etgan va ubning natijasida fond kaytimi –0,168 (3,642-3,810) sumga kamaygan. Barcha omilolar ta'sirida asosiy fondlar kaytimi utgan yilga nisbatan 0,998 sumga ortgan (3,642-2,644).

Asosiy fondlar sigimi utgan yilga nisbatan –0,104 sumga kamaygan. Bu uzgarishga mahsulot xajmining ta'siri –0,116 (0,262 – 0,378) sumni, asosiy vositalar o'rtacha yillik kiymatining uzgarishining tasiri esa +0,012 (0,274 – 0,262) sumni tashkil kilgan.

Mexnat vositalari bilan boglik bulgan omillarning mahsulot ishlab chikarish xajmiga ta'sirining tahlilida asosiy vositalar o'rtacha yillik kiymatining uzgarishi ta'sirida yalpi mahsulot xajmi +6884,9 (+2604*2,644) ming sumga, fond kaytimining uzgarishi xisobiga +58807,1 (0,998*58925) ming sumga usishini ko'rish mumkin.

7. Ishlab chikarish jixozlarini vakti va kuvvati buyicha foydalanishi tahlili.

Ishlab chikarish jixozlaridan vakt va kuvvat buyicha foydalanish tahlilida korxona asosiy fondlari va ularning tarkibida mashina va uskunalar, stanoklar ish vaktidan foydalanishning darajasiga, kuvvatlarning foydali ish koe ffitseklariga, foydalanishning real holatiga baxo beriladi.

mashina va uskunalar ish vaktidan samarali foydalanishda ularning jami sanoat ishlab chikarish asosiy vositalari tarkibidagi salmogiga va ularning ish samarasiga ahamiyat beriladi.

mashina va uskunalarining jami jami ishlagan vakti xamda mashina va uskunalar ish vaktidan olingan samaradorlik ko'rsatkichlarini aniklash asosida mahsulot ishlab chikarish xajmining uzgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil etiladi xamda uni ustirishning ichki imkoniyatlari belgilanadi.

kuyidagi jadval ma'lumotlari asosida ularni tahlil etishning uslubiy asoslarini ko'rib utish mumkin.

Mashina va uskunalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlili va ular.

Ko'rsatkichlar	Utgan yil	Xisobot yili	Farki
Mahsulot xajmi ming sum xisobida, korxona ulgurji baxosida	125463	254698	+129235
Ishlangan stanok soatlar, ming stanok soat	14780	16587	+1807
Bir stanok soatda ishlab chikarilgan mahsulot xajmi, ming sum	8,488	15,355	+6,867

korxonada mahsulot ishlab chikarish xajmi utgan yilning shu davriga nisbatan 129235 ming sumga usgan. Bu uzgarish bevosita sanoat ishlab chikarish vositalari tarkibida mashina va uskunalarning ishlash vaqtining uzgarishi xamda ularning har bir stanok soatiga to'g'ri keladigan ish unumining uzgarishi bilan xarakterlanadi. Ishlangan jami stanok soatlari utgan yilga 1807 ming stanok soatga usgan, bir stanok soatda ishlab chikarilgan mahsulot xajmi esa 6,867 ming sumag usgan.

8. Fond kaytimini oshirish imkoniyatlari.

Fond kaytimini oshirish imkoniyatlarini umulashtirish tahlil etish boskichining yakuni xisoblanadi. Unda tahlil etish natijalaridan kelib chikkan holda korxonada asosiy vositalarning samaradorligini oshirishning yunalishlari belgilanadi.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishning quyidagi yunalishlarini korxona uchun tavsiya sifatida tushirish mumkin.

Tashkiliy yunalishlar:

- asosiy vositalarning fakat korxonaga ish beradigan kismigina olish;
- asosiy vositalarning ortikcha kismini ushlab turmaslik;
- e skirgan asosiy vositalarni va manaviy talabga javob bermaydigan asosiy vositalarni xisobdan chikarish;

- asosiy vositalarni farklash va tarkiblashni kayta uzgartirish;

- asosiy vositalarga amortizatsiya xisoblashning mukollik shakllarini belgilash va x.k.

Texnik yunalishlar:

- asosiy vositalarni tamirlash choralari ko'rish, texnik karov;

- e skirgan asosiy vositalarni yangilari bilan almashtirish;

- avtomatlashtirilga tizimni yaratish;

- mexanizatsiyalashni kuchaytirish va x.k.;

Ekspluatatsion yunalishlar:

- bir smenalik va kup smenalik;

- ishlab chikarish xajmiga karab asosiy vositalarni texnik holat va xarakatini boshkarish;

- asosiy vositalar karovi yuzasidan ma'sul shaxslarni ajratish;
- asosiy vositalar buyicha javobgarlik markazlarini belgilash va x.k;

4- Mavzu Korxona moliyaviy holatini tahlili.

Dars o'quv maqsadi - talabalarga korxona moliyaviy holati haqida umumiy tushunchani, korxona moliyaviy holati ob'ektlarini, korxona moliyaviy holatining funktsiya va vazifalarini, tahlilining metodi va uni tashkil etuvchi usulla haqida ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar- Buxgalteriya balansini tahlil etishdan maqsad. Tashqi foydalanuvchilarni o'ziga jalb ettiruvchi balansdagi asosiy ko'rsatkichlar. Balans aktivini bo'linishi. Asosiy vositalar. Oborot aktiv (mablag')lari. Moddiy aktivlar. Nomoddiy aktivlar. Moliyaviy qo'yilmalar (uzoq muddatli). Oborot aktivlari. Zaxiralar. Pul mablag'lari. Qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar.

Asosiy savollar

- 1. Moliyaviy tahlilning maqsadlari va manbalari**
- 2. Buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishi.**
- 3. Mol – mulk tarkibi tahlili.**
- 4. Mablag'lar manbai tahlili.**
- 5. Aylanma mablag'larni qoplashga o'zlik manbalarni etarligini yoki etishmasligini tahlili.**
- 6. Moliyaviy barqarorlik tahlili.**
- 7. To'lov qobiliyati tahlili.**
- 8. Mablag'lar xarakatchanligi tahlili.**
- 9. Aylanma mablag'larning aylanishini tahlili**

1. Moliyaviy tahlilning mazmuni, vazifasi va manbalari

Mustaqillik bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatiga to'liq erkinlik berdi. Ayniqsa savdo-stiqda erkin munosabat yuritish, hamkorlikda faoliyat ko'rsatish uchun sherik tanlay bilish, o'zi ishlab chiqargan mahsulot va uni sotishdan olgan daromadga to'liq egalik qilish moliyaviy ko'rsatkichlarining o'zgarishiga bevosita ta'sir etadi.

Yangicha ish yuritish avval uchramagan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, tashqi va ichki bozordan tajribali mijoz va hamroh tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Korxanalar faoliyatini o'rganishda buxgalteriya hisoboti asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ular moliyaviy ma'lumotlarning umumlantirilishi natijasida tuziladi hamkorlikda ishlovchilar o'rtasida bir-birini o'rganish vositasi bo'ladi.

Hisobot ma'lumotlari asosida korxona faoliyatini o'rganishga qiziquvchilarni shartli ravishda bevosita va bilvosita talabgorlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhga mulk egalari, qarz beruvchi, mol etkazib beruvchi, xaridorlar, soliqchilar, moliyachilar, korxona ishchi va rahbar xodimlari kiradi. Har bir qiziquvchi o'zining manfaati va talabiga qarab moliyaviy hisobotlarni tahlil etadi. Mulk egasi sarmoyadan qanchalik samarali foydalanilayotganligi, qo'shma

olinadigan daromad summasi bilan qiziqsa, qarz beruvchi berilgan mablag'ni qaytarib olish imkoniyatini oldindan bilishga xarakat qiladi. Bilvosita qiziquvchi iste'molchilarga auditorlik firmalari, birjalar, assotsiatsiya vakillari, matbuot xodimlari, kasaba uyushmalari va boshqalar kiradi. Ular moliyaviy holatga aloqador bo'lmasada, birinchi guruh talabgorlarining manfaatini himoyalash maqsadida hisobot ma'lumotlarini o'rganadilar.

Moliyaviy ma'lumotlardan foydalangan holda korxonalar faoliyatiga to'g'ri baho berish muhim vazifadir. Ushbu kitobda buxgalteriya hisoboti asosida korxonalar faoliyatining moliyaviy tahlilini o'tkazish uslubi bayon etilgan. U moliyaviy hisobotni o'rganishga qiziquvchi tadbirkorlar, soliq, moliya, bank tizimi xodimlari va keng kitobxonlar ommasiga uchun mo'ljallangan.

Bozor iqtisodi sharoitida javdal, jamoa, qo'shma, kichik hissadorlik, hususiy va boshqa shakldagi mulkka ega bo'lgan korxonalar moliyaviy ahvolini o'rganishning mazmuni shundan iboratki, bunda o'z vaqtida pul tushumlarining kelishi, hisoblashish intizomiga rioya qilish, hususiy va qarz mablag'larining to'g'ri nisbatga bo'lishini ta'minlash, moliyaviy tartib va intizomga, barcha ishlab chiqarish bug'inlarida iqtisod va tejamkorlikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarning moliyaviy holati ko'p jihatdan - baho, kredit, foyda va uni iqtisodiy taqsimlanish mexanizmiga bog'liqdir. Barqarorlik bo'lgan joyda barcha xo'jalik muomalalari va hisob-kitoblar o'z vaqtida bajariladi. Shu bois bozor sharoitida har qanday korxonaning moliyaviy ahvolini bilish va o'rganishga e'tibor kuchaymoqda.

Moliyaviy tahlilning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- korxonaning moliyaviy ahvolini har tomonlama o'rganib, uning holatiga aniq va holisona baho berish;
- mablag' va manbalarning joylanishini tekshirish, ularni to'g'ri g'nalishda ishlatilganligini aniqlash;
- hisoblashish ishlarining o'z muddatida bajarilganligi, debitor va kreditorlik qarzlarini tarkibini o'rganish;
- korxonaning o'ziga qarashli mablag'lari bilan qarz mablag'lari o'rtasidagi nisbat va aylanma mablag'larni manba bilan ta'minlanganligini tekshirish;
- moliyaviy intizomga qanchalik amal qilishni aniqlash va to'lov qobiliyatiga baho berish;
- korxona mulkining kadriligi va tez pulga aylana olish darajasini o'rganish;
- aylanma mablag'lardan foydalanishga baho berish va korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo'yicha takliflar bayon etish va h.k.

Tahlilning asosiy maqsadi - moliyaviy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag'lardan yanada to'g'ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratiladi. Demak, bu mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, harajatlarni tejash, pul-moliya aloqalari va boshqa faoliyatlarning bir-biriga bog'liqligini ko'rsatadi. Moliyaviy tahlilni bajarishda zarur bo'ladigan manbalarga korxona balansi, unga qilingan iloalar va boshqa hisobot ma'lumotlari kiradi. Shuningdek, buxgalteriyaning sintetik va analitik schetlari ma'lumotlaridan ham keng foydalanish lozim. Chunki keyingi yillarda tuziladigan hisobotlarning hajmi qisqarib, tahlil imkoniyatlarini chegaralashga olib kelmoqda.

Ayniqsa mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, maxsus va maqsadli mablag'lar, zahira jamg'armasi, foyda va zararlar, turli xil hisob-kitoblar, qiymatli qog'oz va veksellar bo'yicha ma'lumotlardan ko'proq foydalaniladi. Bular xo'jalik faoliyatining to'g'ri boshqarilishi, uning moliyaviy barqaror bo'lishi va to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

3. Buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishi.

Balans—korxona mablag'lari va qoplash manbalarining ma'lum davrdagi holatini ko'rsatadi. Hisob-kitob ishlarini xalqaro an'anaviy talablar bo'yicha yuritishga oz bo'lsada yaqinlashtirilishi hamda 1995 yilda joriy qilingan va korxonalar tuzadigan yangi buxgalteriya balansi bozor iqtisodi sari qo'yilgan dastlabki qadamdir. Zamonaviy ish yuritish shart-sharoitiga mos keluvchi balansda aktiv va passiv tomonlari bo'ladi. Aktiv tomonida korxona mablag'lari, passivida esa xo'jalikning o'ziga tegishli manbalar, kreditga va qarzga olingan boshqa manbalar ko'rsatiladi. Aktiv mablag'larning oshishi, passivdagi manbalar va foyda (daromad)ning ko'payishi bilan bog'liqdir. Balansning barcha bo'lim va bandlarini chuqur o'rganish moliyaviy ahvolni to'liq o'zlashtirishning asosini tashkil qiladi. 1-jadvalda balansning kengaytirilgan shakli keltirilgan.

1-jadval.

Buxgalteriya balansini kengaytirilgan shakli

Ko'rsatkichlarning nomi	Satr kodi	Hisobot yili boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4

Aktiv

Ii. Uzoq muddatli aktivlar

Asosiy vositalar			
Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymat (01.03)	010	69482	71049
E skirish (02)	011	38698	44548
Qoldiq qiymat 010-011	012	30784	26501
<i>Nomoddiy aktivlar:</i>			
Boshlang'ich qiymat	020		
E skirish	021		
Qoldiq qiymat 020-021	022		

Kapital qo'yilmalar (07.08)	030	92	90
Sho'ba korxonalaridagi aktsiyalar (06)	040		
Sho'ba korxonalariga berilgan qarzlar (06)	050		
Uyushma korxonalaridagi aktsiyalar (06)	060		
Uyushma korxonalariga berilgan qarzlar (06)	070		
Uzoq muddatli investitsiyalar (06)	080	122	10611
Boshqa qarzlar (06)	090		
Boshqa aktivlar	100		
1-bjlim bjiyicha jami 012+022+030+040+050+060+070+080+090+100	110	30998	37202
Oborot aktivlari			
Ishlab chiqarish zaxiralari (10,11,12-13,15,16)	120	22271	47769
Tugallanmagan ishlab chiqarish (20,21,23,29)	130	198	2084
Tayyor mahsulot (40)	140	34381	19472
Olib sotiladigan tovarlar (41-42)	150	564	993
Kelgusi davr sarflari (31)	160	3192	25
Pul mablag'lari (51,55,56,57)	170	900	2388
Valyuta mablag'lari 950,52,55,56,57)	180		
Shaznadagi pul mablag'lari (50)	190		
Qisqa muddatli qo'yilmalar (58)	200		
Sotib olingan xususiy aktsiyalar (56)	210		
Debitorlar:			
Xaridor va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar (09,45,62-82)	220	9091	26291
Bo'nak (avans) to'lovlari (61)	230	16521	4646
Byudjet bilan hisoblashishlar (68,19)	240	4900	13946
Xodimlar bilan hisoblashishlar (73)	250	33	60
Sho'ba korxonalari bilan hisoblashishlar (78)	260		2410

Uyushma korxonalari bilan hisoblashishlar (79)	270		2854
Ta'sisshilar bilan hisoblashishlar (75)	280		
Boshqa debitorlar (63,71,76)	290	1526	2214
Ii-bjlim bjiyicha jami 120+130+140+150+160+170+180+190+200+210+220+230+240 +250+260+270+280+290	300	93577	125152
Balansning aktivi bo'yicha jami 110+300	310	124575	162354

Ko'rsatkichlarning nomi	Satr kodi	Hisobot yili boshiga	Hisobot davri oxiriga
Passiv			
Jzlik mablag'larning manbalari			
Ustav kapitali (85/1)	320	35243	35243
Qo'shilgan kapital (85/2)	330	3866	2967
Rezerv kapitali (85/3)	340		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (87)	350	22629	69026
Maqsadli tushum va fondlar (96,88)	360	27247	14232
Kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar (89)	370		5102
Kelgusi darv daromadlari (83)	380	50	12
1-bo'lim bo'yicha jami 320+330+340+350+360+370+380	390	89035	126582
Majburiyatlar			
Uzoq muddatli qarzlar (95,97)	400		
Uzoq muddatli kreditlar (92)	410		
Qisqa muddatli qarzlar (93,94,97)	420		
Qisqa muddatli kreditlar (90)	430		
Faridor va buyurtmachilardan olingan (schetlarga kelib tushgan) bo'naklar (64)	440	4335	6460

Kreditorlar:			
- mol etkazib beruvchilar (60)	450	23085	22777
- byudjet bo'yicha qarzlar (68)	460	3368	-
- mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlar (70/1, 70/2)	470	1499	3820
- ijtimoiy sug'urta va ta'minot bo'yicha qarzlar (69)	480		172
- byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzlar (67)	500		1887
- sho'ba korxonalariga qarzlar (78)	510		111
- uyushma korxonalariga qarzlar (78)	520	395	
- boshqa kreditorlar (75/1,71/2,73,76/1,79)	530	2858	545
2-bo'lim bo'yicha jami 400+410+420+430+440+450+460+470+480+490+500+510+520+530	540	35540	35772
Balansning passivi bo'yicha jami 390+540	550	124575	162354

Ma'lumotlarda ishlab chiqarishni uzluksiz olib borish uchun zarur bo'lgan va hisobot tuzish davriga qiymat shaklidagi mol-mulki hamda uni qoplashga jalb qilingan manbalari o'z aksini topadi. Bu keursatkichlar mol –mulk xajmi, tarkibi va kiymatini qay darajadaligini ifodalaydi. Shuningdek mol-mulkning moliyalashtirish manbalari, ya'ni o'ziga tegishli manbalar va chetdan qarzga jalb qilingan manbalar holati ham passivda keltirilgan. Balansdagi har bir band va bo'lim korxonalarning moliyaviy holatiga bog'liq, shuning uchun ham uni chuqur o'rganish lozim.

aktiv qism—asosiy va aylanma mablag'larning holatini ko'rsatib, moliyaviy xo'jalik jarayonini yuritish vazifasini bajarishda bu mulklardan foydalanadi. Mulk to'plangan moliyaviy hamda davlat tashkilotlari mablag'i, hususiy shaxslar jamg'armasi, hissador va ta'sischilarning ulushi, bank krediti, chet ellik sarmoyadorlar va hakoza mablag'lar evaziga sotib olinadi. Ayrim hollarda ta'sischilar asosiy vosita va moddiy boyliklarning o'zini berishi ham mumkin. Asosiy va aylanma mablag'lar ishlab chiqarish faoliyatini uzluksiz yuritishga xizmat qiladi. Jz-o'zidan bu faoliyat davomida o'zgaradi, xarakatda bo'ladi va tarkibi yanada yangilanadi.

balansning birinchi bo'limi uzoq muddatli aktivlar deb nomlanib, nomoddiy aktiv va asosiy vositalar boshlang'ich, eskirish va qoldiq qiymatda, o'rnatiladigan asbob-uskunalar, tugallanmagan kapital va uzoq muddatli qo'yilma ta'sischilar bilan hisob-kitoblar va boshqa oborotdan tashqari bo'lgan aktivlardan iboratdir. Nomoddiy aktivlar korxonaga daromad keltirish yoki uning ishlab chiqarishini yuritishga shart- sharoit yaratuvchi, natural buyum shakliga ega bo'lgan mulkiy huquqiy qiymatlar, patentlar, mualliflik huquqi, savdo markalari, «nou-xau», erdan, suvdan va boshqa tabiiy boyliklardan, bino, inshoot va kurilmalardan foydalanish xukuklaridan iborat buladi. Shuningdek bu bandeda hissadorlik jamiyati boshqaruvi kelishuviga muvofiq nizom jamg'armasini tashkil qilishi uchun ajratgan nomoddiy aktivlari ham aks etadi. Nomoddiy aktivlar tarkibida

korxona manfaati uchun kelgusida ishlatilishi mo'ljallangan ilg'or texnologiyadan foydalanish huquqi, ularni olib kelish va ishlatishga tayyorlash harajatlari qo'shilgan holda aks etadi. Bu holat qo'shma korxonalaridagi O'zbekiston respublikasining fuqarosi bo'lgan yuridik shaxs bilan xorijiy sarmoyadorlar hamkorligi tufayli ko'prok vujudga keladi.

ishlab chiqarish va xizmat binolari, inshootlar va uskunalardan foydalanish xarajatlari ijara haqi summasiga teng bo'ladi. Umuman nomoddiy aktivlar boshlang'ich bahoda ko'rsatiladi, xizmat muddatiga qarab uning eskirishi hisoblanadi va balans jamlanganda qoldiq bahodagi summa qo'shiladi. «asosiy vositalar» bandida balans tuzilgan vaqtgacha bo'lgan 01 sintetik schyot qoldig'i ko'rsatiladi. Bu hisobning betida yil davomida kirim qilingan. Kreditiga esa yil davomida chiqib ketganlari aks ettiriladi. Asosiy vositalar bo'yicha eskirish hisoblanadi, buni aniqlash murakkab. Shuning uchun to'liq tiklash uchun hisoblangan amortizatsiya summasiga eskirish teng deb shartli qabul qilinadi. Amortizatsiyani hisoblash maxsus me'yorlar asosida (boshlang'ich yoki tiklash bahosiga nisbatan foiz hisobida) aniqlanadi. Me'yorlar har bir asosiy vosita turlari bo'yicha differentsiyalashgan, lekin amortizatsiyani hisoblashda asosiy vositalarning xizmat muddati tugaguncha, boshlang'ich yoki qoldiq qiymatini eskirish sifatida yangi yaratilayotgan qiymatga o'tkazishi lozim. Hisoblashning tezlashgan me'yori qo'llash mumkin, faqat bu tartib faol qatnashuvchi (mashina, uskuna va transport) vositalarga taalluqlidir.

asosiy vositalarning eskirishi 02 schetda hisoblangach, shunga qarab amortizatsiyalashgan yoki qoldiq bahodagi asosiy vositalar hajmi aniqlanadi, ya'ni boshlang'ich bahodan (01 schet) eskirish summa (02 schet) ayirib topiladi. Shu bandda uzoq muddatga ijara olingan, ishlatilishi yoki kontservatsiyada turganligidan qat'iy nazar balansidagi asosiy vositalar qiymati aks etadi. Balansning qolgan qismida kapital qo'yilmalar, shu'ba korxonalaridagi aksiyalar, shu'ba korxonalarga berilgan qarzlار, uyushma korxonalaridagi aksiyalar, uyushma korxonalariga berilgan qarzlار, uzoq muddatli investitsiyalar va boshqa aktivlar ko'rsatiladi. Bu xo'jalik yoki pudrat usulida bajarilayotgan tugallanmagan kapital qurilish asosiy poda tuzish xarajatlar, moddiy boyliklar qidirish ishlari uchun sarflar va shu maqsadlarga ajratiladigan mablag'larni ko'rsatadi. Kapital xarajatlarni korxona o'z mablag'i yoki uzoq muddatli kredit evaziga bajarishi mumkin.

«uzoq muddatli investitsiyalar» bandida hamkorlikda ishlashga kelishganlarning korxona ustav fondiga qo'shgan hissasi yoki bergan qarzi, bir yildan ortiq muddatga qiymatli qog'oz uchun qo'ygan mablag'i ko'rsatiladi. Qiymatli qog'ozlar mulk egasining huquqini aks ettirib, ma'lum darajadagi qo'shimcha foydaning foizi daromad keltiradi. Bunday qog'ozlar boshqa korxonalarning aktsiya va obligatsiyalari, davlat tomonidan chiqarilgan ichki zaymdir, bankdan sotib olingan uzoq muddatli jamg'armali sertifikatlaridir. Bu band uchun summani 06 «uzoq muddatli investitsiyalar» scheti qoldig'idan olinadi.

aktivning ii bo'limi oborot aktivlari deb nomlanib, asosiy o'rinni «ishlab chiqarish zaxiralari» bandi egallaydi. Chunki bu bandda korxona ishlab chiqarishni yuritishga zarur bulgan buyumlar jamlanadi. Unda hom ashyo va materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va detallar, urug', em-xashak, yoqilg'i, idishlar va idishbop materiallar, ehtiyot qismlar, qayta ishlash uchun chetga berilgan materiallarning haqiqiy tannarxi (sotib olish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlar) ko'rsatiladi. Ushbu bo'limning yangi hususiyati shundaki, arzon baholi va tez eskiruvchan buyumlar boshlang'ich, eskirish va qoldiq baholarda keltiriladi hamda balans jamlanganda faqat qoldiq bahodagi, ya'ni yaroqli qiymati qo'shiladi.

ii bo'limning aktiv qismini to'ldirishda asosiy ma'lumotlar «materiallar», «jstirishdagi va boquvdagi chorva mollari», «arzon baho va tez eskiruvchi buyumlar», «arzon baho va tez eskiruvchi buyumlarning eskirishi», «asosiy ishlab chiqarish», «jz ishlab chiqarishning yarim tayyor mahsulotlari», «©rdamchi ishlab chiqarish», «nokapital ishlar», kelgusi davr xarajatlari», «tayer mahsulot», «tovarlar», «savdo ustamasi». «muomala xarajatlari», scheti qoldig'idan olinadi.

pul mablag'lari, valyuta mablag'lar, g'aznadagi pullar, qisqa muddatli qo'yilmalar bandlarida material shaklida bo'lmagan boyliklar aks ettiriladi. Bu mablag'larning hajmi korxonaning ixtisoslashganligi, bozor munosabatlarida ta'minotning tashkillashtirilishi va boshqa ko'pgina sabablarga bog'liq. Masalan, sanoatda pul salmog'i yuqori bo'lsa, savdo tashkilotlarida esa debitorlar bilan hisob-kitoblar ko'p bo'lishi mumkin, chunki bu tovarlarni sotishga borib qadaladi. Eng avvalo debitorlar bilan hisob-kitoblar ko'rsatiladi, chunki xozirgi sharoitda bu masalani tahlil qilib turish zarurdir. Debitorlar boshqa yuridik (korxona, tashkilot va muassasa) va jismoniy shaxslar to'lashi lozim bo'lgan qarzдорlaridir. Qarzdorlarni shartli ikki guruhga ajratish mumkin: odatdagi va asoslanmagan. Odatdagi qarzlariga ishlab chiqarish, tovarlar sotish va xizmat ko'rsatishga avvaldan qarz berish, da'vo qilish va shu kabi munosabatlar tufayli yuzaga kelgan, ammo to'lash muddati hali etmaganlari kiradi. Asoslanmagan qarzlar faoliyat davomidagi kamchiliklar, tovar va moddiy boyliklarning kamomadi, o'g'rilik va har xil g'qolishlar hisobiga paydo bo'ladi. Bu holat doimo nazoratda bo'lib, muntazam tahlil etib borishni talab qiladi. Umuman, debitor qarzlarning mavjudligi moliyaviy ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan veksellar bo'yicha, sho''ba korxonalari, byudjet, xodimlar va boshqa debitorlar bilan bo'lgan munosabatlar hususida balans tuzilgan davrdagi holat ko'rsatiladi. Ii bo'lim aktivida mol etkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan avanslar va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar ham keltiriladi.

mablag'larni o'rganishda pul mablag'larini tahlili alohida o'rinni egallaydi. Bunday mablag'lar hisob-kitob, valyuta schyoti va g'aznadagi pullar tushuniladi. Mazkur mablag'lar to'lov majburiyatlarini bajarilishida birlamchi vosita bo'lib xizmat kiladi. Ayniqsa hisob-kitob va valyuta schyotidagi mablag'lar mahsulot etkazib beruvchilar, pudratchilar, ishchi-xizmatchilar, byudjet, bank, sug'urta va boshqalar bilan bo'ladigan aloqa manbaidir. Shu tufayli bu masala alohida o'rganilishi lozim. Shu erda o'tgan va joriy yildagi ko'rilgan zararlar ham aks ettirilishi kerak.

korxona mulki va mablag'larning kelib chiqish manbalari balansning passivida ko'rsatiladi. Bular o'ziga qarashli va chetdan jalb qilingan manbalarga ajratiladi. Jalb qilingan manbalarga bank kreditlari va kreditorlik qarzlari kiradi.

passiv ham huddi aktiv qism kabi ikkita bo'limdan iborat. I bo'limda o'zlik mablag'larning manbalari ko'rsatilib, bunda ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar, maqsadli tushum va fondlar kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari kiradi. Passivning «ustav kapitali» bandida xo'jalik faoliyatini yuritish uchun ajratilgan mablag'lari ko'rsatiladi. I'issadorlik jamiyatlarida esa har bir qatnashchining qo'shgan hissasi ustav fondida ko'rsatiladi. Divident sifatida taqsimlanadigan sof foyda hajmi ham qo'shilgan hissaga qarab aniqlanadi. Demak, ustav fondi bozor iqtisodi sharoitida yuridik shaxs sifatida korxonaning o'ziga tegishli mablag'i va aksionerlarning qo'shgan hissasidan iborat bo'ladi. I'ar bir qatnashchi shaxsiy hissasiga qarab korxonaning xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga aralashadi. I'amkorlikdagi, hissadorlik, qo'shma va

kichik korxonalarning nizom jamg'armasi hajmi qatnashchilar qo'shgan badallar miqdoriga bog'liq bo'ladi.

qo'shilgan kapital, rezerv kapital bandlarida korxonaning boyliklarini qayta baholanishidan, olgan foydasidan tashkil etilgan rezervlardan, qo'shimcha aksiyalar chiqarish natijalaridan ko'paygan hususiy manbalar ko'rsatiladi.

i bo'lim passiviga taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) ham kiritiladi. Bu bandning summasi korxonani olgan foydasi miqdoriga va uning taqsimlanishiga bog'liqdir. Korxona o'z oldidagi foydadan to'lashi lozim bo'lgan majburiyatlarini bajarib bo'lgandan so'ng, qolgan qoldiq kelgusida rezerv sifatida foydalanilishini ko'zlanib qoldiriladi. Taqsimlanmagan foyda bandi o'tgan yillardagi foydadan qolgan summalarni ham ifodalaydi. Balansda korxonaning o'z mablag'lari manbai qancha ko'p ulushni egallasa, shunchalik moliyaviy ahvol ishonchli bo'ladi.

«majburiyatlar» bo'limida korxonaning bir yildan ortiq muddatga olingan kredit va qarzlarini ifodalanadi. Bu uzoq muddatli bank kreditlari va uzoq muddatli qarzlardan iborat. Bank kreditlari ishlab chiqarishni texnik jihozlash, asosiy vositalar sotib olish va ko'rish, asosiy poda tashkil qilish va boshqa kulgina istiqbolli loyihalarni mablag' bilan ta'minlash maqsadida olinishi mumkin. Qarzlar bandida esa boshqa korxonalardan (bankdan tashqari) olingan qarz summalari ko'rsatiladi. Bu bandlarni to'ldirish uchun zarur ma'lumotlar «banklarning uzoq muddatli kreditlari» va «uzoq muddatli qarzlar» schyotlar qoldig'idan olinadi.

ii bo'lim passivini o'rganish ham katta ahamiyatga ega. Bu bo'limda qisqa muddatli bank kreditlari va qarzlarini, korxona ishchi-xizmatchilari uchun bank kreditlari, tovarlar, bajarilgan ishlar, xizmatlar uchun, berilgan veksellar, mehnatga haq to'lash bo'yicha, ijtimoiy himoyalash, sug'urta, ta'minot, mulkiy va shaxsiy sug'urta, byudjet bilan, undan tashqari to'lovlar, shu'ba korxonalari va boshqalar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar ko'rsatiladi. Bulardan tashqari haridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar, ko'zda tutilgan daromadlar, harajatlar va to'lovlar zahirasi, dargumon qarzlar bo'yicha zaxiralar va boshqa qisqa muddatli passivlar ham ushbu bo'limda aks ettiriladi. Shu bo'lim passivida juda ko'p buxgalteriya hisobining schetlari kredit qoldig'i keltiriladi. Korxona balansini o'rganishda asosiy e'tibor yil boshida o'tgan davrda mulk va mablag'larning qanchalik o'zgarganligi hamda aktivdagi har bir band passivdagi manbalarni qanchalik ta'minlaganligiga qaratiladi.

3. Mol – mulk tarkibi tahlili.

yangicha ish yuritish sharoitida korxonalar mulkining tarkibini o'rganish va uni ko'paytirish g'allarini aniqlash xo'jalik faoliyatining tahlilida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa balansga qarab korxona mol–mulki va boyligining tarkibini kuzatish, sof mablag holatini aniqlash, imkoniyat me'yorini o'lchashga yordam beradi. Odatda korxona mablag'lariga asosan vositalar va oborotdan tashqari aktivlar. Material (me'yorlashtirilgan) aylanma pul mablag'lari kiradi. Ularni miqdori hissadorlik, hamkorlik, kichik va boshqa korxonalarning katta–kichikligiga, ixtisoslashuvi va bozor sharoiti raqobatlariga bardoshligiga bog'liqdir. 2-jadvalda korxona mulkining hajmi va tarkibi keltirilgan. Uni tuzishda balans ma'lumotlaridan foydalanib, sof, ishlatishga layoqatli boyliklar holati o'rganiladi. Keltirilgan ma'lumotlar balansning jami summasiga teng bo'ladi.

Buxgalteriya balansi aktivining tahlili

Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		Jzgarishi (+,-)		
	Ming so'm	%	Ming so'm	%	So'mda	%	Yil boshiga nisbat
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8
1. Uzoq muddatli aktivlar	30998	24,8	37202	22,9	6204	-1,9	5,0
2. Oborot aktivlar	93577	75,1	125152	77,0	31575	1,9	25,3
Shu jumladan:							
A) zaxira va harajatlar	60606	48,6	70343	43,3	9737	-5,3	7,8
B) pul mablag'lari va qiymatli qarzlar	900	0,7	2388	1,5	1488	0,8	1,2
V) debitorlar	32071	25,7	52421	32,3	20350	6,6	16,3
Balans aktivining Jami	124575	100	16254	100	37779	-	30,3

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxona mulki yil boshiga nisbatan 37 mln. 779 ming so'mga g'ki 30,3% ga ko'paygan. Korxona faoliyati uchun korxona boyligining ko'payganligi ijobiy holdir. Mulkning ko'payishi oborot aktivlar hisobiga bo'lgan, oborot aktivlar yil oxiriga 31 mln. 575 ming so'mga o'sgan. Uning jami mulkdagi salmog'i 1,9 % ga ko'paygan. Zaxira va xarajatlar yil boshiga nisbatan 9 mln. 737 ming so'mga ko'paygan. Yil boshiga nisbatan 7,8 % ga ko'pdir. Jami mulk tarkibiga ko'ra zaxira va harajatlar yil boshiga nisbatan 5,3 % kamaygan, uzoq muddatli aktivlar ham yil boshiga nisbatan 1,9 % ga kamaygan. Bu korxona faoliyati uchun salbiy holatdir.

moliyaviy tahlilning muhim xususiyatlaridan biri korxona mulki, zaxiralar va xarajatlarni har tomonlama o'rganishdir. Bunday mablag'lar tarkibiga ishlab chiqarish zaxiralari, ya'ni hom ashyo va materiallar, sotib olingan yarim fabrikatlar va komplektlovchi buyumlar, konstruktsiya va detallar, ikkilamchi materiallar va o'rnatilgan asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, parvarish va boquvdagi chorva mollari, urug' va em-xashak, arzon baholi, tez eskiruvchi buyumlar va boshqalar kiradi. Ular korxonaning bir me'yorida ishlashi hamda mahsulot ishlab chiqarishi va shartnoma bo'yicha sotish rejasini ta'minlashga etarli bo'lishi lozim. Shuningdek zaxira va xarajatlar tarkibiga o'simlik va chorvachilik bo'yicha tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr chiqimlari, tayyor mahsulot va boshqalar ham kiradi. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini ham o'rganish va tahlil etish lozim.

bozor sharoitida aylanma mablag'lar, zaxiralar va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi eng kam, sof faoliyat ko'rsatadigan sharoitiga etarli bo'lishi lozim. Tahlilda esa balans ma'lumotlari va materiallarni hisoblovchi schyotlardan foydalaniladi.

4. Mablag'lar manbai tahlili.

Balansning passiv qismida korxona mablag'larining qoplash manbalari ko'rsatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mablag'larni to'ldirish quyidagilardan iborat:

1. Jzlik mablag'larning manbalari.

2. Majburiyatlar.

Bunda eng muhim o'rinni korxonaning o'ziga qarashli ustav qo'shilgan, rezerv, kapitallar, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari egallaydi. Ustav kapital korxona ixtiyoridagi doimiy berkitilgan asosiy va aylanma mablag'larning hajmini ko'rsatadi. U turli xo'jalik muomalalari ta'sirida o'zgarib turadi. Bunga foydaning taqsimlanishi hisobiga to'ldirilish, xomiylarning a'zolik badallari, asosiy vositalarning qayta baholanishi va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. Mablag'larning ko'paytirish manbalari tarkibida foyda alohida o'rinni egallaydi. Foyda hajmining ko'payishi eng avvalo nizom jamg'armasini to'ldirishga va boshqa ehtiyot jamg'armalari yaratilishga olib keladi. Amortizatsiya va boshqa fondlarning tashkil bo'lishi ham bozor sharoitida mazmunan o'zgarmoqda. 1991 yildan amortizatsiya hisoblashda tezlashtirgan me'yorlar (aktiv turdagi mashinalar, qurilmalar, transport va boshqa vositalar bo'yicha) qo'llanishi va to'liq tiklash qismi bo'yicha amortizatsiya hisoblash asosiy vositalarning balans qiymatining mahsulotlar tannarxiga o'tkazib bo'lguncha qadar bajarishlik kabi yangiliklar joriy etildi.

Kredit va boshqa mablag'larga qisqa, o'rta, uzoq muddatga mo'ljallab olingan kreditlar, o'z muddatida uzilmagan ssudalar va boshqa qarz mablag'lari kiradi. Shuningdek kreditorlar bilan hisoblashishlar va boshqa passivlar ham shu erda inobatga olinadi. Bunda kreditorlik qarzlardan tashqari byudjetga, sug'urta va mehnat haqi yuzasidan korxonaning qarzlarini ko'rsatadi.

Bozor iqtisodi qonuniyatlari va talabidan kelib chiqqan holda korxonada qarz kam bo'lgani ma'qul. 3-jadvalda korxona mablag'larining manbalari ko'rsatilgan.

3-jadval

Buxgalteriya balansi passivining tahlili

Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		Jzgarishi (+,-)		
	Ming so'm	%	Ming so'm	%	So'mda	%	Yil boshi. Nisbat

1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8
1. Jzlik mablag'larning manbalari	89035	71,5	126582	78,0	37547	6,5	30,1
2. Majburiyatlar	35540	28,5	35772	22,0	232	-6,5	0,18
Shundan:							
A) uzoq muddatli kredit va qarzlar	-	-	-	-	-	-	-
B) qisqa muddatli kredit va qarzlar							
V) kreditorlik qarzlar	4335	3,5	6460	4,0	2125	0,5	1,7
	31205	25,0	29307	18,1	-1898	-6,9	-1,5
Passivining jami:	124575	100	162354	100	37779	-	30,3

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, jami manbalar yil boshiga nisbatan 37 mln. 779 ming so'mga g'ki 30,3 % ko'paygan. Jzlik mablag'larning manbalari hisobot yil boshiga nisbatan 37 mln. 547 ming so'mga g'ki 6,5 % ga ko'paygan. Majburiyatlar ham yil boshiga nisbatan 232 ming so'mga ko'paygan. Jami manbalarga nisbatan majburiyatlar bo'yicha rejaning bajarilishi 6,5% ga kamdir. Korxonada uzoq muddatli kredit va qarzlar mavjud emas. Qisqa muddatli kredit va qarzlar jami yil boshiga nisbatan 1,7% ga o'sgan. Kreditorlik qarzlar 1 mln.898 ming so'mga kamaygan. Jami yil boshiga nisbatan bu ko'rsatkich 1,5 % ga faoliyati uchun ijobiy holat deb qarash lozim.

5. Aylanma mablag'larni qoplashga o'zlik manbalarni etarliligini yoki etishmasligini tahlili.

Balans ma'lumotlariga qarab korxonani aylanma mablag'lari qanday manbalar hisobiga tashkil etilganligi o'rganiladi. Bunday tahlilning zarurligi shundaki, korxonalarni moliyaviy mustaqilligi, barqarorligi, kredit olishga layyohqatliligi aniqlashda o'zlik manbalar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkich muhim ahamiyatga egadir. Quyidagi jadvalda zaxira va xarajatlarni qoplashga o'zlik manbalarning etarliligini aniqlash uslubi keltirilgan.

4-jadval

Zaxira va xarajatlarni qoplashga tegishli manbalar bilan ta'minlanganlikni tahlili.

ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	Farqi

1	2	3	4
1. Jzlik mablagʻlarning manbalari	89035	126582	37547
2. Uzoq muddatli aktivlar	30998	37202	6204
3. Zaxira va harajatlarni qoplashga tegishli oʻzlik manbalari (1-2)	58037	89380	31343
4. Uzoq muddatli kredit va qarzlar	-	-	-
5. Zaxira va xarajatlarni qoplashga tegishli uzlik va uzoq muddatli qarz manbalari (3+4)	58037	89380	31343
6. Qisqa muddatli kredit va qarzlar	4335	6460	2125
7. Zaxira va xarajatlarni qoplashga tegishli jami manbalar (5+6)	62372	95840	33468
8. Zaxira va xarajatlarning jami	60606	70343	9737
9. Zaxira va xarajatlarni qoplashga oʻzlik manbalarining etarliligi (+) gʻki etishmasligi (-)	-2569	19037	21606
10. Zaxira va xarajatlarni qoplashga oʻzlik va uzoq muddatli qarz manbalarining etarliligi (+), etishmasligi (-)	-2569	19037	21606
11. Zaxira va xarajatlarni qoplashga jami manbalarining etarliligi (+), etishmasligi (-) (7-8)	1766	25497	23731

Ma'lumotlarga ko'ra, korxonada hisobot davri boshida zaxira va xarajatlarni qoplashga o'zlik manbalari 2 mln. 569 ming so'mga etishmagan bo'lsa: yil oxirida bu ko'rsatkich 19 mln. 037 ming so'mga etarli summani tashkil qilgan. Yil boshiga nisbatan bu ko'rsatkich 21 mln. 606 ming so'mga ko'paygan.

Korxonada hisobot davri boshqa zahira va harajatlarni qoplash nobarqaror, ya'ni korxona zaxira va xarajatlarni faqatgina qisqa muddatli qarz manbalari hisobiga qoplay olgan xolos. Korxonada zahira va harajatlarni qoplashga o'zlik manbalari 2 mln. 569 ming so'mga etishmagan.

Hisobot yil oxirida zaxira va xarajatlarni qoplash absolyut. Bunga sabab korxonada zaxira va xarajatlarni qoplashga o'zlik mablag'lar manbalari, uzoq muddatli qarzlar hamda qisqa muddatli qarzlar etarli bo'lgan. Korxonada qisqa muddatli qarzlar yil oxirida 25 mln. 497 ming so'mga teng bo'lgan summani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 23 mln. 731 ming so'mga ko'paygan.

Korxonaning moliyaviy barqarorlik holati to'la-to'kis yaxshilangan. Korxona faoliyati uchun bu holatni ijobiy holat deb baholash lozim.

6. Moliyaviy barqarorlik tahlili.

Bozor sharoitida moliyaviy barqarorlik va to'lovga qobiliyatlilik korxonaning muxim iqtisodiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik balansdagi ma'lumotlar asosida o'rganiladi. Undagi ko'rsatkichlarni bir-biri bilan taqqoslab, mablag'lar o'rtasidagi nisbat va o'zaro bog'lanish aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlar quyidagilardan iboratdir:

1. Jami mablag'dagi korxonaning o'ziga qarashli mablag' ulushini qanchaligini hisoblashdir yoki bu quyidagi tartibda topiladi:

(a) korxonaning o'ziga qarashli mablag'

jami mablag' (balans jami)

89035

Yil boshida ----- = 71,5 foiz,

124575

126582

Yil oxirida ----- = 78,0 foiz

162354

Bunda o'ziga qarashli mablag' qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik moliyaviy barqarorlik yuqori bo'ladi.

2. Korxonadagi o'ziga qarashli mablag' bilan qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat yoki bu quyidagi tartibda topiladi:

qarzga olingan mablag'

(b) -----

o'ziga qarashli mablag'

35540

Yil boshida ----- = 39,9

89035

35772

Yil oxirida ----- = 28,3

126582

Jziga qarashli mablag' ulushi ortgan sari moliyaviy barqarorlik kuchaya boradi.

3. Uzoq muddatli qarzlardan foydalanish koeffitsienti, ya'ni uzoq muddatli qarz mablag'larini korxonaning o'ziga qarashli va qarz mablag'lar summasining yig'indisiga bo'linadi yoki bu quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\begin{aligned} & \text{uzoq muddatga olingan qarz mablag'} \\ (v) & \text{-----} \\ & \text{korxonaning o'ziga+uzoq muddatga olingan} \\ & \text{qarashli mablag' \quad \quad \quad qarz mablag'} \end{aligned}$$

4. Korxonaning o'ziga qarashli mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsienti yoki bu quyidagicha topiladi:

$$\begin{aligned} & \text{o'ziga qarashli aylanma mablag'} \\ (v) & \text{-----} \\ & \text{o'ziga qarashli jami mablag'} \end{aligned}$$

5. Eskirishning jamlanish koeffitsienti yoki bu quyidagicha topiladi:

$$\begin{aligned} & \text{asosiy vositalarning eskirish summasi} \\ (d) & \text{-----} \\ & \text{asosiy vositalar + nomaterial aktiv} \end{aligned}$$

Bu ko'rsatkich balans ma'lumotlari bo'yicha topiladi:

6. Korxona mulki tarkibidagi asosiy vositalarning aniq qiymati koeffitsienti, bu ko'rsatkich balans ma'lumotlari asosida hisoblanadi va quyidagicha topiladi:

$$\begin{aligned} & \text{asosiy vositalar (qoldiq bahoda)} \\ (e) & \text{-----} \\ & \text{jami sof mulk} \end{aligned}$$

7. Korxonadagi jami mulkning xarakatchanligi (chaqqonlik) koeffitsienti, buni hisoblash quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} & \text{aylanma mablag'lar (zaxira va pul mablag'lari)} \\ (\text{©}) & \text{-----} \\ & \text{jami mulk (balans jami)} \end{aligned}$$

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash va uning ahvolini baholashga yordam beradi.

6-jadval

Moliyaviy koeffitsientlar tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	Jzgarishi (+,-)
1	2	3	4=3-2
1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsienti	0,7	0,8	0,1
2. To'lov qobiliyatlilik koeffitsienti	2,6	3,5	0,9
3. Qarz va o'zlik mablag'lar o'rtasidagi nisbat koeffitsienti	0,4	0,3	-0,1
4. Zaxira va xarajatlarni o'zlik manbalar bilan qoplanganlik koeff-ti	0,9	1,4	0,5
5. Mablag'larning chaqqon xarakatchanlik koeff-ti	0,7	0,7	-

1. Jzlik mablag'larning manbalari (390) = yb => 89035 = 0,7_ balansning jami (550)
124575

$$Yb = > \frac{126582}{162354} = 0,8$$

2. Oborot aktivlar (300) = yb => 93577 = 2,6
majburiyatlar (540) 35540

$$yb = > \frac{125152}{35772} = 3,5$$

3. Majburiyatlar-uzoq muddatli k/k(540-(400-410)) = yb => 35540 = 0,4
jzlik mablag'larning manbalari (330) 89035

$$Yb = \frac{35772}{126582} = 0,3$$

126582

$$4. \frac{390 + (400 - 410) - 110}{120 + 160} = yb \Rightarrow \frac{89035 - 30998}{60606} = 0,9$$

120+160

60606

$$yb = \frac{126582 - 30998}{70343} = 1,4$$

70343

$$5. \frac{390 + (400 + 410) - 110}{390} = yb \Rightarrow \frac{89035 - 30998}{89035} = 0,7$$

390

89035

$$yb = \frac{126582 - 30998}{126582} = 0,7$$

126582

Ma'lumotlarga ko'ra, korxonaning moliyaviy ahvoriga to'g'ri baho berish uchun buxgalteriya balansiga asoslangan holda moliyaviy koeffitsientlardan foydalanamiz. Shunga ko'ra, korxonaning moliyaviy mustaqillik koeffitsienti yil boshiga nisbatan 0,1% ga ko'paygan. To'lov qobiliyatlik koeffitsienti yil boshiga nisbatan 0,9% ga o'sgan. Korxonada zaxira va xarajatlarni o'zlik manbalar bilan qoplanganlik koeffitsienti yil boshiga nisbatan 0,5% ga ko'paygan. Korxona faoliyati uchun bu ijobiy holatdir.

Korxonada qarz va o'zlik mablag'lar o'rasidagi nisbat koeffitsienti 0,1% ga kamaygan. Demak, bu holat korxonada o'zlik mablag'larning manbalari majburiyatlarga nisbatan yil oxirida ko'proq summaga ko'payganligidan dalolat beradi. Mablag'larning chaqqon xarakatchanlik koeffitsienti o'zgarmagan. Korxona faoliyati uchun bu ijobiy holatdir.

7. To'lov qobiliyati tahlili.

Korxonalar ko'p turdagi iqtisodiy aloqalarni, jumladan xom ashyo va materiallar sotib olish, tayyor mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarni bajarishadi. Shuningdek davlat byudjeti, moliya, bank, sug'urta va kreditorlar bilan munosabatda bo'linadi. Ularga hisob berishni belgilangan muddatda amalga oshirish, moliyaviy tartib intizomiga rioya qilish katta ahamiyatga ega.

To'lov qobiliyati deyilganda, xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarni bajarish uchun zurr bo'lgan mablag'larni etarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lishi muhim va bu uning o'z vaqtida zarur bo'lgan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi. Korxona balansi ma'lumotlarga asoslanib, to'lov qobiliyatining qay ahvoldagi hisoblanadi. buning

uchun korxonaning to'lash uchun zarur bo'lgan mablag'lari bilan qarz majburiyatlarini solishtirish mumkin.

To'lov mablag'lariga pul mablag'lari, jo'natilgan tovar va mahsulotlar qiymati (hali pul kelib tushmagan), debitor sotishdagi tushum va boshqalar kiradi. Shuningdek qisqa muddatga olingan ssudalar ham vaqtincha to'lov majburiyatlarni amalga oshirish uchun manba bo'lishi mumkin. Qiymatli qog'oz, aktsiya, obligatsiya sotishdan olingan mablag' va qo'shimcha korxonalarda qatnashishdan kelgan daromadlar ham to'lov majburiyatlarini bajarishdagi manba bo'lishi kerak. To'lov majburiyatlariga mol etkazib beruvchi va pudratchilarga, byudjet va sug'urtaga, mehanat haqi turli xil kreditorlarga bo'lgan va boshqa turdagi qarzlar kiradi. Korxonaning ma'lum bir kundagi to'lov qobiliyatini aniqlash uchun shu muddatdagi to'lov majburiyatlari bilan mablag'lar solishtiriladi.

7-jadval**Korxonaning to'lov qobiliyatining tahlili**

To'lash uchun mablag'lar	Satr raqami	Yil oxiriga	To'lov qarzlari	Satr raqami	Yil oxiriga
1	2	3	4	5	6
1. Pul mablag'lari	170	2388	1. Meb ga qarzlari	450	22777
2. Valyuta mablag'lari	180	-	2. Byudjet bo'yicha qarzlari	460	-
3. Qisqa muddatli qo'yilmalar	200+210	-	3. Mexnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari	470	3820
4. Debitorlar	220+290	52421	4. Iaridor va buyurtmachilardan olingan bo'naklar	440	6460
5. Tayg'r mahsulot	140+150	20465	5. Qisqa muddatli kredit va qarzlari	420+430	-
			6. Boshqa qarz va kreditlar	480+530	2715
Jami to'lash uchun mablag'lar	-	75274	Jami to'lov qarzlari	-	35772
Qarz to'lov majburiyatlarning ko'pligi	-	-	To'lov mablag'larning ko'pligi	-	39502
Balans	-	75274	Balans	-	75274

Ma'lumotlarga ko'ra, korxonada to'lov uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan jami mablag'lari 75 mln. 274 ming so'mni tashkil etgan. Qaytarishi kerak bo'lgan majburiyatlar 35 mln. 772 ming so'mni tashkil qilgan. Korxonada mablag'larning ortiqchaligi 39 mln. 502 ming so'mni tashkil etgan. Korxonada hisobot yilda qkarz to'lov majburiyatlari mavjud emas.

Korxonaning to'lov qobiliyatini tahlil etishda qisqa muddatga to'lov qobiliyati va uzoq muddatga to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari o'rganiladi. Shunga ko'ra qisqa muddatli to'lov qobiliyat quyidagicha aniqlanadi:

= > pul mablag'lari + qisqa mud. Qim. Qog'ozlar

qaytarish mud. Etgan kreditor qarzlari

Uzoq muddatli to'lov qobiliyat esa:

=> oborot aktivlar = 125152 = 3,4

majburiyatlar 35772

demak, korxona yuqori to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan. Bu korxona faoliyati uchun ijobiy holat hisoblanadi.

To'lov qobiliyatini tahlil qilishda ayrim boshqa ko'rsatkichlarni ham o'rganish mumkin. Masalan, jami to'lov mablag'larni majburiyatlarga nisbatan yoki to'lov qobiliyati daraja koeffitsienti, bu quyidagi tartibda hisoblanadi:

Pul mablag'lar + qiymatli qog'ozlar

Qisqa muddatli to'lov majburiyatlar

Bu balans ma'lumotlariga asoslanib,

Korxonaning mavjud pul mablag'lari doim to'lov majburiyatlarini qaytarishga tayyor bo'lgan manba bo'lganligi uchun hamda qiymatli qog'ozlar ham shu maqsadga ishlatilishi mumkinligini hisobga olinib, to'lov qobiliyatini belgilovchi koeffitsient hisoblanadi. Shuningdek turli aylanma mablag'larning pul shakllariga o'tish muddati har xilligini e'tiborga olinganda tayyor mahsulot zahiralarini tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlar va yarim fabrikatlarning pulga aylantirish tezligini o'rganish zurrur. bundan tashqari to'lov qobiliyatining o'zgarishida debitor qarzlarni pulga aylanish tezligi bankdagi to'lov hujjatlarini o'z vaqtida rasmiylashtirilish va ularning tez xarakat qilishiga bog'liqdir. Agarda debitor mablag'larni qarz majburiyatlarini uzishga g'altirilsa, oraliq to'lov qarzlarni qoplashlik koeffitsienti ko'rsatkichi hisoblanadi.

Bu ko'rsatkich quyidagi tartibda topiladi:

Pul mablagʻlari, hisob-kitob va + boshqa debitor

boshqa aktivlar

qarz

Qisqa muddatli qarzlar

Demak, korxona oraliq toʻlov qobiliyati 0,72-0,83 koe ffitsientini tashkil qiladi. Korxonaning toʻlov qobiliyatini belgilovchi muhim koʻrsatkichlardan yana biri qarz majburiyatlarini qoplashning umumiy koe ffitsientidir. Bu quyidagi tartibda hisoblanadi:

Jami aylanma (shu jumladan material) mablagʻlar

qisqa muddatli toʻlov majburiyatlar

Demak, korxona qisqa muddatli toʻlov majburiyatlarini qoplashga oʻzining barcha aylanma mablagʻlarini, yaʼni zaxiralar, pul mablagʻlari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlarni jalb etsa:

Kelgusi yilda korxonaning toʻlov qobiliyatida yuz berishi mumkin boʻlgan oʻzgarishlarni bilish uchun mahsulotlar sotishdan keladigan tushum hajmini tahlil qilish lozim. Jami tushum hsiobiga sarflangan xarajatlar qoplanadi, majburiy toʻlovlar bajariladi va ehtiyot rivojlantirish jamgʻarmalari yaratiladi. Sof tushum bevosita korxona oborotida qatnashadi, bunga asosiy vosita eskirishi va sof foyda kiradi.

Korxonaning toʻlov qobiliyatini tahlil qilishda sof tushum koe ffitsientini hsioblash muhimdir, bu koʻrsatkich quyidagicha aniqlanadi.

Sof foyda+asosiy vositalar eskirishi (amortizatsiya)

Sotishdan tushum

Hissadorlik, kooperativ, kichik va hamkorlikda ishlaydigan korxonalarda oʻziga qarashli mulkni koʻpaytirish ahamiyatli. Ayniqsa hissadorlik va boshqa jamgʻarmalarni toʻldirib borish zurrurdir. Bu hissadolar ustav fondi qatnashchi va aʼzolarning badallari hisobiga toʻldiriladi. Shuning uchun ham aʼzolarning kelishuviga muvofiq, qonun bilan belgilangan ustav fondining hajmi kamaytirilmasligi va u toʻldirib borilishi zarur. Korxona balansini oʻrganishda albatta nizom jamgʻarmasining oʻgan yilga nisbatan oʻzgarish sabablari tahlil qilinadi. Demak, ustav fondining koʻpayishi ham moliyaviy barqarorlik yaxshilanganligi belgisi hisoblanadi.

8. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni tahlili.

Firma va kompaniyalar moliyaviy hisobotining 2a-shakli «debitorlik va kreditorlik qarzlarni haqidagi ma'lumotnoma» deb nomalanib unda aks etgan ko'rsatkichlar to'lov qobiliyat, moliyaviy intizomga rioya qilinganlik va boshqa tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalarni holatiga baho berish uchun asosiy manbadir.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni tarkibi firma va kompaniyalarning qanday tashkilotlar bilan bozor sharoitida aloqa qilayotganligiga bog'liqdir. Hozirgi sharoitda debitor tashkilotlar bo'lib haridor va buyurtmachilar, bo'nak to'lovchilar, byudjet tashkilotlari, hodimlar bilan hisoblashishlar, shu'ba va uyushgan korxonalar bilan hisoblashishlar, ta'sischi bilan hisoblashishlar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlarga qarab umumiy debitorlik qarzlarni tarkibi, ular ichidan respublikadan tashqarida bo'lgan debitorlar hamda undurish muddati o'tgan qarzdorlar haqidagi ko'rsatkichlarni o'rganish mumkin.

Jadval.

Debitorlik qarzlarni tarkibini tahlili.

	Debitor tashkilotlar nomi	Jami debitorlar		Shundan respublikada tashqaridagi debitorlar		Muddati o'tgan debitorlar
		Ming so'm	Salmo g'i, %	Ming so'm	Salmo g'i, %	Ming so'm
	2	3	4	5	6	7
	E loktromontaj korxonasi	1009.5	1.9			1009.5
	Kalon ota x/j	690.1	1.3			690.1
	Zulfikor x/f	446.5				446.5
	Tadbirkor firmasi	804.2				804.2
	Qurilish hususiy korxonasi	654.0				

Ali-shavkat korxonasi	659.8				
Jamoliddin xususiy firmasi	623.3				
Ta'minot savdo tashkiloti	983.4				
Sardor xususiy firmasi	2110.9				
Boshqa debitorlar	44439.3				
Jami:	52421	100	-	-	

8. Mablag'lar xarakatchanligi tahlili.

Balans ma'lumotlariga asoslanib, korxona mablag'larining tez pulga aylanish holati o'rganiladi. Bunday tahlilning zaruriyati bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda qattiq moliyaviy cheklanishlarning paydo bo'lishi va olingan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini o'z vaqtida hisoblab, baho berishda ko'rinadi. Ayniqsa to'lov majburiyatlarining muddati korxona mulki faoliyat natijasida pulga aylanish muddatiga mos kelishi moliyaviy holatni yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois korxona aktivlarining xarakatchanligini tahlil qilgan holda qarzlarni qaytarishga etarli yoki etishmasligi muntazam o'rganilishi lozim.

Pul shakliga aylanish tezligiga qarab, korxona aktivlari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Doimiy xarakatdagi aktivlar.
2. Tez sotiluvchi aktivlar.
3. Sekin sotiluvchi aktivlar.
4. Qiyin sotiluvchi aktivlar.

Doimiy xarakatdagi aktivlar guruhiga balansdagi barcha pul mablag'lari va qisqa muddatli moliyaviy quyilmalar, ya'ni qiymatli qog'ozlar kiradi. Bunday aktivlar doimo qarz majburiyatlarni to'lash uchun tayyor turgan mablag' hisoblanadi va pul mablag'i ko'p bo'lgan korxonalar bilan iqtisodiy aloqalarni o'zaro hisob-kitoblarni kelishilgan muddatlarda bajarish imkonini beradi.

Tez sotiluvchi mulklarga balansning ii bo'lim aktividagi debitor qarzar va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Bu mablag'lar ham zurur bo'lgan hollarda to'lov vositasi bo'lib xizmat qiladi. Sekin sotiluvchi aktivlarga balansning «zaxiralar va xarajatlar» jami tushunilib, naqd pul mablag'lari etishmagan hollarda to'lov majburiyatlarni qoplashga sarflanishi mumkin. Qiyin sotiluvchi guruhlariga esa «asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlar» kiradi. Bu mulk turli ishlab chiqarishda uzoq muddat qatnashib, o'z qiymatini asta-sekin yaratilayotgan

mahsulotlarga o'tkazib beradi. Shuning uchun ham asosiy vositalarning pulga aylanib, to'lov vositasi va majburiyatlarni uzishga manba bo'lishi ko'p vaqtni talab etadi.

Balansning guruh to'lov majburiyatlariga balansning ii bo'lim passivdagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar va o'z vaqtida qaytarilmagan ssudalar kiradi. Qisqa muddatli passivlar guruxiga esa ii bo'lim passivdagi qolgan bandlar, ya'ni bankning qisqa muddatli kreditlari, korxona xizmatchilari uchun bank kreditlari, qisqa muddatli qarzar kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar zahirasi, dargumon qarzar bo'yicha zaxiralar va boshqa qisqa muddatli passivlar kiradi. Jrta va uzoq muddatli passiv deyilganda uzoq muddatli bank kreditlari va uzoq muddatli qarzar bandlari tushuniladi. Doimiy passivlar guruxiga esa i bo'lim passivdagi barcha bandlar, ya'ni ustav fondi, zaxira jamg'armasi, maxsus maqsadlarga mo'ljallangan fondlar, maqsadli moliyalashtirish va tushumlar, ijara majburiyatlari, ta'sischi bilan bo'ladigan hisob-kitoblar, o'tgan va hisobot yildagi taqsimlangan foyda kiradi.

Mablag'larning aylanish holatini tahlil qilishda joriy va kelgusi davrda kutiladigan xarakatchanlik ko'rsatkichlarini o'rganish zarur. Mablag'larning joriy xarakatchanligi doimiy va tez sotiluvchi aktivlar bilan muddati etgan to'lov majburiyatlar va qisqa muddatli passivlarni taqqoslash orqali aniqlanadi. Kelajakda kutiladigan xarakatchanlik ko'rsatkichi esa sekin sotiluvchi aktivlar bilan o'rta va uzoq muddatli passivlarni solishtirish orqali o'rganiladi. Bunda korxonaning kelgusida muljallangan har xil tushumlar bilan kelajak to'lovlarini oldindan bashorat qilish mumkin.

Korxonada yil boshiga nisbatan yil oxirida qarzar majburiyatlarini to'lash uchun mablag'larning etishmasligi sezildi. Korxonaning muddati kelgan to'lov majburiyatlari hisobot yil boshida 30 mln. 305 ming so'mga etishmagan bo'lsa, yil oxirida bu ko'rsatkich 3 mln. 381 ming so'mga kamaygan. Korxonada bu ko'rsatkichning yil oxirida 26 mln. 924 ming so'mga etishmasligi va yil boshiga nisbatan bu ko'rsatkichning kamayganligi korxonaning moliyaviy holati asta-sekin yaxshilanag'tanligidan dalolat bermoqda.

8-jadvalda korxona balansi ma'lumotlariga qarab mulk va mablag'larning xarakatchanlik darajasini aniqlasa bo'ladi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, doimiy xarakatdagi aktivlar (pul mablag'lari) to'lov muddati kelgan qarzlarni qaytarish uchun yil boshida 150 ming so'm, yil oxirida esa 87 ming so'm ortiqcha ekan. Lekin qisqa muddatli passivni e'tiborga olgan holda, pul mablag'lari va debitorlar bilan hisob-kitoblar jamini qarzlarni qaytarishga yil boshida 470 ming so'm, yil oxirida esa 220 ming so'm etishmasligini anglatadi. Demak, bu erda joriy to'lov majburiyatlarini qaytarishga mablag' etishmaydi. Faqat sekin sotiluvchi aktiv (xom ashyo va zaxira) hisobigagina qisqa muddatli qarzlarni qaytarish mumkin.

Umuman olganda, quyidagi shartlarga amal qilinsa, korxona mablag'i xarakatchan deb baholanadi:

- A) doimiy xarakatdagi aktivlar > muddati kelgan to'lov majburiyatlar;
- B) tez sotiluvchi aktivlar > qisqa muddatli passivlar;
- V) sekin sotiluvchi aktivlar > o'rta va uzoq muddatli passivlar;
- G) qiyin sotiluvchi aktivlar < doimiy passivlar

8-jadval**Balansning aktiv va passivini harakatchanligini tahlili**

Aktiv	Yil Boshiga	Yil Oxiriga	Passiv	Yil Boshiga	Yil Oxiriga	To'lash uchun mablag'larning etishmasligi (+,-)	
						Yil boshiga	Yil oxiriga
1	2	3	4	5	6	7=2-5	8=3-6
1. Doimiy xarakatdagi aktivlar	900	2388	1. Muddati kelgan to'lov majburiyatlari	31205	29312	-30305	-26924
2. Tez sotiluvchi aktivlar	32071	52421	2. Qisqa muddatli passivlar	4335	6460	27736	45961
3. Sekin sotiluvchi aktivlar	60606	70343	3. Uzoq muddatli passivlar	-	-	60606	70343
4. Qiyin sotiluvchi aktivlar	30998	37202	4. Doimiy passivlar	89035	126582	-58037	-89380

Ma'lumotlarga asoslangan holda quyidagi shartlarni bajarilishini tekshiramiz.

yil boshiga

yil oxirida

$$1. A_1 > p_1$$

$$1. 900 > 31305$$

$$1. 2388 > 29312$$

$$2. A_2 > p_2$$

$$2. 32071 > 4335$$

$$2. 52421 > 6460$$

$$3. A_3 > p_3$$

$$3. 60606 > 0$$

$$3. 70343 > 0$$

$$4. A_4 < p_4$$

$$4. 30998 < 89035$$

$$4. 37202 < 126582$$

9. Aylanma mablag'larning aylanishini tahlili.

Moliyaviy tahlilning muhim qismi aylanma mablag'lardan samarali foydalanganlikni o'rganish egallaydi, bunda aylanma mablag'lar ayniqsa ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, debitor qarzlari, pul va valyuta mablag'lar, qiymatli qog'ozlar xarakatini o'rganish muhimdir.

Aylanma mablag'larning aylanishini tahlil qilganda quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi:

mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan

sof tushum

A) aylanish koeffitsienti = -----

zaxira va xarajatlar

zaxira va xarajatlar x hisobot davr kuni (360)

B) aylanish kuni = -----

mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan

sof tushum

zaxira xarajatlari

V) aylanish salmog'i koeffitsienti= -----

Mahsulot (ish,xizmat)lar

sotishdan

sof tushum

Bu koeffitsientlardan tashqari aylanma mablag'larning samaradorligini aniqlash maqsadida har bir yoki ming so'mlik zaxira va xarajatlar hisobiga olingan yalpi mahsulot, sof tushum va hisobot yilning sof foydasi kabi ma'lumotlar ham tahlil etiladi.

9-jadval

Aylanma mablag'larning aylanishini tahlili.

Ko'rsatkichlar nomi	Jtgan Yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)
1	2	3	4=3-2
1. Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan sof tushum	263809	440274	176465
2. Zaxira va harajatlarning jami	60606	70343	9737
3. Aylanish koeffitsienti	4,3528	6,2589	1,9061
4. Aylanish kuni	82,70	57,51	-25,19
5. Aylanish salmog'i koeffitsienti	0,2297	0,1597	-0,07
6. Aylanishni tezlashishi g'ki sekinlashishidan mablag'larning bo'shashligi g'ki qo'shimcha jalb qilinishi			
A) kunda			
B) summada $(440274 \times 25,19) : 360 = -30807$			
	X	X	-25,19
	X	X	-30807

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, korxonada zaxira va xarajatlarning aylanish koeffitsienti o'tgan yilga nisbatan 1,9061 ga ko'paygan. Aylanish kuni esa utgan yilga nisbatan 25,19 kunga kamaygan. Shu jamladan aylanish salmogi koeffitsienti xam utgan yilga nisbatan 0,07 ga kamaygan. Korxonada aylanma mablag'larning aylanishi tezlashish natijasida jami 30 mln. 807 ming so'mga yaqin mablag'lar oborotdan bo'shagan, bundan ko'rinadiki korxonada o'tgan yilga nisbatan hisobot yili zaxira va xarajatlardan foydalanganlik yaxshilangan.

5-Mavzu Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik, mehnat unumdorligi va ularni mahsulot xajmiga ta'sirini tahlili

Dars o'quv maqsadi - talabalarga korxonalar xo'jalik faoliyati tahlili haqida umumiy tushunchani, korxonalar xo'jalik faoliyati tahlili predmeti va ob'ektlarini, korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilining funktsiya va vazifalarini, tahlilining metodi va uni tashkil etuvchi usullarni ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar- Mehnat unumdorligini o'sish darajasi. Mehnat unumdorligi hisobiga mahsulot hajmini o'sishi. Xodimlar sonini nisbiy kamayishi. Mehnat haqi fondidan nisbiy iqtisod. Mehnat unumdorligi o'sish darajasi. ish haqi fondi. Xodimlar soni. Mehnat unumdorligi. O'rtacha yillik ish haqi.

Asosiy savollar

1. **Mehnat resurslari tahlilining mazmuni va vazifalari.**
2. **Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishini tahlili.**
3. **Ish kuchi qo'nimsizligi va ishchilarning malaka darajasini tahlili.**
4. **Ishchilarni ish vaqtidan foydalanishini tahlili va uning o'zgarish sabablari.**
5. **Mehnat unumdorlik dinamikasining tahlili.**
6. **Sanoat ishlab chiqarish xodimlari mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.**
7. **Ishchining mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarining tahlili.**
8. **Mahsulot mehnat sig'imining tahlili.**
9. **Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillarini tahlili.**

1. Mehnat resurslari tahlilining mazmuni va vazifalari.

Respublikamizda ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Mehnat ko'rsatkichlari tarkibiga quyidagilar kiradi.

A) ish haqi fondi.

B) xodimlar soni.

V) mehnat unumdorligi.

G) jrtacha yillik ish haqi.

1997-1998 yillarda yalpi ichki mahsulot, sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi yuqori suratlar bilan oldingi yillarga nisbatan o'sdi. Mehnat unumdorligini o'sish darajasi mahsulot hajmini o'sish darajasiga nisbatan yuqori bo'lishi mamlakat miqyosida katta iqtisodiy samara berdi. Talqaro tajribadan ma'lumki, shu ko'rsatkich davlat iqtisodiyoti qudrati, kishilar turmush farovonligi omillarini mezoni bo'lib xizmat qiladi.

Moddiy ishlab chiqarishda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilardir.

1. Mehnat unumdorligini o'sish darajasi.
2. Mehnat unumdorligi hisobiga mahsulot hajmini o'sishi.
3. Xodimlar sonini nisbiy kamayishi.
4. Mehnat haqi fondidan nisbiy iqtisod.
5. Mehnat unumdorligi o'sish darajasini mehnat haqini o'sish darajasiga nisbati.

Mehnat resurslarini tahlil etish orqali korxonani xodimlar bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish, ularning tarkibi, tuzilishi, kasbiy mahorati, xodimlarni malakasini oshirish, ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlariga baho beriladi. Ayniqsa mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlariga ko'proq e'tibor beriladi. Mehnat resurslari va ulardan foydalanishni tahlil etishdan maqsad, mehnat unumdorligini oshirish rezervlari hisobiga mahsulot hajmini o'sishini,

ish vaqtidan to'liq foydalanish va boshqa omillar evaziga mahsulot tannarxini pasaytirishdan iboratdir. Mehnat resurslarini tahlil qilishda iqtisodiy tahlilning vazifalari:

1. Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, uning tarkibi, strukturasi o'zgarishini mehant unumdorligiga bo'lgan ta'sirini hisoblash.
2. Ish vaqtini g'otish sabablarini aniqlash.
3. Mehnat unumdorlik rejasini bajarilishi va dinamikasiga ob'ektiv baho berish.
4. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish rezervlarini aniqlash.

tahlil manbai :

Mehnati resurslaridan foydalanish to'g'risidagi 1-t statistik hisobot shakli, ish vaqtidan foydalanish, ish vaqti balansi to'g'risidagi hisobot, ishga kelish, ketish to'g'risidagi tabel, ish kunini fotografiyasi, ishlab chiqarish normasini bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotnoma va boshqa ma'lumotlar.

2. Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishini tahlili.

3.

Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi korxonani ish kuchi bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish ko'rsatkichlariga ko'p jihatdan bog'liq. Mehnat resurslari ishlab chiqarishga uch yoqlama ta'sir etadi.

1. Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi.
2. Ish vaqtidan foydalanish.
3. Mehnat unumdorlik darajasi.

korxonaning barcha bo'g'inlarida xizmat qiladigan xodimlar ikki guruhga bo'linadi:

1. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari
2. Noishlab chiqarish sohasidagi xodimlar.

Ishlab chiqarish jarayonida mehnat qiladigan kategoriyadagi tsex uskunalarini kapital ta'mirlash, korxona boshqaruv bo'limi, konstruktor byurosi, yong'indan muhofaza qilish sohasidagi xodimlar sanoat ishlab chiqarish xodimlari deb ataladi.

Transport, uy-joy xo'jaligi, bolalar bog'chasi va yaslisi, madaniy-ma'rifiy sohalaridagi xodimlar noishlab chiqarish xodimlari tarkibiga kiradi. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari ishlab chiqarishdagi rolga qarab quyidagi kategoriyadagi xodimlarga bo'linadi:

- Ishchilar
- Xizmatchilar
- Rahbar xodimlar
- Mutaxassislar
- Qorovullar

ish kuchini tahlili korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishini aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun jami sanoat ishlab chiqarish xodimlarini soni shu jumladan, ayrim kategoriyadagi xodimlari rejasini bilan taqqoslanib xodimlarni ortiqcha, etishmasligi aniqlanadi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi nafaqat korxonani umumiy miqdorda mehnat resurslari bilan ta'minlanishiga bog'liq bo'lmay, balki xodimlarni tuzilishiga bog'liq. Shu bois xodimlarning strukturasi, ularning o'zgarishi, o'zgarish sabablari va dinamikasi tahlil etilishi lozim.

Tahlil etishda sanoat ishlab chiqarish xodimlarini soni reja va o'tgan yildagisi bilan solishtirib korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va dinamikasi aniqlanadi. Sanoat

ishlab chiqarish xodimlarining strukturasi tarmoq hususiyati, mahsulot nomenkulaturasi, ixtisoslashish darajasiga bog'liq.

Jadval-1.

Mehnat resurslarining tarkibi, strukturasi va dinamikasini tahlili.

Ko'rsatkichlar	Jtgan yil	I'isobot yili				Farqi (+,-)	
		Reja		I'qiqatda		Jtga n yilda	Re jad an
		Soni	%	So ni	%		
1	2	3	4	56	7	8	9
Ishchilar	649	624	79.6	601	79.2	-48	-23
Xizmatchilar	172	120	15.3	118	15.5	-54	-2
Raxbar xodim, mutaxassislar	53	40	5.1	40	5.3	-13	-
Jami	874	784	100	759	100	-115	-25

Korxona ish kuchi bilan etarli miqdorda ta'min etilmagan (25 kishi) shundan, ishchilar 23 kishi, xizmatchilar 2 kishini tashkil etadi. Mahsulot ishlab chiqarish rejasi bizning misolimizda ortig'i bilan ado etilgan. Demak mahsulot hajmini o'sishi asosan mehnat unumdorligi hisobiga erishilgan.

Jtgan yilga nisbatan ham xodimlar 115 kishiga qisqargan. Xodimlar tarkibida strukturaviy o'zgarishi yuz bergan. Ishchilarni tutgan ulushi rejadagi 79,6 foizdan haqiqatda 79.62 foizga qadar pasaygan. Xizmatchilar, rahbar xodimlar va mutaxassslarniki esa rejaga nisbatan ulushi ko'tarilgan.

3. Ish kuchi qo'nimsizligi va ishchilarning malaka darajasini tahlili.

Ishlab chiqarish rejalarining bajarilishi sanoat ishlab chiqarish hodimlari tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarga ham bog'liq.yil davomida korxona xodimlari tarkibi ishga qabul qilish va bo'shatish hisobiga o'zgarib turadi. Bunday o'zgarishlar ish kuchi oboroti koe fffitsienti orqali ifodalanadi: tahlil etishda kadrlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish bo'yicha belgilangan tadbirlarni bajarilishi nazorat qilinadi. Buning uchun ishchilarni o'rtacha razryadi aniqlanadi. Kadrlarni qo'nimsizligi ishlab chiqarishga salbiy ta'sir etadi.

Kunimsizlik koe ffitsientini aniqlash uchun o'z arizasiga muvofiq ishdan bo'shagan va mehnat intizomini buzganligi uchun ketgan xodimlar soni hodimlarni ro'yhat bo'yicha soniga bo'lish lozim. Bu ko'rsatkich o'tgan yil bilan taqqoslanadi va tegishli xulosa qilinadi.

Jadval-2.

Kadrlar ko'nimsizligini tahlili.

Ko'rsatkichlar	Jtgan yil	Isobot yili
Ishchilarni ro'yhat bo'yicha soni	649	601
Ishga qabul qilindi	118	109
Ishdan bo'shatildi	163	155
Shu jumladan:		
A) o'z hohishiga ko'ra	53	45
B) progul va mehnat intizomini buzganligi uchun		
V) o'qishga kirganligi, nafaqaga chiqqanligi sababli	87	80
	23	30
Qabul qilish oboroti $gr2/gr1$	18,2	18,1
Ishdan bo'shatish oboroti $gr3/gr1$	25,1	25,8
Qo'nimsizlik koe ffitsienti $gr3a+gr3b/1$	21,6	20,8

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, korxonada ishdan bo'shatish oboroti, hamda qo'nimsizlik koe ffitsientlari yuqori ko'rsatkichga ega. Bu ko'rsatkichlar orqali korxonada mehnatni tashkil etish, rag'batlantirish sistemalari talab darajasida emasligini ifodalaydi.

Tahlil davomida ishchilarni kasbi bo'yicha korxonani ta'minlanishi aniqlanishi lozim. Chunki mahsulot ishlab chiqarish korxonani ishchilarning kasbini hisobga olgan holda ta'minlanishiga bog'liq.

Jadval-3

Ishchilarni kasbi bo'yicha ta'minlanishining tahlili.

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Rejaning bajarilishi, %	Rejadan farqi	
				Soni	%
1. Yig'uvchi - slesarlar	144	111	77,1	-33	-22,9
2. Montajchi-slesarlar	150	160	106,7	+10	+6,7
3. Tokarlar	170	155	91,1	-15	-8,9
4. Chilangarlar	90	105	116,6	+15	+16,6
5. Payvandchilar	70	70	100,0	-	-
Jami	624	601	96,3	-23	-3,7

Korxona asosiy kasbdagi ishchilar bilan 96,3 foizga ta'minlangan. Montajchi-slesarlar, chilangarlar kasbidagi ishchilar rejaga nisbatan ortiqcha bo'lgan holda qolgan kasbdagilar kamaygan. Bunday holatni bo'lishi ishlab chiqarishni normal tashkil etishga to'sqinlik qiladi, natijada belgilangan ish vaqtidan ortiqcha mehnat sarfi qilinishiga va ish haqi fondidan ortiqcha sarfga g'al qo'yilishiga olib keladi. Ishlab chiqarish natijasi mehnat unumdorligi ishchining mehnat stajiga ham bog'liq. Tahlil etishda uzluksiz mehnat staji (1-yilgacha, 1-5 yil; 5-10; 10-15; 15-20; 20-25; 25 yildan ortiq)ni jami ishchilar sonida tutgan ulushi aniqlanadi va tegishli xulosa qilinadi.

4.ishchilarni ish vaqtidan foydalanishini tahlili va uning o'zgarish sabablari.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi ishni tashkil etish va mehnat resurslarini, ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlariga ko'p jihatdan bog'liq.ishchilarni ish vaqti fondi ishchining yil davomida ishlagan kishi -kunlari va kishi-soatlari ko'rinishida hisobotlarda ifodalanadi. Ish vaqtidan foydalanishni tahlil etish uchun ishchilar tomonidan ishlangan jami kishi-kunlari va kishi-soatlari rejasi bilan taqqoslanib ish vaqtini g'qotilishi va uni o'zgarish sabablari aniqlanadi. Ish vaqtidan foydalanishni tahlil etishda quyidagi ko'rsatkichlarni qo'shimcha aniqlash lozim.

1. Bir ishchini yil davomida ishlagan kishi -kunlari.
2. Ish kuni davomiyligi.

ish vaqti fondi (kishi-soatlari) quyidagi ko'rsatkichlar ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

Jami ishlangan bir ishchining ish kuni

Kishi-soatlari = ishchilar soni x ishlagan kishi- x davomiy-
kunlari ligi

Jadval-4

Ishchilarni ish vaqtidan foydalanishini tahlili.

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Rejadan farqi (+,-)	Rejaning bajarilishi, %
1. Ishchilarni ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni	624	601	-23	96,31
2. Ishchilarni yil davomida ishlagan jami kishi-kunlari, ming kishi-kuni	162,2	154,5	-7,7	95,25
3. Ishchilarni yil davomida ishlagan jami kishi-soatlari, ming kishi-soati	1265,2	1212,8	-52,4	95,85
4. Bir ishchining ishlagan kishi-kunlari (3/1)	260	257	-3	98,80
5. Ish kuni davomiyligi, soat(3/2)	7,80	7,85	+0,05	100,60

ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, korxonada ish vaqtidan to'liq foydalanilmagan. Joriy yilda rejadagi ish vaqti fondiga nisbatan 7,7 ming kishi-kunlari hamda, 52,4 ming kishi-soatlari g'qotilgan. G'qotilgan ish vaqti asosan ishchilar sonini 23 kishiga kamayishi va bir ishchining yil davomida uch kundan ishga chiqmasligi tufayli ro'y bergan. Qo'shimcha ish vaqtini uzaytirish hisobiga g'qotilgan ish soatlari qisman qoplangan. Jami g'qotilgan 52,4 ming kishi-soatlariga quyidagi omillar ta'sir etadi.

1. Ishchilar sonini o'zgarishi.
2. Bir ishchini ishlagan kishi-kunlarini o'zgarishi.
3. Ish kuni davomiyligini o'zgarishi.

Bu omillarning ish vaqti fondiga bo'lgan ta'sirini mutloq farq usuli orqali aniqlaymiz.

Ishchilar sonining o'zgarishi

$$-23 \times 260 \times 7,80 = -46,6 \text{ ming kishi-soat}$$

Bir ishchining ishlagan kishi-kunlarini o'zgarishi

$$-3 \times 601 \times 7,80 = -14,1 \text{ ming kishi-soat}$$

Ish kuni davomiyligini o'zgarishi

$$+0,05 \times 154,5 \text{ ming kishi-kun} = +7,7 \text{ ming kishi-soat}$$

5.mehnat unumdorlik dinamikasining tahlili.

Mahsulot hajmini oshirishda mehnat unumdorligini ulushi yuqoridir. Mehnat unumdorligi ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Mehnat unumdorligini o'lchov birliklari:

A) qiymat

B) natura.

V) mehnat.

Unumdorlik darajisini natura shakli aniq ifodalaydi, ammo bu ko'rsatkichni qo'llash cheklangan. Mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkich bu har bir hodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulotdir.

Bulardan tashqari ishchining bir kunlik ish unumi, ishchining bir soatlik ish unumi ko'rsatkichlari ham mehnat unumdorligini ifodalaydi. Tahlil etishda bu mehnat unumdorlik ko'rsatkichlari o'tgan yildagisi bilan taqqoslanib ko'rsatkichlarni o'zgarish sabablari aniqlanadi.

6.sanoat ishlab chiqarish xodimlari mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha ifodalash mumkin.

Bir xodimga to'g'ri sanoat ishlab chiqarish bir ishchining

Keladigan o'rtacha = xodimlari tarkibidagi x o'rtacha yillik

Yillik mahsulot ishchilarni tutgan ulushi (%) mahsuloti

Mehnat unumining tahlil etishda uning dinamikasi, rejasini bajarilishiga baho beriladi. Unumdorlik darajasini o'zgarish sabablari aniqlanadi va unga ta'sir etuvchi omillar miqdor jihatdan hisoblanadi.

Jadval-5.**Bir xodimning mehnat unumini va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.**

Ko'rsatkichlar	Jtgan yili	Hisobot yili		Farqi (+,-)	
		Rejada	Haqiqatda	Jtgan yildan	Rejadan
Mahsulot (ish, xizmat) hajmi, m.so'm	209352	220388	254550	+45198	+34162
Sanoat ishlab chiqarish xodimlari o'rtacha soni	874	784	759	-115	-25
Shu jumladan:					
Ishchilar soni	649	624	601	-48	-23
Sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi ishchilar salmog'i % $\frac{gr3 \cdot 100}{gr2}$	74,3	79,6	79,2	+4,9	-0,4
Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot, m.so'm $\frac{gr1}{gr2}$	239.5	281.1	335.4	+95.9	+54.3
Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot, m.so'm $\frac{gr1}{gr3}$	322,5	353,1	423,5	+101	+70,4
Bir xodimni rejaga nisbatan mehnat unumining o'zgarishi:	X	X	X	X	+54,3
A) ishchilar salmog'ini o'zgarishi - $0,4 \cdot 353,1 / 100$	X	X	X	X	-1,4
B) bir ishchini mehnat unumini o'zgarishi $+70,4 \cdot 79,2 / 100$	X	X	X	X	+55,7

Bizning misolimizda mahsulot hajmi solishtirma ulgurji bahoda o'tgan yilga, rejaga nisbatan ortgan. Xodimlar va ishchilar soni esa shu davr ichida kamaygan. Demak mahsulot hajmini o'sishi mehnat unumdorligini o'sishi bilan izohlanadi. Bir xodimga to'g'ri keladigan

mahsulot hajmi rejaga nisbatan 54,3 ming so'mga ortishi, bir ishchining unumdorlik darajasini ortishi bilan izohlanadi. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi strukturaviy o'zgarish evaziga xodimning unumdorlik darajasi 1,4 ming so'mga kamaygan.

7.ishchining mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarning tahlili.

Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmi quyidagi omillarga bog'liq.

1. Bir ishchining yil davomida ishlagan o'rtacha kishi kunlari=(jami kishi kunlari/ishchilar soni)
2. Ish kuni davomiyligi, soat = (jami ishlangan kishi soat/jami ishlangan kishi kunlari)
3. Ishchining bir soatlik ish unumi = (mahsulot hajmi / jami ishlangan kishi -soat)

Tahlil etishda bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmining rejasiga, o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sabablari va unga ta'sir etuvchi omillar quyidagicha aniqlanadi.

Bir ishchiga to'g'ri bir ishchining ish kuni ishchining 1 soatlik

Keladigan o'rtacha = ishlagan kishi x davomiyligi x ish unumi

Yillik mahsulot kunlari

Jadval-6.

Ish vaqtidan foydalanishni va o'rtacha 1 soatlik ish unumdorligini ishchining yillik mahsulot hajmiga ta'sirini tahlili.

Ko'rsatkichlar	Jtgan yil	Hisobot yili		Farqi (+,-)	
		Reja	Haqiqat	Jtgan yildan	Rejadan
Mahsulot hajmi, m.so'm	209352	220388	254550	+45198	+34162
Ishchilarning jami ishlagan kishi-kunlari, ming k/k	171,1	162,2	154,5	+16,6	-7.7
Ishchilarning jami ishlagan kishi-soatlari, ming k/s	1334,3	1265,2	1212,8	-121,5	-52,4
Ishchilarni ro'yhat bo'yicha soni	649	624	601	-48	-23
Hisob-kitoblar:					
Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot m.so'm gr1/4	322,5	353,1	423,5	+101	+70,4
Bir ishchini yil davomida ishlagan kishi-kunlari gr2/4	263	260	257	-6	-3
Jrtacha ish kuni davomiyligi, soat gr3/gr2	7,79	7,80	7,85	+0,06	+0,05
Ishchini 1 soatlik ish unumi (so'm) gr1/gr3	156,90	174,19	209,89	+52,99	+35,70
Bir ishchini o'rtacha yillik mahsulot hajmini rejadan farqiga ta'siri:	X	X	X	X	+70,4
A) g'qotilgan ish kunlari	X	X	X	X	-4
B) ish kuni davomiyligini uzayishi	X	X	X	X	+2,2
V) 1 soatlik ish unumini ortishi	X	X	X	X	+72,0

A) $-3 \cdot 7.80 \cdot 174.19$ b) $+0.05 \cdot 257 \cdot 174.19$ v) $+35.70 \cdot 7.85 \cdot 257$

Bir ishchini o'rtacha yillik mahsulot hajmi rejaga nisbatan 70,4 ming so'mga ortgan. Jrtacha yillik mahsulot hajmini ortishi ish kuni davomiyligini uzayishi, hamda ishchilarni 1 soatlik ish unumini o'sishi hisobiga (2,2 va 72,0 ming so'm) yuz bergan. Tar bir ishchini yil davomida ishlagan kishi-kunini 3 kunga kamayishi evaziga yillik mahsulot 4.0 ming so'mga kamaygan.

8. Mahsulot mehnat sig'imini tahlili.

Ishlab chiqarish hajmi, mahsulot strukturasi va assortimentini o'zgarishiga ham bog'liq. Kam mehnat talab etadigan mahsulot turlarini ko'proq ishlab chiqarish tufayli mahsulot struktura va assortimentini o'zgarishi mehnat unumdorligini o'sishiga olib keladi.

Struktura va assortimentni unumdorlik darajasiga ta'siri mehnat sig'imi orqali aniqlash mumkin.

Mehnati sig'imi – mahsulot, yarim fabrikat va mahsulotni ayrim qismlarini ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqti bilan o'lchanadi.

Sanoatda mehnat unumdorligini o'sishi ilmiy-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish natijasida mehnat sig'imini pasaytirish hisobiga erishiladi.

Mehnati sig'imi bilan mehnat unumdorligi bilvosita bog'liqqa ega. Mehnati sig'imi pasayishi tufayli mehnat unumdorligi ortadi va buning aksicha, mehnati sig'imi ortsa-mehnati unumdorligi pasayadi.

Mehnati sig'imini pasaytirish mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan ish vaqtini qisqartirish orqali erishiladi.

Mehnat sig'imini pasaytirish hisobiga mehnat unumdorligini o'sishi (foiz hisobida) quyidagicha aniqlanadi.

$$Mu = \frac{100 \times a}{100 - a}$$

bunda: a- ishlab chiqarilgan mahsulot mehnat sig'imini pasaytirish (foiz hisobida).
Mu – mehnat unumdorligini o'sish darajasi (foiz hisobida).

Masalan, mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat 8550 kishi-soatni tashkil etib, norma bo'yicha 9000 kishi –soatga nisbatan 450 kishi-soat iqtisod qilingan.

Demak, mehnat sig'imini 5 % (450:9000x100) ga pasayishi mehnat unumdorligini 5,26% (9000:8550x100) ga ortishiga olib keldi.

Erishilgan natijani yuqoridagi formula orqali ham aniqlash mumkin.

$$Mu = \left(\frac{100 \times 5}{100 - 5} \right) = 5,26 \%$$

mehnat unumdorligini mehnat sig'imiga ta'siri quyidagicha aniqlanadi.

$$a = \frac{mu \times 100}{100 + mu}$$

bizning misolimizda mehnat unumdorligini 5,26% ga o'sishi, mehnat sig'imini 5 % ga pasayishiga olib keldi.

$$5.26 \times 100$$

$$a = \frac{5.26}{100 + 5.26} = 5 \%$$

$$100 + 5.26$$

Jadval-7.

Mehnat sig'iminin o'zgarishini mehnat unumdorligiga ta'siri

T. n	Ko'rsatkichlar	Jtgan yil	Hisobot yili		Ko'rsatkichlarni o'zgarishi		
			Reja	Haqiqat	Reja o'tgan yilga nisbatan	Haqiqiy o'tgan yilga nisbatan	Rejani ng bajarilishi
	A	1	2	3	4	5	6
1.	Mahsulot hajmi, m.so'm	209352	220388	254550	105,27	121,58	115,50
2.	Ishchilarni jami ishlagan kishi-soatlari, ming k/soat	1334,3	1265,2	1212,8	94,82	90,89	95,85
3.	Har 1000 so'm mahsulot uchun sarflangan mehnat, soat (2 satr: 1 satr)	6,37	5,74	4,76	90,10	74,72	82,92
4.	Ishchining bir soatlik ish unumi, so'm (1 satr: 2 satr)	156,90	174,19	209,88	111,02	133,76	120,49

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki korxonada mehnat sig'imi rejadagi 9,9 % (100-90,10) o'rniga, haqiqatda 25.28 % (100-74,72) ga pasaygan. Shu omil hisobiga mehnat unumdorligini o'sishi ta'minlangan. Mehnat sig'imini pasayishi hisobiga ishchining 1 soatlik ish unumini 10,98 % (9,9 x 100/100-99) ga oshirish ko'zda tutilgan. Haqiqatda esa 1 soatlik ish unumi 33,80 % (25,28 x 100/100-25,28) ga mehnat sig'imini pasayishi hisobiga erishilgan.

10. Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillarini tahlili.

11.

Mahsulot hajmiga quyidagi mehnat omillari ta'sir etadi.

1. Ishchilar sonini o'zgarishi.
2. Bir ishchini yil davomida ishlagan kishi-kunlarini o'zgarishi.
3. Ish kuni davomiyligini o'zgarishi.
4. Ishchini 1 soatlik ish unumini o'zgarishi.

bu mehnat omillarini mahsulot hajmiga bo'lgan ta'sirini zanjirli bog'lanish, farq usuli, foizlarni farq usullari orqali aniqlash mumkin.

Jadval-8.**Mehnat omillarini mahsulot hajmiga ta'siri.****(foizlarni farq usuli orqali aniqlash).**

Ko'rsatkichlar	Rejani bajarilishi (%)	Foizlar-ni farqi	Hisob- kitoblar	Jzgarish sababi
Ishchilar soni	96,31	-3,69	$220388 \cdot 3,6/100 = -8132,3$	Ishchilar sonini kamayishi
Jami ishlagan kishi kunlari	95,25	-1,06	$220388 \cdot 1,06/100 = -2336,1$	G'qotil-gan ish kunlari
Jami ishlagan kishi soatlari	95,86	+0,61	$220388 \cdot 0,61/100 = +1344,4$	Ish kuni davomiy-ligini uzayishi
Mahsulot hajmi	115,50	+19,64	$220388 \cdot 19,64/100 = +43284,2$	1 soatlik ish unumini ortishi
Jami			34160,2	

Ilova:

1) Mahsulot hajmi, ming so'm

Reja raqiatda farqi

220388 254550 +34162

Hisob-kitoblar : $96,31 - 100 = -3,69$ $95,25 - 96,31 = -1,06$ $95,86 - 95,25 = +0,61$ $115,5 - 95,86 = + 19,64$

Mehnat resurslaridan to'liq foydalanilgan taqdirda korxonada mahsulot hajmi qo'shimcha 2336.1 ming so'mga ortishi mumkin edi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar.

- Mehnat resurslarini tarkibi, strukturasi tahlil etish vazifasi;
- Mehnat ko'rsatkichlari, ularni tahlil etish uslubi;
- Ish kuchi qo'nimsizligini tahlil etish uslubi;
- Ish vaqtidan foydalanish tahlili;
- Mehnat unumdorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi.

A) qiymat

B) natura

V) mehnat

- Qiymat shaklida unumdorlik darajasini aniqlashni kamchiliklari;
- 1 xodimga va 1 ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot, ularni bir-biridan farqi;
- 1 xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha mahsulotga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash uslubi;
- 1 ishchiga to'g'ri keladigan mahsulotga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash tartibi;
- Mahsulot mehnat sig'imini tahlil etish uslublari.

6-Mavzu Debitorlik va kreditorlik karzlarni tahlili

Dars o‘quv maqsadi - talabalarga korxonalar xo‘jalik faoliyati tahlili haqida umumiy tushunchani, korxonalar xo‘jalik faoliyati tahlili predmeti va ob‘ektlarini, korxonalar xo‘jalik faoliyati tahlilining funktsiya va vazifalarini, tahlilining metodi va uni tashkil etuvchi usullarni ma‘lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar- Debitorlik va kreditorlik majburiyatlar , Mol etkazib beruvchilarga karzalar. Byudjet buyicha karzlar. Mexnatga xak tulash buyicha karzlar. Mulkiy va shaxsiy sugurtalar buyicha karzlar Ijtimoiy sugurta va ta‘minot buyicha karzlar

Asosiy savollar

1. Tahlil vazifasi va axborot manbai
2. Buxgalteriya balansi bo‘yicha debitorlik va kreditorlik qarzlarning vujudga kelish sabablar.
3. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini tuzish. Muddati uzaytirilgan qarzlarning vujudga kelish sabablari.
4. Debitorlik qarzlarning umumiy xajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati bo‘yicha tahlili.
5. Kreditorlik qarzlarning umumiy xajmi, tarkibi va tashkil topish muddati buyicha tahlili.
6. Qarzlarni kamaytirish g‘‘llari.

1. Tahlil vazifasi va axborot manbai

korxonalar o'rtasida buladigan, shuningdek, kredit tashkilotlari va nazorat tashkilotlari o'rtasidagi hisob kitoblarda tulovlar buyicha kechiktirilgan vakt buyicha farklanishlar kelib chikadi. Bunda korxona tomonidan tulanishi lozim bulgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, olinishi lozim bulgan majburiyatlar esa debitorlik majburiyatlar hisoblanadi. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari kuyidagicha sharx berish mumkin. Karshi tamonga tulanishi lozim bulgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, karshi tamondan olinishi lozim bulgan majburiyatlar debitorlik majburiyatlari deyiladi.

debitorlik va kreditorlik majburiyatlari hisob kitoblarning doimiy yuldoshi hisoblanadi. Lekin ularning tulov muddatining oshib ketishi korxonalar moliyaviy axvoliga katta tasir utkazadi. shu maksadda korxonalar faoliyatini yuritishda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini to'g'ri boshkarish masalasiga alohida axamiyat beriladi.

muddati utgan debitorlik majburiyatlarining oldini olish bevosita davlat nazariagi va etiboridagi masala xam hisoblanadi. Negaki korxonalar va tashkilotlar urtasida buladigan uzaro munosabatlarda majburiyatlarni tartiblash asosida davlat nakd pul muomalasini boshkarish va iktisodiy tadbirlar rejasini tuzib chikish chora tadbirlari belgilanadi.

tahlil etishda korxonalarning muayn davrga bulgan uzaro debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga, tarkibiga, tashkil topish muddatlariga, yuzaga chikish sababalariga, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining oklanuvchanligiga, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari buyicha dargumon karzalarining yuzaga chikishiga baxo beriladi.

tahlil uchun zarur bulgan ma'lumotlar korxona balansi (1-shakl) xamda korxona va tashkilotlar tamonidan tuziladigan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotnomadan (2a-shakl) olinadi. Shuningdek buxgalteriya hisobining analitik schetlari 45,60, 61, 62, 63, 65, 67, 68, 69, 70, 71, 73, 76, 78 –schet ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Tahlil etishning asosiy maksadi debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanish davrini tezlashtirish asosida korxona moliyaviy holatini yaxshilash yuzasidan holatni baxolash va chora tadbirlar belgilashdan iborat.

2. Buxgalteriya balansi buyicha debitorlik va kreditorlik karzlarining vujudga kelish sabablar.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bevosita korxona bilan karshi tamon o'rtasidagi uzaro hisob kitoblarda kelib chikadigan majburiyatlardir. Bu majburiyatlar korxona bilan mol

etkazib beruvchilar eki haridorlar o'rtasidagi munosabatlarda, korxona bilan bank tashkilotlar o'rtasida, korxona bilan solik organlari o'rtasidagi, korxona bilan ijtimoiy taminot bulimlari va turli jamoat tashkilotlari, shuning xodimlar, mulk egalari, aksionerlar va investorlar bilan buladigan munosabatlarda yuza keladi. Ularning yuzaga kelishining asosiy sababi hisob kitoblarda vaktning uzgaruvchanligidir. Ya'ni bugun ortilgan mahsulot xam puli tulangunga kadam debitorlik va kreditorlik majburiyatlar katoriga kiritiladi. Bunda daromad va xarajatlarning yuzaga chikishi bilan ular buyicha hisob kitoblarning amalga oshishi orasida farklanish kelib chikadi.

Debitorlik kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishi buyicha kuyidagi sabab katorlarini tarkiblash mumkin:

- uzaro hisob kitoblarda tamonlarning tulov laekatiga ega emasligi;
- tavarlarni ortib junatish va sotishda hisob kitoblarning zamonaviy shakllarining cheklanganligi;
- mulk va unga egalik kilishda ma'sullik xissining yukligi;
- uzaro shartnomaviy munosabatlarning yaxshi yulga kuyilmaganligi;
- daromadlarni tan olish yuzasidan korxonalar tarmok hususiyatidan kelib chikilmaganligi;
- xarajatlar tarkibiga kiruvchi ish va xizmatlarni hisobga olishda kat'iy xujjatlashtirish mezonlarining yukligi;
- xodimlar va kapital egalari bilan korxona o'rtasidagi munosabatlarda ka'tiy shartlarning yukligi;
- kredit tashkilotlari bilan mijoz o'rtasida buladigan munosabatlarda korxonalar faoliyatini baxolashning uslubiy asoslaridagi kamchiliklar;
- sugurta tashkilotlari bilan korxonalar o'rtasidagi munosabatlarda kat'iy davlat konunchilik mexanizmining mavjud emasligi va x.k. Sabablarni kritish mumkin.

Biz yukorida belgilagan edikki korxonada debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishining asosiy sababi hisob kitoblarda tulovlar muddatining eki sanasining turli hisobot davriga tushib kolishidir. Bunda debitorlik kreditorlik majburiyatlarining yuzaga chkishiga har kanday holda xam yul kuyiladi. Agarda mahsulotlar ortib junatish orkali sotiladigan bulsa bunda tulovlar amalga oshish sanasiga kadar, agarda tovarlar pulini oldindan tulash asosida sotiladigan bulsa bunda xam tovarlarni junatish sanasiga kadar majburiyat, karz sifatida hisobda aks ettiriladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlar buyicha hisobot, ma'lumotnoma har oyning 1-sanasiga tuziladi va tegishli tashkilotlarga topshiriladi.

Debitorlik va kreditorlik kazlari korxona balansi yani har chorakda tuziladigan korxona aktivlari, kapitali va majburiyatlari holati to'g'risidagi hisobotda xam aks ettiriladi.

3. Debitorlik va kreditorlik karzlari balansini tuzish. Muddati uzaytirilgan karzlarning vujudga kelish sabablari.

Debitorlik va kreditorlik karzlari balansi ular orasidagi uzaro tengilik nisbatini xarakterlaydi. Bunda debitorlik majburiyatlarining kreditorlik majburiyatlaridan ortib ketishi eki aksincha holatlari ifodalanadi.

Debitorlik – kreditorlik majburiyatlari katoriga balans moddalari buyicha kuyidagi katorlar kiritiladi:

debitorlar:

- haridorlar va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar (09,45,62-82),
- bunak (avans) tulovlari (61)
- byudjet bilan hisoblashishlar (68,19)
- xodimlar bila hisoblashishlar (73)
- shu'ba korxonalar bilan hisoblashishlar
- ta'sischilar bilan hisoblashishlar (75)
- uyushma korxonalar bilan hisoblashishlar (79)
- boshka debitorlar (63,71,76)

kreditorlar:

- mol etkazib beruvchilar (60)
- byudjet buyicha karzlar (68)
- mexnatga xak tulash buyicha karzlar (70.1, 70.2)

- ijtimoiy sugurta va ta'minot buyicha karzlar (69)
- mulkiy va shaxsiy sugurtalar buyicha karzlar (65)
- byudjetdan tashkari tulovlar buyicha karzlar
- shu'ba korxonalariga karzlar (78)
- uyushma korxonalariga karzlar (78)
- boshka kreditorlar (75.1, 71.2, 73, 76.1, 79)

Debitorlik va kreditorlik karzlari balansining tahlili

Debitorlik karzlari	Summa M.s.	Kreditorlik karzlari	Summa m.s.
Haridorlar va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar	15698	Mol etkazib beruvchilarga karzalar	18259
Bunak (avans) tulovlari	1256	Byudjet buyicha karzlar	121
Byudjet bilan hisoblashishlar	31	Mexnatga xak tulash buyicha karzlar	1120
Xodimlar bila hisoblashishlar	53	Ijtimoiy sugurta va ta'minot buyicha karzlar	425
Shu'ba korxonalar bilan hisoblashishlar	2959	Mulkiy va shaxsiy sugurtalar buyicha karzlar	820
Ta'sischilar bilan hisoblashishlar	-	Byudjetdan tashkari tulovlar buyicha karzlar	231
Uyushma korxonalar bilan hisoblashishlar	2584	Shu'ba korxonalariga karzlar	1289
Boshka debitorlar	436	Uyushma korxonalariga karzlar	8521
		Boshka kreditorlar	215
Jami	23017	Jami	31001
Kreditorlik karzlarining debitorlik karzlardan ortikchaligi	7984		

Balans	31001	Balans	31001
--------	-------	--------	-------

Korxonada debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatining tahlili shuni ko'rsatadiki joriy davrda kreditorlik majburiyatlari debitorlik majburiyatlariga nisbatan 7984 ming sumga yukori bulgan.

Tarkib tuzilishida debitorlik majburiyatlarining asosiy kismi haridor va buyurtmachilar bilan hisob kitoblar (15698), shu'ba korxonalar bilan buldigan hisob-kitoblar (2959), uyushma korxonalar bilan buladigan hisob-kitoblar (2584), bunak tulovlari xissasiga to'g'ri kelgan (1256).

Kreditorlik majburiyatlari katorida asosiy ulushni mol etkazib beruvchilarga bulgan karzlar (18259), ushma korxonalarga karzlar (8521), shuba korxonalarga karazlar (1289), mexnatga xak tulash buyicha karzlar tashkil etgan (1120).

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tengligi 31001 ming sumni tashkil etgan shundan sof kreditorlik majburiyatlari summasi 7984 ming sumni tashkil etgan.

Muddati uzaytirilgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishiga tahlil alohida axamiyat karatiladi. Negaki muddati utkazib yuborilgan majburiyatlar korxona moliyaviy axvolining ogirlashishi va moliyaviy barkarorligining buzilishiga sabab buladi. Uz navbatida korxonaning tulov laekati buziladi.

Muddati utkazib yuborilgan majburiyatlarning yuzaga chikish sabablari sifatida kuyidagilarni keltirib utish mumkin:

- korxonaning moliyaviy holatining nosoglomligi;
- korxonaning tulov laekatiga ega emasligi;
- likvid mablaglarning aylanuvchanligi uzokligi;
- shartnoma majburiyatlariga va tulov shartlariga amal etmaslik;
- xujalik shartnomalarining buzilishidan ko'riladigan zararlarning to'g'ri o'rinlanmasligi (shartnomalarni buzilishida kullaniladigan choralarning amal etmasligi);
- hisob-kitoblarda zamonaviy hisob shakllariga yul berilmaganligi (fyuchers, fors-major, veksels, kimmatli kagozlar, barter operatsiyalari);

Debitorlik-kreditorlik majburiyatlarining undirib olish muddati 3 oy kilib eki 90 kalendar kun kilib belgilangan. Ushbu muddatdan sung debitorlik kreditorlik majburiyatlari nazoratga olinadi xamda ularning holati buyicha davlat konunchiligiga muvofik javobgarlik shartlari (ma'muriy va moliyaviy) belgilangan.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini hisobdan chikarish muddati sifatida xukukiy shaxslar o'rtasida 1 yil, korxona bilan jismoniy shaxslar o'rtasida 3 yil muddat belgilangan. Ushbu muddatda tulanmagan eki undirib olinmagan majburiyatlar, karzlar korxona foyda va zararlarga olib boriladi. Muddati utgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari davlat tamonidan nazorat katori sifatida olingan. Muddati utkazib yuborilgan kreditorlik majburiyatlari korxona foydasiga kushiladi va umumiy asosda foydadan solik stavkasi buyicha solikka tortiladi.

Muddati utgan debitorlik majburiyatlarini zararga olib borish solikka tortiladigan foyda summasini kamaytirmaydi.

Muddati utgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini foyda va zararlar katoriga olib borish shartlari davlat hisob, solik konunchiligiga muvofiq kat'iy tartiblangan. Ya'ni debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini foyda va zararlar katoriga olib borishga kadar ularni tulash eki undirib olish yuzasidan kanday ezishmalar eki murojatlar bulgan, orbitraj karori chikarilgan eki chikarilmaganligi va x.k. Buyicha dastlabki xujjatlar tuplami tayerlanmogi lozim. Fakat shundagina uni foyda va zararlar katoriga olib borish mumkin. Aks holda zaruriylik shartida kechiktirilgan majburiyatlar sifatida olinib ma'sullar javobgarlikka tortiladi.

4. Debitorlik karzlarining umumiy xajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati buyicha tahlili.

Debitorlik majburiyatlari tarkibi deganda uning yuzaga chikish katorlari eki o'rni tushiniladi. Korxona balansi buyicha uning kuyidagi katorlarini tarkiblab utganmiz. Taridor va buyurtmachilarga bulgan debitorlik majburiyatlari, xodimlar bilan hisob-kitoblar buyicha debitorlik majburiyatlar, ish xakidan ajratmalar yuzasidan debitorlik majburiyatlari, soliklar va turli boshka tulovlar buyicha debitorlik majburiyatlari va x.k.

Shuningdek debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tarkibida muddati utgan, tulov muddati kelgan va tulov muddati utmagan majburiyatlarni a'loxida tarkiblash mumkin.

Muddati utgan, tulash muddati kelgan majburiyatlar a'loxida hisobga olinadi va boshkariladi. Muddati utgan debitorlik majburiyatlar debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotnomada alohida katorlanadi. Ularning respublika ichkarisidagi korxonalar va respublikadan tashkaridagi korxonalar o'rtasida muddati utgan majburiyatlarga ajratish mumkin. muddati utkazib yuborilagn majburiyatlar korxona moliyaviy holatini ogirlashtiruvchi asosiy sabab faktori sifatida olinadi va muxim etibor beriladi.

tahlil etishda debitorlik majburiyatlarining xajmi tarkibi xamda vujudga kelish muddati buyicha o'rganish asosida ularning holatiga, aylanuvchanlik darajasiga, debitorlik karzlari bilan boglik bulgan moliyaviy holat ko'rsatkichlariga baxo beriladi.

Debitorlik majburiyatlarining holati. 1-yanvar 1998 y.

Debitorlik majburiyatlari moddalari	Davri oxiriga jami	Shu jumladan yuzaga chikish muddatlari buyicha				
		1 oy gacha	1 oydan 2 oygacha	3oydan 6 oygacha	6 oydan 1 yilgacha	1 yildan ortik
1.raridorlar va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar	15698	6578	5933	1765	1346	76
2.bunak (avans) tulovlari	1256	*	1256	*	*	*
3.byudjet bilan hisoblashishlar	31	31	*	*	*	*
4.xodimlar bila hisoblashishlar	53	25	*	*	28	*
5.shu'ba korxonalar bilan hisoblashishlar	2959	*	2959	*	*	*
6.ta'sisichilar bilan hisoblashishlar	-	*	*	*	*	*
7.uyushma korxonalar bilan hisoblashishlar	2584	*	1998	586	*	*
8.boshka debitorlar	436	121	254	*	52,1	8,9
Jami	23017	6755	12400	2351	1426,1	84,9

Korxonada debitorlik majburiyatlarining vujudga kelish muddatlari buyicha tahlili natijasidanshuni ko'rish mumkinki 1998 yilning 1-yanvariga 23017 ming sumni tashkil qilgan. Jami detiborlik majburiyatlari tarkibida 1 oy muddatga bulgan majburiyatlar 6755 ming sumni, 1 oydan 2 oygacha bulgan majburiyatlar 12400 ming sumni, 3 oydan 6 oygacha bulgan majburiyatlar 2351 ming sumni, 6 oy dan 1 yilgacha bulgan majburiyatlar 1426.1 ming sumni, shuningdek 1 yildan ortik muddatdagi majburiyatlar xajmi 84.9 ming sumni tashkil qilgan.

Korxonaning asosiy majburiyatlar kiska muddatli majburiyatlar sifatida ularning jami debitorlik majburiyatlari xajmidagi xissasi 22932,1 ming sumni eki 99.6 % ni tashkil etgan. (bir yilga kadar bulgan majburiyatlar)

Debitorlik majburiyatlari eki karzlari tahlilida ularning aylanuvchanligiga alohida etibor beriladi. Negaki debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik darajasi korxona moliyaviy axvoliga baxo berishning muxim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi deganda karz majburiyatlarining undirib olish muddati va ularning aylanish koeffitsienti tushuniladi. bu bevosita bugungi yuzaga kelgan majburiyatning necha kundan keyin nakd pulga aylanish darajasini xarakterlaydi.

Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi sotishdan olingan tushumni debitorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bulish asosida aniklanadi.

Debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kalendar kuniga kupaytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bulish asosida debitorlik karzlarining aylanishlar kuni aniklanadi.

Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi tahlili.

Ko'rsatkichlar	Utg n yil	Hisobot yili	Farki
1.debitorlik majburiyatlari jami	1232 3	23017	+1069 4
2.mahsulot sotishdan olingan sof tushum	6772 9	132564	+6483 5
3.oborot aktivlari	5642 8	95382	+3895 4
4.muddati utgan debitorlik karzolari	125, 2	84,9	-40,3
5.debitorlik karzlarining aylanish koeffitsienti (2/1)	5,49 6	5,759	+0,26 3
6.debitorlik karzalarining aylanish davri, kunda (1*360/2)	65,5	62,5	-3
7.oborot aktivlari tarkibida debitorlik karzlari, (1/3*100)%	21,8	24,1	+2,3
8.muddati utgan debitorlik karzolari ulushi, (4/1*100) %	1,0	0,3	-0,7

Korxonada debitorlik majburiyatlarining holati utgan yilning shu davriga nisbatan 10694 ming sumga oshgan. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasi xam utgan yilning shu davriga nisbatan 64835 ming sumga usgan. Buning ta'sirida debitorlik majburiyatlarining undirilish davri utgan yilga nisbatan 3 kunga tejalishiga erishilgan. Ya'ni debitorlik majburiyatlarining undirib olinishi bir kadar tezlashgan. Bu tezlashish bevosita mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushum summasining oshishi hisobiga ruy bergan. Joriy davrda debitorlik majburiyatlarining jami oborot aktivlari tarkibidagi salmogi utgan yining shu davriga nisbatan 2.3 % ga ortishi avvalo debitorlik majburiyatlari summasining ortishi hisobiga ruy bergan. Muddati utgan debitorlik karzalarining jami debitorlik karzlari tarkibidagi salmogi utgan yilning shu davrida 1 % ni joriy davrning oxirgi hisobot sanasiga esa 0,3 % ni tashkil kilgan.

Yukoridagi boglanishlardan bevosita debitorlik majburiyatlarining aylanishiga ta'sir etuvchi omillarning ta'sir darajalarini xam aniklashimiz mumkin.

Debitorlik karzlarining aylanish koe ffitenti va aylanish davri uzgarishini omilli tahlili.

Ko'rsatkichlar	Debitorlik karzlari aylanish koe ffitenti	Debitorlik majburiyatlari aylanish davri
1.utgan yil	5,496	65,5
2.shartli hisobot yili	10,757	33,4
3.hisobot yili	5,759	62,5
Jami fark	+0,263	-3
Ta'sir etuvchi omillar	*	*
1.sotishdan olingan sof tushum summasining uzgarishi	+5,261	-32,1
2.debitorlik karzlari summasining uzgarishi	-4,998	+29,1

Debitorlik majburiyatlarining aylanish koe ffitenti va aylanish davriga omillar ta'siri kuyidagicha bulgan. Debitorlik karzlarining aylanish koe ffitenti utgan yilga nisbatan +0,263 ga ortgan. Bu uzgarishda mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushum summasining uzgarishi ta'sirida aylanish koe ffitenti +5,261 ga, debitorlik karzlari xajmining uzgarishi hisobiga esa aylanish koe ffitenti -4,998 ga kamaygan. Xa ikkala omil ta'sirida aylanish koe ffitenti +0,263 koe ffitentga uzgargan. Ushbu omillar ta'siri debitorlik karzalarining aylanish davri ko'rschatkichi buyicha kuyidagicha bulgan. Ya'ni; sotishdan olingan sof tushum summasi hisobiga uzgarish -32,1 kunga, debitorlik majburiyatlari summasining usishi hisobiga +29,1 kunga uzgarish kuzatilgan.

Debitorlik majburiyatlarining shartli aylanish koe ffitenti :	Sotishdan olingan sof tushum xakikatda
	Debitorlik majburiyatlari utgan yil shu davri buyicha

Debitorlik majburiyatlarining shartli aylanish davri	:	Debitorlik majburiyatlari utgan yil shu davri buyicha * 360
		Sotishdan olingan sof tushum xakikatda

5. Kreditorlik karzlarining umumiy xajmi, tarkibi va tashkil topish muddati buyicha tahlili.

Kreditorlik majburiyatlari karshi tamonga korxonaning tulaydigan majburiyatlarini xarakterlaydi. Biz yukorida uning tarkibiga nimalar kirishini va ularning yuzaga kelish sabablarini tarkiblab utgan edik. Kreditorlik majburiyatlarining yuzaga chikishining asosiy sababi sifatida bevosita debitorlik majburiyatlarining vaktida kelib tushmasligini xam tarkiblash mumkin.

Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi tahlilida karzdor bulgan tamonlar buyicha majburiyatlarning katorlanishi, ularni tulash muddatlari buyicha tarkiblanishiga baxo beriladi. Shuningdek debitorlik majburiyatlarining aylanish koe ffit senti va aylanish davrini aniklashdagi kabi bunda xam kreditorlik majburiyatlarining aylanishi koe ffit senti va dvari aniklanadi. Lekin bunda katnashuvchi ko'rsatkichlar farkanadi. Kreditorlik majburiyatlari aylanishini o'rganishda assosiy ko'rsatkichlar sifatida nasiga olingan eki hali puli tulanmagan mollar, ashelar, ish va xizmatlar summasiga xamda kreditorlik majburiyatlarining xakkiy ko'rsatkichlariga murojat kilinadi.

Kreditorlik majburiyatlarining tulash muddatlari buyicha kuyidagi tarkibini berib utish mumkin.

- tulash muddati kelgan majburiyatlar
- tulash muddati utib ketgan majburiyatlari

Yil kalendar davrining taksimi buyicha kreditorlik majburiyatlarining kuyidagi shakllarini berish mumkin

- 1 oygacha bulgan majburiyatlar

- 1 oydan 2 oygacha bulgan majburiyatlar
- 3 oydan 6 oygacha bulgan majburiyatlar
- 6 oydan bir yilgacha bulgan majburiyatlar
- 1 yildan ortik mududatga bulgan majburiyatlar

Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi va tashkil topish muddati buyicha tahlili

<i>Kreditorlik majburiyatlari</i>	Jami	Shu jumladan yuzaga chikish davri buyicha				
		1 oygacha	1 oydan 2 oygacha	3-6 oy	6 oydan 1 yilgacha	1 yildan ortik
1.mol etkazib beruvchilarga karzlar	18259	12069	3211	2185	254	540
2.byudjet buyicha karzlar	121	121	*	*	*	*
3.mexnatga xak tulash buyicha karzlar	1120	1100	20	*	*	*
4.ijtimoiy sugurta va ta'minot buyicha karzlar	425	412	13,0	*	*	*
5.mulkiy va shaxsiy sugurtalar buyicha karzlar	820	*	500	300	20	*
6.byudjetdan tashkari tulovlar buyicha karzlar	231	120	111		*	*
7.shu'ba korxonalariga karzlar	1289	219,8	854,2	215	*	*

8.uyushma korxonalariga karzlar	8521	5264	2549	*	708	*
9.boshka kreditorlar	215	215				
Jami	31001	19520,8	7258,2	2700	982	540

Korxonada jami kreditorlik karzlarining hisobot davri oxiriga bulgan holati 31001 ming sumni tashkil qilgan. Shundan 1 oygacha bulagan kreditorlik karzlari 19520.8 ming sumni, 1 oydan 2 oygacha bulgan kreditorlik karzlari summasi 7258.1 ming sumni, 3 oydan 6 oygacha bulgan kreditorlik karzlari summasi 2700 ming sumni tashkil qilgan. Muddati utkazib yuborilgan lekin undirilmagan kreditorlik karzlari summasi 540 ming sumni tashkil qilgan.

Kreditorlik karzlarining holatiga ularning aylanish darajalarini o'rganish asosida tulik baxo berish mumkin. Kreditorlik karzlari aylanuvchanligi buyicha quyidagi boglanishlar jadvalini keltirib utish mumkin.

Kreditorlik majburiyatlarining aylanishi tahlili

Ko'rsatkichlar	Utgani yil	Hisobot yili	Farki
1	2	3	4
1.kreditorlik majburiyatlari, m.sum	16542	31001	+14459
2.sotilgan mahsulot tannarxi, m.sum	56100	108400	+52300
3.majburiyatlar, m.sum	28920	65421	+36501
4. Kreditorlik karzlarining muddati utgani, m.sum	645	540	-105
5.kreditorlik karzlarining aylanish koeffitsienti, (2/1)	5,265	3,496	-1,769
6.kreditorlik karzlarining aylanish davri, kunda (1*360/2)	106,1	102,9	-3,2
7. Majburiyatlar tarkibida kreditorlik karzalari ulushi, % da (1/3*100)	57,1	47,4	-9,7
8. Muddati utgan kreditorlik karzlarining jami kreditorlik karzlari tarkibidagi salmogi, % da (4/1*100)	3,7	1,7	-2

Korxonada kreditorlik karzlari utgan yilning shu davriga nisbatan 14459 ming sumga usgan. Ularning aylanuvchanlik darajasi ham utgan yilga kadar bir kadar yaxshilangan. Jumladan kreditorlik karzlarining aylanish koeffitsienti –1,769 ga, kuni esa 3,2 kunga kamaygan. Demakki korxona kreditorlik karzini tulashtirish muddati 3,2 kunga tezlashgan deyish mumkin. Bu albatta katta ko'rsatkich emas. Lekin shunga karamay korxona ularni tezlashtirish choralarini ko'rmog'i lozim.

Kreditorlik majburiyatlarining jami majburiyatlar tarkibidagi salmogi utgan yilning shu davriga nisbatan 9.7 foizga kamaygan.

Muddati utgan kreditorlik majburiyatlari esa summa buyicha 105 ming sumga kam bulgan, foiz hisobida 2.0 foizga kamaygan.

Kreditorlik karzlari aylanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	Kreditorlik karzlari aylanish koeffitsienti	Kreditorlik karzlari aylanish davri
1.utgan yil	5,265	106,1
2.shartli hisobot yili	6,553	54,9
3.hisobot yili	3,496	102,9
Jami fark	-1,796	-3,2
Ta'sir etuvchi omillar	*	*
1.sotishdan olingan sof tushum summasining uzgarishi	+1,288	-51,2
2.debitorlik karzlari summasining uzgarishi	-3,057	+48,0

Kreditorlik karzlarining shartli aylanish koeffitsienti va aylanish davri

108400

16542*360

K1=-----=6,553,

K2=-----=54,9

16542

108400

kreditorlik karzlari aylanish koeffitsienti utgan yilga nisbatan 1.796 darajaga kamaygan. Bu uzgarishda sotilgan mahsulot tannarxining uzgarishining ta'siri +1,288 ga, kreditorlik karzlari summasining uzgarishi esa -3,057 ga teng bulgan.

Kreditorlik karzlarining tulash muddati utgan yilga nisbatan -3,2 kunga tezlashgan. Bu uzgarishda mahsulotlar tannarxining eki sotib olingan kiymatliklar va xizmatlar summasining uzgarishi ta'siri -51,2 kunga, kreditorlik karzlari summasining uzgarishi esa +48,0 kunga teng bulgan.

7. Karzlarni kamaytirish yullari

Uzbekiston respublikasi prezidentining 1995 yil 12 maydagi "xalk xujaligida hisob-kitoblarni uz vaktida utkazilishi uchun korxona va tashkilotlar raxbarlarining ma'suliyatini oshirish borasidagi chora tadbirlari to'g'risida" gi va 1996 yil 24-yanvardagi "tulov intizomini va uzaro hisob-kitoblar tizimini mustaxkamlash chora tadbirlari to'g'risidagi" farmonlarini bajarish

borasida muayyan ishlar olib borilaetganligiga karamasdan debitorlik-kreditorlik karzlari boshkarish ogir axvolda kolmokda.

Jumladan 1998 yil 1-yanvar holatiga ko'ra muddati utgan debitorlik karzlari 50,2 mlyard sumni, kreditorlik karzlari esa 80,3 mlyard sumni tashkil etgan. Eng ogir tamoni shuki ularni undirishning iktisodiy asosi yil sayin ogirlashib bormokda.

debitorlik kreditorlik karzlarining oldini bitta dastur asosida va uni nazorat qilish asosida uddalab bulmaydi. Buning uchun bevosita keng kamrovli dastur ishlab chikish lozim.

bizning fikrimizcha debitorlik kreditorlik majburiyatlarining oldini olish maksadida kuyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish makbuldir:

-uzaro shartnomaviy munosatlarda tamonlarning ma'sulligi va ularning shartlariga kat'iy amal etish;

-muddati utkazib yuborilagn har kanday tulovlar summasi buyicha xukukiy javobgarlik shartlarini belgilash;

-hisob kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;

-dargumon karzlar buyicha rezervlar tashkil qilish mexanizmini ishlab chikish va x.k.;

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar.

Debitorlik qarzlari to'g'risida tushuncha va ularni tahlil etish uslubi.

Debitorlik qarzlarni umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati bo'yicha tahlil etish uslubi.

Kreditorlik qarzlari to'g'risida tushuncha va ularni tahlil etish uslubi.

Kreditorlik qarzlarni umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati bo'yicha tahlil etish uslubi.

Qarzlarni kamaytirish g'ollari.

7-mavzu Moliyaviy natijalarni tahlili

Dars o'quv maqsadi - talabalarga korxonalar xo'jalik faoliyati tahlili haqida umumiy tushunchani, korxonalar xo'jalik faoliyati tahlili predmeti va ob'ektlarini, korxonalar xo'jalik faoliyati tahlilining funktsiya va vazifalarini, tahlilining metodi va uni tashkil etuvchi usullarni ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar- moliyaviy natijalar tahlilining mazmuni va tahlil vazifalari. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, ular bilan qiziquvchilarni jalb etuvchi asosiy ko'rsatkichlar. Moliyaviy natijalarni shakllanishi. Sotishdan ko'rilgan foydaga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash tartibi. Davr xarajatlarini tahlil etish uslubi. Asosiy faoliyatning boshqa jarag'laridan daromadlar va tushumlar. Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan foyda (zarar)larni tahlil etish tartibi. Rentabellik turlari, ularni mohiyati va aniqlash tartibi. Korxona aktivi (mol-mulk) rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillar. Ishlab chiqarish rentabelligi va unga ta'sir etuvchi omillar. Mahsulot turlari bo'yicha rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillar. Mahsulot tannarxi. Mahsulot birligini bahosi. Foyda va rentabellikni oshirish g'ollari.

Asosiy savollar

- 1. Moliyaviy natijalar tahlili mazmuni va vazifalari. Tahlil manbalari.**
- 2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni asosiy kursatkichlari, ular bilan shugullanuvchilarning iqtisodiy manfatlari.**
- 3. Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ularning turlari.**
- 4. Mahsulot (ish, xizmatlarni) sotishdan moliyaviy natija va uning uzgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.**
- 5. Davr xarajatlarining tahlili**
- 6. Asosiy faoliyatning boshqa jaraenlaridan olingan daromad va xarajatlar tahlili.**
- 7. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad va yukotishlar tahlili.**
- 8. Favkulodda foyda va zararlar tahlili**

9. **korxona hisob foydasi (solik tuloviga kadar foyda) tahlili**
10. **Sof foyda va uning uzgarishini omilli tahlili.**
11. **Rentabellik va uning kursatkichlar tizimi.**
12. **Rentabellikka ta'sir etuvchi omillar tahlili.**

1. Moliyaviy natijalar tahlili mazmuni va vazifalari. Tahlil manbalari.

foyda (daromad) iktisodiy xarakatning zaruriy sharti maksadi sifatida karaladi. Jaxon amaliyotida foyda deyilganda kupincha biznes samaradorligining tadbir vositasi sifatida karaladi. foyda bu daromadlar va xarajatlar farkanishidagi yukori uzgaruvchanlikdir. ular orasidagi kuyi uzgaruvchanlik esa zararni ifodalaydi.

daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foydani ulchashga daxldor ulgan elementlar hisoblanadai. Daromadlar va xarajatlarni, yani foydani aniklash va ulchash - korxona uz moliyaviy hisobotini tayerlashda foydalaniladigan kapital kontseptsiyasi xamda kapitalning saklanishiga boglik buladi.

daromadlar va xarajatalar elementlari kuyidagicha aniklanadi.

Daromadlar - bu hisobot davrida iktisodiy foydaning aktivlarning okimi eki kupayishi shaklida usishi eki passivlarning katnashchilarning kapitaldagi omonatlaridan fark etuvchi usishiga olib keluvchi kamayishidir.

xarajatlar – hisobot davrida iktisodiy foydaning aktivlarning chikib ketishi eki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek , katnashchilar o'rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarning yuzaga kelishidir.

daromad va xarajatlarni aniklash ularning asosiy hususiyatlarini belgimlaydi, ammo udarni moliyaviy natijalar hisobotida aks ettirishda talab kilinadigan mezonlarni aniklashni maksad kilib kuymaydi.

moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning uzaro farkllanishidagi holatga baxo beriladi. Moliyaviy natijalar foyda va zararlarning shakllanish katorlari buyicha uzgarishlari o'rganiladi. Foyda va zararlarning omilli tahlili olib boriladi. Korxonada moliyaviy natijaviylikni yaxshilash yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yulga kuyishning chora va tadbirlari belgilanadi. Korxonaning foydalilik darajaasini xarakterlovchi rentabellik kursatkichi va uning omilli tahlili utkaziladi.

tahlil moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni ukish, vertikal tahlil, gorizontal tahlil, trendli tahlil va ko'rsatkichlarni aniklash usullarida olib boriladi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni ukishda uning satrlar buyicha ko'rsatkichlar tartiblanishiga, moliyaviy natijaviylikni xarakterlovchi umumiy katorlarning kiymat ifodasi, hisobot davri va utgan yilning shu davri buyicha ma'lumotlarga umumiy izox beriladi.

vertikal tahlilda moliyaviy natijalarning shakllanishini bir katorli va kup katorli usullarida uzaro farkanishlarga va nisbiy uzgarishlar baxo beriladi.

gorizontal tahlilida esa moliyaviy natijalarning buylamasiga tarkiblanishi va ularning uzgarishlari o'rganililadi.

asosli eki trend tahlilida moliyaviy natijalar va ularning yillir buyicha uzgarishi, dinamikasi eki asos yiliga nisbatan uzgarishdlariga baxo beriladi.

